ISSN 2181-3035
30/12/2023. №25



ILM-FAN MUAMMOLARI TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI

KITOB
TADQIQOT
ILM
TAHLIL
FAN
TA'LIM
YANGI O'ZBEKISTON
INNOVATSIYA
MAKTAB
BUYUK KELAJAK
UCHINCHI RENESSANS

doi
zenodo
CYBERLENINKA
OPEN ACCESS
Google Scholar

@TALQINVATADQIQOTLAR

KONFERENSIYA QATNASHCHILARI:

- TALABALAR
- MAGISTRANTLAR
- DOKTARANTLAR
- YOSH OLIMLAR
- O'QITUVCHILAR

Aniq fanlar
Tabiiy fanlar
Tibbiyot fanlari
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Texnika fanlari
San'at va madaniyat fanlari
Iqtisod fanlari
Jismoniy tarbiya va sport
Filologiya fanlari
Pedagogika fanlari
Psixologiya fanlari

TALQINVATADQIQOTLAR.UZ
+99891-152-93-14

Ushbu ilmiy-onlayn konferensiya “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, talabalar, magistrantlar, doktarantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 1540-sonli Guvohnoma, ISSN 2181-3035, talqinvatadqiqotlar.uz veb-sayti) tomonidan har tashkil etib boriladi.

“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida”

mavzusidagi 25-sonli respublika ilmiy konferensiyasi

MATERIALLARI TO‘PLAMI

30-dekabr, 2023-yil

1-QISM

“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi tahrir kengashi:

Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich
Farg‘ona davlat universiteti mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri q.x.f.f.d (PhD)
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

SAYYID SHARIF JURJONIY QALAMIGA MANSUB “TA’RIFOT” ASARINING ZAMONAVIY NASHRLARI

Abdullayev Davronbek Dilmurod o’g’li

Oriental universiteti, Filologiya va tillarni o’qitish fakulteti stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sayyid Sharif Jurjoniyning terminologiyaga oid “Ta’rifot” asarining zamonaviy nashrlari, ular o’rtasidagi farqlar hamda ular nashrga tayyorlashda suyangan manbalari zikr etib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Ta’rifot, Jurjoniy, istiloh, Qohira, Bayrut.

Ta’rifot asari qadimda va hozirda yuksak e’tiborga sazovor bo’lib kelgani ma’lum. Misol tariqasida aytadigan bo’lsak, ibn Kamol Posho unga bir qancha qo’shimchalar qo’shgan holda boshqa “Ta’rifot” asarini ta’lif etdi. Undan so’ng esa Abdurrauf ibn Muhammad Munoviy “Attavqif ‘ala muhimmati-t-taorif” asarida “Ta’rifot”ga bir qancha muhim ziyodalar kiritdi.

G’arb sharqshunoslari ham arab tilida bitilgan ilmiy merosni o’rganish kaliti bo’lmish ushbu asarni o’rganishga kirishdilar. 1845-yil Gustav Fyugel tomonidan Leyspigda kitobning chop etilishi fikrimizni tasdiqlaydi.

Ta’rifot asari 1837-yil Istanbulda, 1843-yil Leypsigda, 1866, 1888, 1938- yilda Misrda nashr etilgan. Uning zamonaviy nashrlariga 1983, 1985-yillarda Livanda va 2004-yilda Misrda chop etilgan nashrlarni misol qilishimiz mumkin. Zamonaviy nashrlarda mazkur asar toshbosma nashrlarga asoslangan holda chop qilingan[1].

Ushbu bosmalarning ayrimlari bir-biridan nusxa ko’chirishdangina iborat bo’lsa, ba’zilarining ustida matnni to’g’rilash amaliyotlari amalga oshirilgan.

Endi asarning arab diyorlarida chop etilgan zamonaviy nusxalari haqida so’z yutirsak. Asarning arab olamida katta shuhrat qozongani boisidan ko’p bora bir qancha davlatlarda bosib chiqarilgan. Ularni nashr tayyorlagan olimlar va ular tayyorlagan nusxa xususiyatlarini ko’rib o’tamiz:

[1][1, B. 16]

1. Muhammad Ali Abu Abbos.

Muhammad Ali Abu Abbos kitobning tahqiqini amalga oshirayotganida uning oldingi nashrlarida ayrim kamchiliklar uchraganini e’tiborga olgan. U: Ushbu nashrlarda amalga oshirilgan harakatlarga qaramay ularning barchasida ochiq-ravshan kamchiliklarga yo’l qo’yilgan,- deydi, o’zi yozgan muqaddimada. U ko’rgan asosiy kamchiliklar sifatida quyidagilarni sanaydi:

- Matnni to’g’ri zabt etishga e’tibor berilmagani;

- Hadisi nabaviylarni o’z manbalariga taxrij qilinmagani, ya’ni havola qilinmagani;

- She’r baytlarini o’z egalariga nisbat berilmagani;

- Ta’rifot kitobi naql qilgan yoki undan naql qilingan kitoblar bilan solishtirilmagani;

- Qo’shimcha izohli ko’rsatkichlar berilmagani.

Muhammad Ali “ushbu kamchiliklarni tuzatish orqali kitobni komil holatda chiqarishga erishiladi”, deb aytadi. U asarga bergan muqaddimasida asar muallifini tanishtiradi, uning ismi, nasabi, tug’ilgan yili va joyi, ba’zi ustozlari, uning yashagan asri, muallifning tutgan o’rni va olimlarning unga aytgan maqtovlari, uning ba’zi asarlari, muallif ushbu kitobda ishlatgan ayrim istilohlari va muallifning vafot etgan joyi va makonini zikr etib o’tgan.

Shuningdek, yuqorida aytilganidek, oldingi nashlarda yo’l qo’yilgan kamchiliklar va ularni to’g’rilashda hamda asar matnini tayyorlashda tutgan uslubini aytib o’tgan. Ushbu nashr 2009-yili Qohirada, “Dorut tolai`” nashriyoti tomonidan amalga oshirilgan[2].

2. Abdurahmon Umayra.

“Ta’rifot”ga yozgan muqaddimasida Abdurahmon Umayra oldingi nusxa ko’chiruvchilar oldingi nashrlarda ko’plab tjoylarini ushirib qoldirishgani aytadi. Shuning uchun ushbu nashrda ushbu tushib qolishlar o’rniga qaytirilib, ko’plab qo’shimchalar kiritilgani hamda ushbu nashr “Ta’rifot” asarining ilk mukammal nashr ekanini ta’kidlab o’tadi.

[2] [2, B. 27-28]

U asarga bergan muqaddimasida asar muallifining yashagan asri, uning ismi, nasabi, tug’ilgan yili va joyi, muallifning hayoti, uning ba’zi asarlari, “Ta’rifot” kitobi va uning ahamiyyati, muallif ushbu kitobda ishlatgan ayrim istilohlari va o’zining asarni nashrga tayyorlashga kirishi sababini zikr etib o’tgan. Ushbu nashr 1996-yil Bayrutda “Olamul kutub” nashriyoti tomonidan amalga oshirilgan[3].

3. Ibrohim Abyoriy.

Ibrohim Abyoriy boshqa muhaqqiq-matnshunoslar kabi o’zidan oldingi nashlarda ko’plab qusularga yo’l qo’yilganini aytadi. Uning asosiy amalga oshirgan ishi asarni muallif tartibida emas, to’la alifbo ketma-ketligida tartiblaganadir.

Ibrohim Abyoriy asarga muqaddima berar ekan, avvalo asar muallifining tarjima holini olgan manbalarini keltirib o’tadi. So’ng muallifning ismi, nasabi, tug’ilgan yili va joyi, muallifning hayoti, uning ko’plab asarlari, “Ta’rifot” kitobi va uning ahamiyyati, o’zining asarni nashrga tayyorlashga kirishi sababini zikr etib o’tgan. Ushbu nashr 1983-yil Bayrutda “Dorur rayyon” nashriyoti tomonidan amalga oshirlgan[4].

4. Maktabu Lubnan.

Livanning Bayrut shahridagi “Maktabatu Lubnan” nashriyoti asarni nashrga tayyorlar ekan, bir betdan oshmaydigan muqaddimada muallif hayoti, uning ushbu asari hamda muallifning tasavvuf bilan aloqasi haqida so’z yuritgan. Kitob oxirida Muhyiddin Ibn Arabiyning tasavvufiy istilohlari oid qisqacha lug’at berilgan. Ushbu nashr 1985-yili amalga oshirilgan[5].

5. Muhammad Bosil Uyunus Sud.

Muhammad Bosil asarni nashrga tayyorlashga undagan sabablar haqida so’z yuritar ekan, ularni quyidagilar ekanini aytib o’tadi:

- ushbu kitob bir necha bor chop etilganiga qaramay, muhaqqiq-matnshunoslar tomonidan unga yetarli e’tibor berilmagani;

- Jurjoniy olg’a surgan fikrlarda ko’plab yangiliklar kiritgani. Bu uning ilmi kengligi va tafakkuri o’tkirligiga dalolat qiladi;

[3] [2, B. 28]
[4] [2, B. 28,29]
[5] [2, B. 29]

- Jurjoniyning o’zidan oldin o’tgan olimlarning lug’aviy ta’riflarini ko’rib chiqib, ayrimlarini to’g’ri, ayrimlarini esa xato deb topishi.

U ushbu va boshqa sabablarga ko’ra ushbu lug’aviy xazinani nashrga tayyorlashga bel bog’laganini ta’kidlaydi. U muqaddimada ushbularni aytib o’tib, yana bir muqaddima berib, unda muallifning tarjimai holi va asarlari haqida so’z yuritgan. Asar so’ngida mundarija va turli izohli ko’rsatkichlar taqdim qilgan. Ushbu nashr 2003-yili Bayrutda “Dorul kutubil ilmiyya” nashriyotida amalga oshirilgan[6].

6. Muhammad Siddiq Minshaviy.

Muhammad Siddiq o’zi taqdim etgan muqaddimada avval arab lug’atchilik tarixi, hamda istiloh lug’atlari haqida so’z yuritadi. So’ngra ushbu asarning nashrlari haqida so’z yuritib ushbu nashrning asosiy xususiyatlari quyidagicha ekanini aytadi:

- Muallif tartibining saqlanib qolinganligi;
- Matnni lug’aviy jihatdan to’g’rilangani, harakatlar qo’yish kerak joylarga qo’yilgani hamda qiyin so’zlar sharhlangani;
- Nusxa ko’chirishda qo’yilgan xatolarni “Ta’rifot”ning manbalariga ko’ra tuzatilgani;
- Qur’on oyatlari va Hadisi nabaviylar manbasiga taxrij-havola qilingani;
- Tarixiy shaxslarga qisqacha tarjimai hol berib o’tilgani;
- Firqalarga va ularning asoslariga qisqacha ta’rif berib o’tilgani;
- Kitob avvalidan oxiriga qadar istilohlar raqamlab chiqilgani;
- Kitob so’ngida istiloh va sahifa raqami ko’rsatilgan alifbo tartibidagi istilohlar mundarijasi berilgani;
- Istilohlarni o’z faniga hoshiyada nisbat berib ketilgani.

So’ngra esa Jurjoniy va uning asarlari haqida ikki sahifada qisqacha ma’lumotlar keltiriladi. Ushbu nashr 2004-yil, Qohirada, “Dorul fadila” nashriyotida amalga oshirilgan[7].

Ko’rib turganimizdek, ushbu nashrlarning aksari Qohira va Bayrutda chop etilgan. Arab olamida ko’plab kitoblar aynan shu ikki shaharda chop etiladi.

[6] [2, B. 20]
[7] [1, B. 4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. ص.3-4. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. دار الريان.

2. منصور علي عبد العزيز. الجهود الاصطلاحية المعجمية في كتاب التعريفات للجرجاني. ليبيا. جامعة طرابلس. كلية اللغات الدراسات العليا.قسم اللغة العربية. 2015.

3. Sotvoldiev, S. (2023). PRINCIPLES OF COMPOSITION OF SCIENTIFIC-CRITICAL TEXT OF IBN SAYYID'S DICTIONARY" AL-MUSALLAS". THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(7), 62-66.

4. Sotvoldiev, S. (2022). PRINCIPLES OF COMPOSITION OF SCIENTIFIC-CRITICAL TEXT OF IBN SAYYID'S DICTIONARY" AL-MUSALLAS". Thematics Journal of History, 8(1.(

5. Maxammaddin o'g'li, S. S. (2023). IBN MOLIK HAYOTI VA UNING ARAB TILSHUNOSLIGIDA TUTGAN O'RNI. Vol. 2 No. 11 (2023): Innovative Development in Educational Activities (IDEA(

6. Sirojiddin, S. (2023). «МУСАЛЛАС» ТУРИДАГИ ЛУҒАТЛАРНИНГ АРАБ ЛЕКСИКОГРАФИЯСИДАГИ ЎРНИ. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 356-365.

7. Сотволдиев, С. М. (2023). АРАБ ЛЕКСИКОГРАФИЯСИДА МАНЗУМА МУСАЛЛАСЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ. Innovative Development in Educational Activities, 2(23), 474-478

ҚОРАКЎЛЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИНФРАТУЗИЛМА СУБЪЕКТЛАРИНИ МУВОФИҚЛАШТИРИШ

Иномов Жафарбек Ғуломжон ўғли

Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази таянч докторанти

Аннотация: Мақолада қоракўлчилик тармоғининг ўзига хос хусусиятлари, қоракўлчилик тармоғида ихтисослашган кластерлар ташкил қилишнинг афзалликлари ва камчиликлари баён қилинган.

Калит сўзлар: Наслдор қоракўл қўйи, майда шохли моллар, эчкилар, жун, гўшт, кластер, чўл, яйлов, ем-хашак.

Аннотация:В статье рассматриваются особенности сферы каракулеводства, преимущества и недостатки организации специализированных кластеров в сфере каракулеводства.

Ключевые слова: Племенной скот, мелкий рогатый скот, козы, шерсть, мясо, кластер, степь, пастбища, корма.

Abstract: The article examines the specific features of the cattle breeding network, the advantages and disadvantages of the organization of cattle breeding clusters.

Key words: Breeding cattle, cattle, goats, wool, meat, cluster, desert, pasture, forage, feed.

Чорвачилик тармоқлари, шу жумладан қоракўлчилик соҳаси асосан паст рентабелли, технологик жараёнлари мураккаб, мавсумий характерга эга бўлмаган, яъни моллар йилнинг тўрт фас-лида ҳам алоҳида парваришлаш ва кўп меҳнат талаб қиладиган, шунингдек, бевосита деҳқончилик тармоқлари билан боғлиқ ҳолда ташкил қилиш ва ривожантиришни тақозо қилувчи муҳим реал тармоқлардан бири бўлиб ҳисобланади. Шу боисдан, республикамизда амалга

оширилаётган аграр сиёсатни янада ривожлантириш ва дунё ҳамжамияти доирасидаги нуфузини мустаҳ-камлаш мақсадида “Қишлоқ хўжалиги тўғрисида”ги алоҳида махсус қонун қабул қилиш асосида қишлоқ хўжалиги ҳамда қишлоқ жойларини барқарор ривожлантириш, фермер ва томорқа ер эгаларининг даромадларини ошириш, қишлоқ аҳолисининг яшаш шароитини яхшилаш ҳамда фаровонлигини таъминлаш, давлатнинг аграр соҳа билан боғлиқ вазифалари, ўрни ва ролини белгилаш, қишлоқ хўжалиги корхоналарининг товар маҳсулотлари чиқариш ва сотишдаги эркинликларини таъминлаш ҳамда даромадларини ошириш, агросаноат тармоқлари субъектлари учун қулай инвестицион муҳит яратиш, инновацион технология, илмий ишланма ва маҳсулотлар татбиқ этиш фаол-лигини ошириш ва рағбатлантириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг сифатини ошириш, экспортга маҳсулот чиқаришни рағбатлатлантириш ва бошқа муҳим чора-тадбирларни ўз ичига олувчи йўл хариталарини ишлаб чиқиб, амалиётга татбиқ этиш устувор аҳамият касб этади.

Ҳозирги кунда, республикада чорвачиликни ривожлантириш борасида ривожланган давлатлар тажрибасидан келиб чиқиб, нафақат “Қишлоқ хўжалиги тўғрисида”ги, балки “Чорва моллари генофондини сақлаш тўғрисида” ҳамда “Четдан олиб келин-ган ва республикамиздаги чорва молларини идентификациялаш ва рўйхатдан ўтказиш, уларга паспорт тизими жорий этиш тўғрисида”ги қонунларни қабул қилиш мақсадга мувофиқ.

Чорвачиликка ихтисослашган хўжаликларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, аҳолини сифатли чорвачилик маҳсулотлари билан таъминлаш учун ривожланган мамлакатлар тажрибаларидан келиб чиқиб, чорвачилик маҳсулотларига энг юқори ва энг қуйи нархларни белгилаш мақсадга муво-фиқ бўларди. Чунки, аксарият чорвачилик маҳсулотлари, шу жумладан, гўшт ва сут ишлаб чиқариш паст рентабелли ёки зарар билан ишлайдиган фаолият тури бўлганлиги учун кўпгина давлатларда дотацияда турадиган соҳа бўлиб хисобланади. Республикамизда ҳам, маълумки, қоракўлчилик асосан зарар кўриб ишлайдиган ёки кам даромадли тармоқ ҳисобланади. Шунинг учун

чорвачиликка ихтисослашган қишлоқ хўжалиги корхоналари, фермер ва деҳқон хўжаликларининг даромадларини ошириш ҳамда улар фаолиятида инновацион техника ва технологияларни жорий этиш учун уларга имтиёзли кредитлар ажратиш, суғурта тўловларини қисман давлат бюджетидан тўлаб бе-риш ва субсидиялар ажратиш, шунингдек, мамлакатда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ички бозордаги нархларини тартибга солиш мақсадида квота ва тарифлар ўрнатиш мақсадга мувофиқ.

Республикамизда наслли қоракўлларни сақлаш ва кўпайтириш, подаларни зотдор, сермаҳсул моллар билан шакллантириш, уларни турли ташқи салбий таъсирлардан ҳимоя қилиш тизимини йўлга қўйиш муҳим аҳа-миятга эга. Бундан ташқари, республикамизда наслдор чорва молларини бракка чиқариш ва сўйишни тартибга солиш мақсадида махсус рухсатнома-ларни жорий этиш, наслли қоракўлларни республикамиздан олиб чиқиб кет-маслигини таъминлаш мақсадида уларни ҳимоялаш, давлат реестрига кири-тиш ва уларга сервис хизмати кўрсатишни ривожлантириш зарурати ҳуқу-қий-меъёрий жиҳатдан янги, истиқболли чора-тадбирларни амалга ошириш-ни тақозо қилмоқда. Ҳозирги кунда республикамиздаги барча наслли қоракўл зотлари, қоракўллар бош сони аниқланиб, ҳукумат даража-сида назоратга олинди ва ушбу соҳа билан боғлиқ барча чора-тадбирларни амалиётга қўллаш бўйича мақсадли ва манзилли ишлар олиб борилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўз.Р. Президентининг “Шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларида чорва моллар кўпайтиришни рағбатлантиришни кучайтириш ҳамда чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кенгайтириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 842-сонли қарори

2. Ўз.Р. Президентининг “Шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларида чорва молларни кўпайтиришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 308-сонли қарори

3. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маълумотлари

4. Қоракўлчилик ва чўл экологияси илмий-тадқиқот институти маълумотлари

5. Бухоро чўл-яйлов озуқабоп ўсимликлар уруғчилиги илмий-ишлаб чиқариш марказининг маълумотлари

6. http://mylektsii.ru/5-3746.html

“BOLALIK” SO‘ZI QATNASHGAN VA BOLALAR MAVZUSIGA OID MAQOLLAR BADIIY SAN’ATLAR

Akbarova Gulasalxon

FarDu talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalik davri va farzand tushunchalarining inson hayotidagi beqiyos o‘rni – o‘zbek xalq maqollarining go‘zal namunalari misolida tahlil etilgan. Maqol janriga xos xususiyalra asosida ulardagi qo‘llanilgan badiiy san’at turlari va bayon etish shakllari ochiqlangan.

Kalit so‘zlar: Ona-bola, o‘g‘il, qiz, metafora, tazod, she’riy shakl.

O‘zbek xalq maqollari mavzu jihatidan xilma-xil va turlichaligi bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlanadi. Ming yillar dabomida hayotiy tajribalar asosida xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollar mazmun jihatidan chuqur bo‘lishi bilan bir qatorda badiiy jihatdan ham mukammaldir. Maqollarning mavzu doirasi nihoyatda keng bo‘lib, turli soha va xalqning turli qatlamlari hayotini o‘zida aks ettiradi. Ularda foydalanilgan til birlliklari, badiiy san’atlar esa maqollarning ma’noviy jihatdan yanada boyishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan maqollar jamiyatning turmush tarzidan kelib chiqqan holda yaratilgani sababli ta’sirchanligi yanada oshgan.Xususan, bolalik hamda ona va farzand mavzularidagi maqollarni tahlil etish orqali bu unsurlarni ochib berishga harakat qilamiz.

Xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan “maqol” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “xalq donoligi”, “otalar so‘zi” ma’nolarini anglatadi”.[8] Maqol va matallar xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa-voqealarga munosabati demakdir. “Maqol kundalik hayotda kishilarning bir-birlariga munosabatlarida yaratiladi”.[9] Xalq donoligi sanalgan bu janr asosan she’riy yo‘lda

[8] M.Hamrayev Adabiyot fanidan uslubiy qo’llanma 2018, 5-bet
[9] G’. Salomov Tarjima tashvishlari. Toshkent1983.7-bet

yoziladi. Maqollarda ko‘chimning metafora turidan, badiiy san’atlardan tazod, isitora, tashbeh va shu kabilardan keng foydalaniladi. Jumladan:

Bolaligim- podsholigim.

Bolali uyda sir yotmas,

Bolasiz uyda kir.

Bolali xotin - gul xotin,

Bolasiz xotin – tul xotin.

Bolalining beli chinor,

Bolasizning beli sinar.

Bolasi ko‘p - bo‘lar boy,

Bolasi yo‘q – quruq soy.

Bolali xotin- gul xotin,

Bolasiz xotin- tul xotin.

Ushbu maqolda anglashiladiki, “bolali” va “bolasiz”, “gul” hamda “tul” so‘zlari maqol matnida o‘zaro antonimlikni hosil etib, tazod san’atini yuzaga keltirgan. Bu qarshilantirish orqali esa bolali ayolning baxtli, bolasiz ayolning baxtsizligi yanada oydinlashgan. Chunki hayoti tajriblarda bu narsa yaqqol namoyon bo‘lgan.

“Bola” so‘zi qatnashgan maqollarda yuqorida aytilganiday metaforik ma’no ko‘chishidan ham keng foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin:

Bola uyning ham guli, ham bulbuli.

O‘g‘il qanotli ot bo‘lsa,

Qiz qanotli qushdir.

Quyidagi maqollarda ham farzand va uning tarbiyasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, ularda ham tazod san’atiga murojaat etilgan. Shuningdek, ayrimlarida kesimning tushirish holatlari mavjudligi va bu ma’noni lo‘nda ifodalashga xizmat qilayotganiga amin bo‘lamiz.

Yaxshi o‘g‘il el obro‘si,

Yaxshi qiz uy obro‘si.

Yaxshi o‘g‘ildan rahmat yetar,

Yomon o‘g‘ildan la’nat.

Yaxshi o‘g‘il uy tuzar,

Yomon o‘g‘il to‘y buzar.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan barcha maqollarda xalqimizga xos soddalik mujassam bo‘lib, har bir maqol qaysidir ma’noda tarbiyaviy xarakterga ega. Ularni tahlil ostiga olar ekanmiz, Badiiy adabiyotning metafora, tazod kabi san’atlaridan foydalangan holda yaratilganligiga va bu usullar mazmunni yana bo‘rttirib, boyitib berayotganiga guvoh bo‘lamiz. Umuman olganda, o‘zbek xalq maqollari, ayniqsa, ona va bola mavzusidagi maqollar ma’no jihatdan rang-barang, ularni tahlil etish ham juda maroqli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Hamrayev. O‘zbek adabiyoti qo‘llanma. Toshkent.: 2018, 5-bet
2. D.Abdurahmonova. O‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili, 2021
3. G‘.Salomov Tarjima tashvishlari, Toshkent: 1983, 7-bet.
4. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322
5. Sayidolimov, Javoxirbek Baxtiyorjon o‘g‘li AGIOGRAFIK ADABIYOTDA TAZKIRA // ORIENSS. 2023. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/agiografik-adabiyotda-tazkira (дата обращения: 29.12.2023).

METHODS TO INCREASE THE VOCABULARY OF 7TH GRADE STUDENTS USING SHORT STORIES

Turg’unboyeva Gulshanoy Ravshanbek qizi
FerSu magister student
kamoldinovagulshanoy@gmail.com
Baxtiyorjon Siddikov Saidkulovich
FerSu teacher PhD Dcs

Annotation: This article focuses on the methods to increase the vocabulary of 7th grade students using short stories.

Key words and expressions: pivotal, investigate, mix method, challenging, Storytelling, endless effect, recommended.

Anotatsiya: Ushbu maqola 7-sinf o'quvchilariga qisqa hikoyalar orqali lug'atni o'rgatishning usullariga qaratilgan.

Kalit so'z va iboralar: muhim, tatqiq etmoq, aralash usul, qiyin, hikoya aytish, cheksiz ta'sir, tavsiya etilgan.

Vocabulary plays pivotal role in foreign language learning. However vocabulary teaching and vocabulary learning skills seems to be more challenging these days. The present article experimentally aimed to investigate the effective methods of teaching vocabulary to 7^{th} students using short stories. Accordingly, a mix method design was employed to one English teacher and two English classes consisting of pupils to reveal the issues being investigated. The findings showed that both teacher and pupils have positive response on both learning and teaching vocabulary through short stories. Concerning the methods of vocabulary teaching through stories, it was found that teacher mostly employed Storytelling techiques, meanwhile Making up a story technique was found as the most favored and chosen by pupils. The study also confirmed that using short stories in teaching vocabulary undoubtedly has an endless good effect on school pupils learning the language. It is recommended for EFL

teachers to use short stories while teaching vocabulary and present the effective methods and techniques mentioned below. It is also suggested to introduce school pupils to various kinds of vocabulary learning strategies. Developing students’ vocabulary is one of the important duties for English teacher. The teacher techniques make the English lesson more exciting. Allen states that teaching English for the beginner need a particular technique. The best technique in using an approach is that should be related to their world. In other words, the students can acquire more understanding of language learning by memorizing vocabularies. So, the students would get more motivation in their class. Using a story is one of the important ways to share or send the material to the students. With the help of stories, it will easier for the teacher to carry out their learning. Teaching short stories also help the students to understand well about the material that the teacher gives, rather than the teacher explains by themselves. To solve the problem above, the researcher considers the use of short stories as the appropriate teaching tool to teach the students to get rich vocabulary instruction. When the stories are used in an English classroom, the students can directly acquire the cultural background and emotional attitudes about the learning materials. Therefore, they will be more autonomous. Second, stories can motivate students’ passion for learning English and help the teacher to get students’ attention to the lesson. English stories have an endless effect and vivid scenes which can attract students’ attention and decrease their boredom. Third, English stories for language teaching mostly portraits realistic situations in life. The students can learn how the language is used in real life which is very different from the traditional English teaching materials. The last, teaching English by using short stories can provide the students with direct access to learn the culture of the target language. It means that using stories help the students in many thinks, not only in vocabulary but also understanding the facial expression, intonation, body language, and etcetera. One way to enrich vocabulary is used stories, with role plays, make students feel enjoy. It means that story is written information that consists of paper material and picture that can apply for the teacher to send the material to the students. The story is one of the

teaching-learning processes. In this article, the researcher only focuses on methods of teaching vocabulary to 7th grade students using short stories.

References:

1. Armstrong. L.(2010).Dragons: The Importance of Story and Culture, Hubpages Inc.

2. Cadorath, J. Harris, S. (1998).Unplanned classroom language and teacher training.ELT Journal, 52(3):188–196.

3. Caine, R.., Caine, G., McClintic, C., & Klimic, K. (2005). Brain and mind learning principles in action. Thousand Oaks, CA: Morgan Press.

4. Custodio, B., Sutton M. J. (1998). Literature-Based ESL for Secondary School Students. TESOL Journal, 7(5):19-23.

5. David Wilkins, UK linguist (1972: 111-112)

6. Lazar, G. (1994). Using Literature at Lower Level. ELT Journal, 48(2) :115–124.

7. Mccarthy, M., & O'Dell, F. (2002). English vocabulary in use advanced. New York. Cambridge University Press.

8. Oster, J. (1989). Seeing with different eyes: Another view of literature in the ESL class. TESOL Quarterly, 23(1), 85-103.

9. Oxford, R. L. (2003). Language learning styles and strategies: an overview. GALA 2003 (Retrieved 15th August 2017, from: http://web.ntpu.edu.tw/~language/workshop/read2.pdf)

10. Regmi, L. R. (2003). Teaching English literature (3rd ed.). Kathmandu: Ratna Pustak Bhandar.

11. Richter, M. & Koppet, K. (2000). How to increase retention through storytelling. StoryNet. Retrieved June 1,2005

12. Rossiter, M. (2002). Narrative stories in adult teaching and learning. Eric Digest. Retrieved June 1,2005, from Ebsco Host database.

13. Thombury, S. (2004). A course in language teaching: Practice and theory. Cambridge: Cambridge University Press

14. Wallace, C. (2007). Vocabulary: The key to teaching English language learners to read. Jacksonville State University.

ISSIQLIK IZOLYATSIYA G’OVAK BETONLAR

Eshqulov Nuriddin O’ktam o‘g‘li
JizPI assistenti
Ne’matov Jaxongir Shuhrat o‘g‘li
JizPI talabasi
Norqulov Muhammad o‘g‘li
JizPI talabasi
Qobilov Jahongir Jamshid o‘g‘li
JizPI talabasi

Annotatsiya: Maqolada yacheykali yengil betonlar bog‘lovchi va kremnezemli komponentlar aralashmasini g‘ovak xosil qiluvchi qo‘shimcha vositasida ko‘pchitib olingan kompozitsion qurilish materiallaridir qorishmaning bir meyorda ko‘pchishi natijasida xajm bo‘yicha “yacheykali” struktura xosil bo‘ladigan betonlar to‘g‘risida ma’lumot yozilgan.

Аннотация: В статье ячеистые легкие бетоны представляют собой композиционные строительные материалы, изготовленные путем умножения смеси вяжущих и кремнистых компонентов с порообразующей добавкой.

Annotation: In the article, cellular lightweight concretes are composite building materials made by multiplying a mixture of binder and siliceous components with a pore-forming additive. Information is written about.

Yacheykali beton g‘ovakligini bevosita tayyorlash jarayonida boshqarish mumkin. Yacheykali betonlar o‘rtacha zichligiga nisbatan (quritilgan xolda) issiqlik izolyatsiyasi (ρ_o<500 kgm^3), konstruktiv-issiqlik izolyatsiyasi (ρ_o=500-900 kg/m^3) va konstruktiv (ρ_o=900-1200 kg/m^3) guruxlarga bo‘linadi.

Yengil beton qorishmasini ikki xil usulda ko‘pchitish mumkin: gaz xosil qiluvchi komponentlar aralashtirib kimyoviy usulda va aloxida tayyorlangan ko‘pik aralashtirilib mexanik usulda.

Gaz beton va gazsilikat. Gaz beton portlandsement kremnezemli komponent va gaz xosil qiluvchi aralashma asosida tayyorlanadi. Xususiy xollarda portlandsementga xavoiy oxak aralashtirish mumkin.

Kimyoviy reaksiyalar turiga nisbatan gaz xosil qiluvchilar quyidagicha bo‘linadi: qo‘shilgan komponent (alyuminiy kukuni) bog‘lovchilar yoki ularning gidratatsiya maxsulotlari bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib gaz xosil qiladi: parchalanish davrida gaz xosil qiluvchi komponentlar kiritish (pergidrol-perikis vodorodning suvdagi eritmasi N_2O_2) xisobiga gaz xosil qilish; o‘zaro kimyoviy birikishi natijasida gaz xosil bo‘lishi (masalan, oxaktosh kukuni va xlorid kislotasi birikishi). Gaz xosil qilishning eng keng tarqalgan usuli alyuminiy kukuni va kalsiy gidroksidi o‘rtasida bo‘ladigan kimyoviy reaksiya natijasida vodorod gazining xosil bo‘lishidir:

$$\mathbf{3Ca(OH)_2 + 2Al + 6H_2O = 3H_2 + 3CaO \cdot Al_2O_3 \cdot 6H_2O}$$

Kimyoviy reaksiyalar natijasida xosil bo‘lgan gazlar sement asosida tayyorlangan qorishmani ko‘pchitadi. qorishmaning quyuqlik darajasi to‘g‘ri tanlansa g‘ovak strukturasini saqlab qoladi. O‘rtacha zichligi 600-700 kgm^3 bo‘lgan 1 m^3 gazbeton tayyorlash uchun 0,4-0,5 kg alyuminiy kukuni sarflanadi.

Gazbeton quyma va titratish usullarida tayyorlanishi mumkin. quyma usulda quruq komponentlar massasiga nisbatan 50-60% suv aralashtirib olingan xarakatchan qorishma qoliplanadi. Gazbeton komponentlari-mineral bog‘lovchi, kvars qumi kukuni va suv dozotorlar yordamida meyorlanib o‘ziyurar gazbetonqorgichga solinadi va 4-5 minut davomida sinchiklab aralashtiriladi.

Avvaldan tayyorlangan alyuminiy kukunining suvdagi suspenziyasi qorishmaga qo‘shiladi va aralashtiriladi. Xosil bo‘lgan gazbeton qorishmasi metall qoliplarga massani ko‘pchitib qoliplarni to‘ldirishini xisobga olgan xolda quyiladi. qoliplardan qisman toshib chiqqan gazbetonni taranglangan sim bilan kesib tashlanadi. Gaz xosil bo‘lishini tezlashtirish maqsadida isitilgan suvda gazbeton qorishmasi tayyorlanib 40^0S xaroratda qoliplarga quyiladi. Gazbeton qotishini tezlashtirish uchun avtoklavda 175-200^0S xaroratda va 0,8-1,3 MPa bosimda ishlov beriladi. Portlandsement qisman yoki butunlay xavoiy oxak bog‘lovchisi bilan almashtirilsa avtoklavda issiqlik bilan

qayta ishlash zarur bo‘ladi. Gazbeton faqat oxak bog‘lovchisi asosida olinsa gazsilikatbeton xosil bo‘ladi.

Avtoklavda xavoiy oxak, kvars qumi kukuni yoki kul va metallurgiya shlaklari kukuni asosida gazsilikatbeton tayyorlanadi. Xavoiy oxak va kvars qumi kukuni 1:3 dan 1:4,5 gacha nisbatda massa bo‘yicha olinadi. Bir metr kub gazsilikatbeton tayyorlash uchun 120-180 kg xavoiy oxak bog‘lovchisi sarflanadi. Gazsilikatbeton oxak va kremnezem o‘rtasida bo‘ladigan kimyoviy reaksiya natijasida qotishi tufayli faqat avtoklavda qayta ishlanishi kerak.

Ko‘pikbeton va ko‘piksilikat. Ko‘pikbeton aloxida tayyorlangan sement qorishmasi va ko‘pikni maxsus qorgichlarda aralashtirib olinadi. qorishma portlandsement va uning turlari, xavoiy oxak va boshqa bog‘lovchilar asosida tayyorlanishi mumkin.

Ko‘piksilikat xavoiy oxak va kremnezemli mineral kukunlar asosida tayyorlanadi va qotishini tezlashtirish uchun avtoklavda qayta ishlanadi.

Yacheykali betonlarning xossalari. Yacheykali betonlarning o‘rtacha zichligi 300...1200 kgm^3, g‘ovakligi 60-85% bo‘ladi.

Yacheykali betonlar siqilishdagi mustaxkamlik chegarasiga nisbatan quyidagi markalarga bo‘linadi: M15, M25, M35, M50, M75, M100, M150. Siqilishdagi mustaxkamligiga nisbatan B 0,35...B12,5 klasslarda bo‘ladi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Бердиев, О., Талипов, Н., Курбонов, З., & Болотов, Т. (2023). Development of a formulation for dry cement-adhesive dry building mixtures for ceramic slabs using the addition of spent alumina catalysts. Scientific Collection «InterConf», (180), 407-414.

2. Ганиев, А., & Курбанов, З. (2023). ВЛИЯНИЕ ХИМИЧЕСКИХ ДОБАВОК НА СВОЙСТВА ГИПСОВЫЙ НАЛИВНОЙ ПОЛ. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 2), 160-163.

3. Kurbanov, Z., & Artiqqulov, D. (2023). DETERMINATION OF THE CONTENT OF DRY CONSTRUCTION MIXED ON THE BASIS OF LOCAL

MARBLE WASTE POWDER. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(9), 104-106.

4. Kurbanov, Z., & Artiqqulov, D. (2023). OPPORTUNITIES TO GET LIGHT SUPPLIES BASED ON COAL WASTE. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(9), 100-103.

5. Parsaeva, N., & Kurbanov, Z. (2023, June). Study of the process of determination of chemically contained water in the concentration of additional cement made on the basis of peroxine waste. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

6. Қурбонов, З., Эшқулов, Н., & Ортиққулов, Д. (2023). ҚУРУҚ ҚУРИЛИШ ҚОРИШМАЛАРИНИНГ АСОСИЙ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(5), 61-66.

7. Талипов, Н., Курбанов, З., & Артыккулов, Д. (2023). ЭФФЕКТИВНЫЕ СУХИЕ СМЕСИ С ПОЛИМЕРНЫМИ ДОБАВКАМИ. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(5), 43-48.

8. Kurbanov, Z., Rasulova, N., & Ortikulov, D. (2023). TECHNOLOGY OF APPLICATION OF GEOSYNTHETIC MATERIAL IN PRODUCTION AND CONSTRUCTION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(3), 121-126.

9. Курбанов, З., & Ортиккулов, Д. (2023). ВЫСОКОПРОЧНЫЙ ГИПСОВЫЙ ВЯЖУЩИЙ НА ОСНОВЕ СУЛЬФАТСОДЕРЖАЩЕГО ОТХОДА. Models and methods in modern science, 2(2), 5-12.

10. Шоқосимов, И. К., & Курбанов, З. Х. (2021). ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВА ЗЕМЛЯНЫХ РАБОТ С ПРИМЕНЕНИЕМ ГЕОСЕТОК.

11. Курбанов, З. Х. угли Холбоев, СО (2021). Микроарматурализация сухих строительных смесей волластонитом. Science and Education, 2(5), 410-416.

12. Курбанов, З. Х., Мамиров, А. Х., & Махкамов, М. З. У. (2021). Улучшение процесса горения керамической плитки на заводе строительных материалов. Science and Education, 2(5), 395-402.

TILSHUNOSLIKDA LUG`AT TURLARI VA TERMINOSFERA

Kurbanova Go’zal Abduraximovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Rus tili va adabiyoti kafedrasi o’qituvchisi
terdpi@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada lug`at turlari va yangi terminlarni tarjima qilish usulini tanlash muammolari, terminlarni tarjima qilishning ko`plab usullari, ko`plab tilshunoslarining bu borada amalga oshirgan ishlari, tadqiqotlari, terminning qo`llanish xususiyatlariga ko`ra bir qator hossalari va talablari o`rganib chiqildi.

**Kalit so`zlar:** lug`at, lug`at turlari, atama, termin, tarjima, pragmatik holatlar, yangi so`zlar.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa ko`plab sohalarning jadal rivojlanishi ko`plab sohalar uchun dolzarb bo`lgan nazariyalar, tushunchalar, hodisalarni o`rganishni taqozo etmoqda. Aynan termin yordamida turli sohalardagi bilimlarimiz natijalari tilda namoyon bo`ladi. Shu munosabat bilan yangi terminlarni tarjima qilish usulini tanlash muammosi tilshunoslar va tarjimonlarda katta qiziqish uyg`otadi va tarjima nazariyasi va amaliyotida muhim o`rin tutadi.[10]

Har qanday tilni o`rganish jarayonida lo`g`at ishi muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, tilshunos o`qituvchi o`quvchilarning so`z boyligini yaxshilash va boyitish masalasini birinchi navbatga qo`yishi lozim. Chunki, lug`at ishi darsning qo`shimcha bir qismi emas, balki til o`rganishning asosidir. Lug`at ishida o`quvchi yangi so`zni ko`rishi, o`qishi, to`g`ri eshitishi va yozishi lozim. Chunki til o`rganish jarayoni eshitish, o`qish, gapirish va yozish orqali amalga oshadi. Yangi so`zlarni

[10] Azzamov Yusuf Rajabboevich “Terminlar tarjimasining nazariy asoslari” “Sharq tillarini o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya” 22-iyun 518-b.

o`rgatishning turli usullari mavjud, lekin yangi so`z bilan tanishish jarayoniga muhim talablar ham bor. Yangi so`zlar bilan tanishish o`quvchi uchun zerikarli o`quv vazifani bajarish emas, balki hohishistak bilan bajariladigan quvnoq, qiziqarli bo`lishi kerak. Yangi so`zlarni o`rganishda asosan qo`yidagilarga e’tibor qaratiladi:

Orfoepik jihatiga(doskada yozilgan so`z talaffuz etilishi lozim);

Leksik jihatiga (so`zning ma’nosini aniqlash);

Orfografik jihatiga (so`zni to`g`ri yozish);

Boshqa so`zlar bilan kontekstda kelishi (so`z birikmasi yoki gap tuzish).[11]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi sharoitda izohli bir tilli lug`atlardan biri. S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, S.I.Ibrohimov va boshqalar tomonidan yozilgan “O`zbek tilining izohli lug`ati” dir. Bunda 60000 so`z va so`z birikmasining izohi berilgan.

Lug`at turlari va terminlar to`g`risidagi muammolar bilan V.M.Leychik, I.A.Myakisheva, V.D.Tabanakova, M.V.Kvitko, A.A.Reformatskiy, J.-P.Vine, J.Darbelne, D.X.Kadirbekova, N.A.Martinova, A.B.Adigeneeva, D.Kamchibekova, O.Axmedov, P.Nishonov, X.Paluanova 1 kabi ko`plab maxalliy va xorijlik olimlar shug`illanishgan. Mazkur olimlar terminlarning asosiy hossalari, tarjima qilish muammolari yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Terminlarni tarjima qilishning ko`plab usullari mavjud, ammo ularning barchasi paydo bo`lgan terminlarning yangiligi va ularning tarjimasiga ta’sir qiluvchi omillar tufayli umumiy xarakterga ega. Shuning uchun, terminlar uchun qo`yiladigan talablarga va ma’lum bir tarjima usulini tanlashga ta’sir qiluvchi omillarga e’tibor berish muhimdir. Shunday qilib, tildagi ba’zi an’analarni o`rganib chiqib, tarjimaning qaysi varianti eng muvaffaqiyatli bo`ladi va qaysi biri umuman ishlamaydi deb taxmin qilish mumkin. Avvalo, “termin” atamasi nimani anglatishini bilib olaylik. Hozirgi vaqtda ushbu hodisaning ko`p qirrali bo`lishi sababli “termin” atamasining umumiy qabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Bu borada terminning bosh hossasini ta’riflash bo`yicha olimlarning turli yondashuvlari mavjud. Shunga qaramay,

[11] Gulnora Ziyadullevna Narkuziyeva. “O‘zga tilli guruhlar uchun rus tilini o‘rganishda lug‘at ishining ahamiyati” academic research in educational sciences volume 2 | issue 1 | 2021. 1079-b.

aksariyat olimlar termin bu ma’lum bir bilim yoki faoliyat sohasi bilan bog`liq bo`lgan o`ziga xos yoki mavhum tushunchani og`zaki ravishda ifodalaydigan sintetik ifoda shakli ekanligiga qo`shiladilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi qardosh turkiy tillar, jumladan, o`zbek tili leksik xazinasida muayyan darajada qo`llanishda davom etayotgan yoki bugun iste’moldan butunlay chiqib ketgan qadimgi turkiy tilga taalluqli leksik birliklar tarkibida terminologik leksika ham sezilarli o`rinni egallaganligi bilan xarakterlidir. Qadimgi turkiy til manbalarida qayd etilgan turfa soha terminologiyasi asosan sof turkiycha tub hamda yasamalardan hamda buddizm va moniyzm ta’sirida so`g`d, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan o`zlashmalardan tashkil topgan edi. Jumladan, barg`u “o`lja”, qarg`u “soqchi, dozor”, tamg`a “mug`r”, ko`rug “ayg`oqchi”, elchi “elchi; hukmdor, yurtboshi”, yo`lchi “sardor”, chig`ay “yo`qsil, kambag`al”, qishlag`(q)” qo`shinning qishki qarorgohi”, ayg`uchi “davlat maslahatchisi” singari asl turkcha, cherig/cherik “qo`shin, armiya”, sart “tojir, savdogar” kabi sanskritcha, xatun/qatun “malika”, kent “qishloq; shahar” singari so`g`dcha, qag`an “hukmdor”, xan “hokim”, tegin “xonzoda, shahzoda”, yabg`u “xoqondan keyingi oliy lavozim egasi”, sengun “xitoy generali”, tarqan “tarxon”, tutug` “tuman hokimi” kabi xitoycha, shad “Turk xoqonligida oliy lavozim”, shadapit singari eroncha terminlar faol qo`llanishda bo`lganligini manbalar so`z boyligi yaqqol ko`rsatadi.[12]

Lug`atlar avvalo, ikki turga bo`linadi;

1) qomusiy lug`atlar;

2)lingvistik (yoki filologik) lug`atlar.

Qomusiy lug`atlar. Bunday lug`atlarning sohasi narsalar, tarixiy shaxslar, jug`rofiy nomlar haqida ma`lumot berishdir.

Qomusiy lug`atlar ham ikki xil l)umumiy lug`atlar; "O`zbekiston Respublikasi qomusi", "O`zbek sovet ensiklopediyasi" kabi; 2) maxsus lug`atlar "Tibbiyot qomusi", "Til qomusi", "Farg`ona shevalarining kasb-hunar leksikasi" va boshqalar.

[12] H.A.Dadaboev. “Zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi”. Toshkent – 2019. 13-b.

Lingvistik lug`atlar. So`zlik shu tilning barcha lug`aviy birliklarini (leksik, frazeologik) o`z ichiga oladi va ularning ma`nosi, grammatik va boshqa xususiyatlari haqida ma`lumot beradi. So`zlik barcha so`z turkumlaridan iborat bo`ladi.

Lingvistik lug`atlar lug`aviy birliklarining necha tillardan olinishiga ko`ra ikki turga bo`linadi.

l)bir tilli (o`z til) lug`atlari;

2)ikki tilli (tarjima) lug`atlari.[13]

XULOSA

Xulosa qilishimiz mumkinki, ma’lumotni va ma’nolarni asliyat tilidan tarjima tiliga yetkazish va talqin qilishning ko`plab usullari mavjud bo`lib, bu usullar matnni tarjima tili o`quvchilari yoki tinglovchilari uchun moslashtirishga yordam beradi. Ushbu usullardan ba’zilari tez-tez qo`llaniladi, ba’zilari esa kamroq qo`llaniladi, ammo ularning barchasi terminlarni aniq tarjima qilish uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Azzamov Yusuf Rajabboevich “Terminlar tarjimasining nazariy asoslari” “Sharq tillarini o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya” 22-iyun 518-b.

2. Gulnora Ziyadullevna Narkuziyeva. “O‘zga tilli guruhlar uchun rus tilini o‘rganishda lug‘at ishining ahamiyati” academic research in educational sciences volume 2 | issue 1 | 2021. 1079-b.

3. H.A.Dadaboev. “Zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi”. Toshkent – 2019. 13-b.

4. Badalova, B. T. (2019). Literatura kak metod prepodavaniya inostrannogo yazыka. Molodoy uchenыy, (6), 197-198.

5. Ziyadullaevna, N. G., & Taxirovna, M. T. (2020). Obuchenie studentov k inovatsionnoy pedagogicheskoy deyatelnosti na osnove klastera. Suz san’ati,(3).

6. www.arxiv.uz

7. www.aim.uz

8. www.cyberleninka.uz

[13] Lug`at turlari va tiplari” Taqdimot. 2022-y. www.arxiv.uz saytidan olingan.

NODAVLAT TA’LIM MUASSALARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING ILMIY AZARIY ASOSLARI

Xakimova Gulchehra Sayrixonovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ta’lim sifatini oshirish bugugi kuning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblaadi, nodavlat ta’lim xizmatlarini ko’rsatish sohasini kengaytirish orqali davlat va nodavlat talim muassalari o’rtasida so’g’lom raqobat muhitini vujudga keltirsh**.** natijada ta’lim sifatini oshiga zamin yaratadi**.**

Kalit so’zlar: Ta’lim, raqobat, ta’lim sifati, nodavlat ta’lim, iqtidor**.**

Bugungi kunda mamlakatimizda bo'layotgan islohotlarni turmushning barcha jabhalarda ko'rishimiz mumkin**.** Masalan iqtisodiyot, ishlab chiqarish, turizm, qishloq xo'jaligi shu jumladan ta'lim tizimida ham yangi – yangi o'zgarishlarni guvohi bo'lyapmiz**.** So'ngi yillarda Ta'lim muassasalarini yuqori salohiyatli malakali kadrlar bilan ta’minlash bo'yicha ham salmon ishlar amalga oshilyapti zero ma'nan yetuk, jismonan barkamol, ilg'or davlatlar vanillari bilan raqobatlasha oladigan yosh avlodni tarbiyalash, rivojlantirish va shakllantirish ta’lim muassasalarining ustivor vazifasi hisoblanmoqda.

Shu o’rinda hozirgi kun talablariga javob beradigan dunyo satndartlari asosida nodavlat ta’lim tashkilotlari sonini ko’paytirish hamda ushbu ta’lim muassasalarining ta’lim sifatini oshirish ham muhim masala hisoblanmoqda**.**Ta’lim sifati esa o‘zaro raqobat jarayonida yaxshilanib boradi. Shuning uchun raqobat jarayoninig erkin va oshkora namoyon bo‘lishini ta’minlash muhim sanaladi. Raqobatbardosh mahsulot hamisha yuqori baholangani kabi, “raqobatbardosh” ya’ni bilimli va salohiyatli yosh avlod ham mamlakat taqdirini yuksaklarga ko‘tarib boradi [1]

O’zbekiston Rspublikasi Prezidentining Nodavlat ta’lim xizmatlari ko’rsatish faoliyatini rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risidagi 2017 yil 15 – sentyabrdagi PQ-3276 – son qarorda

Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalish va vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

•Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim-tarbiyaning yuqori sifatini ta’minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish;

•Sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an’anaviy ta’lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta’lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bozorini jadal rivojlantirish;

•Ilg‘or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o‘qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’lim sohasidagi samaradorlik va natijaviylikni oshirirish**.**

Rivojlangan davlatlar tajribalarida davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o’rtasida sog’lom raqobat muhitining yaratilganligi ta’lim oluvchilarning sifatli ta’lim olishga bo’lgan xuquqlarini ro’yobga chiqaradi. Bunadan ko’rinadiki mamlakatimiz ta’lim tizimida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim oluvchilarning iqtidorlari va qobilyatlarini rivojlantirida xalqaro tajribalar asosida o’qitishning innovatsion pedagogik usullaridan foydalanib, ularning bilim,ko’nikma va malakalarni shakllantirish**.** Buning uchun har bir ta’lim muassasasining moddiy texnik ta’minoti ham muhim hisoblanadi. Bu ishlarni to’g’ri va samarali yo’lga qo’yish uchun:

YUNESKO va “DGP Research & Consulting” konsalting tashkiloti hamkorligida jalb etilgan xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan milliy ta’lim tizimini kompleks o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillarda ta’lim sifatini yaxshilashda raqobat muhitini shakllantirish, bunda xususiy ta’lim sektorini rivojlantirishga ustuvor yo‘nalish sifatida e’tibor qaratish zarurligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Mavjud muammolarni amaliy bartaraf qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan nodavlat ta’lim muassasalariga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratish va avval ajratilgan kreditlar muddatini uzaytirish, ta’lim hamda unga tegishli xizmatlar bo‘yicha barcha soliq turlari to‘lovlaridan 2021-yilgacha ozod etish, fanlarni chet tilida chuqurlashtirib

o‘qitish va bu orqali ta’lim sifatini oshirish maqsadida ta’lim jarayoniga xorijlik o‘qituvchi hamda mutaxassislarni keng jalb qilish nazarda tutilgan.

Xozirgi kunda ta’limning har bir jabahasida rivojlangan ta’lim texnologiyalaridan foydalish ustivor vazifa sifatida qarlmoqda bular jumlasiga Axborot komunikatsiya vositalari, elektron o’quvdasturlari, masofaviy o’qitish tizimlari ushbu texnologiyalar orqali o’qitishni samarali amalga oshirilib kelinmoqda.Shularni nazarda tutgan holda nodavlat ta’lim xizmatlarini oshirish asosida ota-onalarni farzandlarining bo‘sh vaqtini foydali faoliyatlarga jalb etishlariga e’tibor qaratish zarur. Bu jarayonga otaonalarni jalb qilish maqsadida nodavlat ta’lim muassasalariga xorij tajribasi tadbiq etilmoqda. Bu nafaqat davlat ta’lim muassasalari balki nodavlat ta’lim muassasalarida ham amlda tadbiq etilib o’z samarasini bermoqda.

Nodavlat ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish uchun davlat tasarrufidagi Ta’lim muassasalari bilan integrallashuvini yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shuningdek, fanlarni Integratsiyalash asosida o‘qitish ta’lim sifatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Integral ta’limiy Faoliyat integratsiyadan farqli ravishda yaxlit olamni tasavvur qilish bilan bir qatorda o‘z-o‘zini Ijodiy rivojlantirish imkoniyatining yuzaga kelishidir. Bola atrof-olamni bilish jarayonida o‘z imkoniyatlarini kashf etib boradi. Mustaqil ravishda o‘zlashtirish qobilyati rivojlanadi. Integral loyihalash integratsion mashg’ulotlarni boyitish va sifatli ta’lim olishni ta’minlashga xizmat qiladi. Bola iqtidorini tarbiyachi emas o‘zi aniqlab, shaxsiy sifatlarini tarkib toptiradi. Uning imkoniyatlari kengayib borgan sari bilimlarni kashf etib boraverad. [2]

Zero rivojlnayotgan davr talabi ham iqdorli, ijodkor, intelektual salohiyati yuqori, chet tilarni biladigan yosh avlodni tarbiyalash bo’lib bunda nodavlat ta’lim muassasalarining ulushi yuqori bo’lishi uchun nodavlat ta’lim muassasalarining ta’lim sifati oshirish zarur. Bu muassasalar ham o’z ta’lim jarayonida Davlat talablari va standartlariga amal qilgan holda qo’shimcha ta’lim xizmatlarini joriy qilish hamda iqtidorli o’quvchilarni rag’batlantish orqali ham ta’lim sifatilarini o’sishiga olib keladi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki ta’limning barcha bo’g’inlarida nodavlat ta’lim xizmatlari ko’rsatilayotganini ko’rishimiz mumkin**.** Yangi O’zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, sifatli ta’lim-tarbiya va inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishidagi ustuvor maqsad va vazifalar, ularning huquqiy asoslarini ta’minlash, kasbga o‘qitishda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini oshirish, maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish muhim masala sifatia qayd etilgan**.** So’z oxirida Prezidentimizning quyidadi so’larini keltirmjqchiman «Najot ta’limda, najot maktabda, najot bilimda». Bu fikrni e’tirof etarkanlar, ta’limga e’tibor vatan taqdiriga daxldor ekanligini yana bir bor uqtirganlari bejiz emas, albatta"**.** Haqiqatdan ham vataniz kelajagi bilimdon, qobilyatli, ijodkor va barkamol yoshlarimiz bilan birgalikda yaratamiz. Buning uchun yoshlarimizga ta’lim olishlari uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishimiz zarur**.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-3276 “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil, 15 sentabr.

2. 28.01. 2022**.** PF – 60 –SON 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

3. Nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish jarayonining samaradorlik darajasi. M**.** E. Xallokova**.** 2022. N – 3 science and innovation international scientific journal

4. Khallokova, M. E. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. Eastern European Scientific Journal, (1)

A CROSS-SECTIONAL STUDY IN THE ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM

Amir Abushaev

Senior teacher, International Islamic Academy of Uzbekistan

zizerion@mail.ru

Abstract: The current study examined the relationship between academic motivation and attitudes toward foreign language learning. A total of 102 prospective English teachers enrolled in an English as a foreign language (EFL) learning program from a state university in Ankara/Turkey participated in the study. Data were collected using Attitudes toward Foreign Language Learning (A-FLL; Vandewaetere & Desmet, 2009) and the Academic Motivation Scale (AMS; Vallerand et al., 1992). Results revealed reciprocal correlations between attitudes toward foreign language learning and academic motivation. Specifically, behavioral and affective/evaluative components of attitudes toward foreign language learning appeared as the strongest predictors of academic motivations. In addition, while cognitive and affective/evaluative components were both positively related with the perceived intrinsic and extrinsic motivation, behavioral component was negatively associated with amotivation. From these findings, it can be concluded that attitudes and academic motivation are interrelated in learning a second or foreign language (L2). Results are discussed with the intent of highlighting the importance of attitudes toward foreign language learning and academic motivation in enhanced L2 learning experience.

Отрывок: В настоящем исследовании изучалась взаимосвязь между академической мотивацией и отношением к изучению иностранного языка. В исследовании приняли участие в общей сложности 102 потенциальных преподавателя английского языка, обучающихся по программе изучения английского как иностранного (EFL) в государственном университете Анкары/Турция. Данные были собраны с использованием отношения к

изучению иностранных языков (A-FLL; Vandewaetere & Desmet, 2009) и шкалы академической мотивации (AMS; Vallerand et al., 1992). Результаты выявили взаимную корреляцию между отношением к изучению иностранного языка и академической мотивацией. В частности, поведенческий и аффективно-оценочный компоненты отношения к изучению иностранного языка оказались наиболее сильными предикторами академической мотивации. Кроме того, в то время как когнитивный и аффективно-оценочный компоненты были положительно связаны с воспринимаемой внутренней и внешней мотивацией, поведенческий компонент был отрицательно связан с амотивацией. Из этих результатов можно сделать вывод, что установки и академическая мотивация взаимосвязаны при изучении второго или иностранного языка (L2). Результаты обсуждаются с целью подчеркнуть важность отношения к изучению иностранного языка и академической мотивации в расширенном опыте обучения L2.

Ko'chirma: Ushbu tadqiqot akademik motivatsiya va chet tilini o'rganishga bo'lgan munosabat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib chiqdi. Anqara Davlat Universiteti/Turkiyadagi ingliz tili chet tili sifatida (EFL) dasturiga kiritilgan jami 102 potentsial ingliz tili o'qituvchilari tadqiqotda ishtirok etdilar. Ma'lumotlar chet tillarini o'rganishga bo'lgan munosabat (A-FLL; Vandewaetere & Desmet, 2009) va Akademik motivatsiya shkalasi (AMS; Vallerand va boshq., 1992) yordamida to'plangan. Natijalar chet tilini o'rganishga bo'lgan munosabat va akademik motivatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqladi. Xususan, chet tilini o'rganishga munosabatning xulq-atvor va affektiv-baholash komponentlari akademik motivatsiyaning eng kuchli prognozi bo'lib chiqdi. Bundan tashqari, kognitiv va affektiv-baholash komponentlari idrok etilgan ichki va tashqi motivatsiya bilan ijobiy bog'liq bo'lsa, xulq-atvor komponenti motivatsiya bilan salbiy bog'liq edi. Ushbu natijalardan xulosa qilish mumkinki, munosabatlar va akademik motivatsiya ikkinchi yoki chet tilini (L2) o'rganishda o'zaro bog'liqdir. Natijalar kengaytirilgan L2 o'rganish tajribasida chet tilini o'rganishga bo'lgan munosabat va akademik motivatsiya muhimligini ta'kidlash uchun muhokama qilinadi.

1. Introduction

Over the past few decades, there has been a general consensus over the fact that motivation is an indispensible part of, though still controversial due to the robustness of its measurement (Gamboa et al., 2013), effective teaching and learning (Dörnyei, 2005; 2014; Dörnyei, MacIntyre, & Henry, 2016; Dörnyei & Ryan, 2015; Gardner, 1985, 2001, 2010). Research into second or foreign language (L2) learning has acknowledged that attitudes and motivation are central to effective second language acquisition or learning (SLA) and that "all the other factors involved in SLA presuppose motivation to some extent.

Motivation is a multifaceted construct that serves as a driving force in the challenging process of learning an L2 (Dörnyei, 2005). That is, motivation consists of a combination of factors that induces individuals to achieve their goals. It is also defined as "the attribute that moves us to do or not to do something" (Broussard & Garrison, 2004, p. 106) and as "beliefs and attitudes that affect the use and development of cognitive and metacognitive skills" (Schraw et al., 2006, p. 112). Over the past few decades, the mainstream research into attitudes and motivation in the field of SLA has largely focused on Gardner's (1985) socioeducational model of SLA which posits that "students' attitudes toward the specific language group are bound to influence how successful they will be in incorporating aspects of that language" (Gardner, 1985, p. 6). According to this model, language achievement is influenced by integrative motivation or integrativeness, attitudes toward learning situation, language aptitude, and motivation or attitudes toward learning as well as a number of other factors (Öz, 2016; Öz, Demirezen, & Pourfeiz, 2015a).

Research has now acknowledged the importance of attitudes, motivation and academic motivation in effective learning in L2 learning context as well as other disciplines (Cetin, 2015; Ersanli, 2015; Gamboa, 2013; Komarraju et al., 2009; Liu, 2016; Liu, Wang, & Ryan, 2016; Martinez, Perez, Navarrete, & de la Paz, 2016; Pourfeiz, 2015; Öz, Demirezen, & Pourfeiz, 2015b; Sikhwari, 2014; van den Berg & Coetzee, 2014; Yang 2013; Yashima, 2009). Martinez et al. (2016, p.136), argue that motivation and strategy use are interrelated and that "motivation leads to strategy

use, and strategy use to motivation". Henning and Shulruf (2011), for instance, found a strong association between the self-regulated learning strategies and motivational beliefs and an intriguing interaction between engagement in self-regulated learning strategies and their direct impact on academic achievement. Genc, Kulusakli, and Aydin (2016) found that motivation plays an important role in learning process of Turkish undergraduate students majoring in English as a foreign language, and that the participants' English self- efficacy had a great impact on their beliefs and motivation. A recent study by Liu (2016) indicated that Chinese students were equal levels of intrinsic and extrinsic motivation. Likewise, Onder, Besoluk, Iskender, Masal, and Demirhan (2014) found that academic achievement is greatly influenced by academic motivation. Bedel (2016) reported a significant relationship between academic motivation and self-efficacy beliefs of Turkish pre-service early childhood education teachers. Öz, Demirezen, and Pourfeiz (2015b) also found a statistically positive correlation between emotional intelligence and attitudes toward foreign language learning. Pourfeiz (2015) examined the relationship between Big Five personality traits and attitudes toward foreign language learning. The findings showed statistically significant relationships between cognitive, affective/evaluative, and behavioral components of attitudes toward foreign language learning and the Big-Five personality traits.

To date, however, despite the importance of attitudes and motivation in L2 learning process, there has been no empirical research regarding the relationship between attitudes toward foreign language learning and academic motivation, especially in teacher education field. Given the importance of attitudes, motivation in transforming L2 learners into self-regulated, self-determined, and autonomous learners in learning an L2, implications of attitudinal/motivational studies for different aspects of learning an L2, and the lack of empirical research gap with regard to the impact attitudes on academic motivation of pre-service English teachers in the under-researched context of Turkey, the current study sought to examine the role of attitudes toward foreign language learning in promoting the academic motivation of

pre-service English teachers. The current study, therefore, aimed at addressing this research gap and providing responses for the following research questions:

1. Is there any relationship between attitudes toward foreign language learning and academic motivation?

2. How well do metacognitive attitudes toward foreign language learning predict academic motivation pre- service English teachers' academic motivation?

2.Methodology

2.1. Research design

A quantitative research design was used in the study and survey methodology employed to collect data. The study could also be considered as correlational and relational since correlations and interrelations of the variables under survey were also obtained using correlation analysis and analysis of moment structures. As quantitative research design with survey methodology was used since it is a useful measure and enables the researchers to get information in a quick and economical way within a short period of time (Creswell, 2012).

2.2. Setting and participants

A total of 102 pre-service English teachers enrolled in a pre-service English teacher education program at a major state university in Turkey. All participants voluntarily participated in the study and gave consent for data collection. The participants (*N*= female: 77, 76%; male: 25, 24%) were asked to complete an online survey. They ranged in age from 19 to 25 years (M = 20.28, SD = 0.95).

2.3. Measures

2.3.1. Attitudes toward foreign language learning

The participants' attitudes toward foreign language learning were measured using the attitudes toward foreign language learning (A-FLL) Scale (Vandewaetere & Desmet, 2009). The A-FLL consists of 31 items which measures the participants' attitudes toward foreign language learning and the related components, that is, cognitive component, affective/evaluative component with three sub-scales, and behavioral component with four subscales, on a 7-point (ranging from "totally

disagree" to "totally agree") Likert scale. The internal consistency of overall A-FLL in the present study was a=.94

2.3.2. Academic motivation

The academic motivation scale (AMS) developed by Vallerand et al. (1992) was employed to assess the participants' academic motivation. The MAS is a 28-item scale which measures the participants' academic motivation on three subscales of *intrinsic motivation* (twelve items), three subscales of *extrinsic motivation* (twelve items), and amotivation (four items). Participants rated how well the items described them on a7-point scale ranging from 1=*does not correspond at all* to 7=*corresponds exactly*. The internal consistency of the scale was a=.93 in the current study.

2.4. Procedures for data collection and analysis

The participants enrolled in the teacher education program were asked to complete an online survey and gave consent to the study. The participants' self-reported perceptions in both variables were computed to obtain their perfect score for each component and related subcomponent. Later, the data were analyzed using IBM SPSS Statistics 23. The structural equation modelling (SEM) and analysis of moment structures (IBM AMOS 22 statistical package) were utilized to measure the relationship between variables under survey. Instead of using regular multiple regression analysis, AMOS was used to ensure the accuracy of results obtained in a single model (Kline, 2011; Tabachnick & Fidel, 2013).

3. Conclusion

The findings revealed a significant relationship between attitudes toward foreign language learning and academic motivation, extending our knowledge and understanding of the interrelations of individual differences in academic contexts and the role of attitudes in promoting academic motivation of pre-service English teachers. Findings also provided further support for the prior research on the impact of attitudes and motivation on L2 learning behavior, which would lead to academically motivated learners. Practical implications are that students' positive attitudes toward learning an L2 are central to motivated L2 learning, academic motivation, and language achievement. This supports the contention that earlier

conceptualizations of the motivation are still at work and should be catered for along with newly developed conceptualizations of the construct since they are all supplementary not mutually exclusive. There is, thus, a compelling reason that we should keep both of them and shouldn't throw out the baby with bath water (MacIntyre et al., 2009).

References:

1. **Bedel, E.F. (2016).** Exploring academic motivation, academic self-efficacy and attitudes toward teaching in pre-service early childhood education teachers. *Journal of Education and Training Studies*, *4*, 142-149.

2. **Cetin, B. (2015).** Motivation and self-regulated learning in predicting academic achievement in college. *Journal of International Education Research (JIER), 11*(2), 95-106.

3. **Creswell, J. W. (2012).** *Educational research: Planning, conducting, and evaluating quantitative and qualitative research* (4th ed.). Boston: Pearson Education.

4. **Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985).** *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. New York: Plenum. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (Eds.). (2002). *Handbook of self-determination*. Rochester: University of Rochester Press.

5. **Deci, E. L., Ryan, R. M., Schultz, P. P., & Niemiec, C. P. (2015).** Being aware and functioning fully: Mindfulness and interest-taking within self-determination theory. In K. W. Brown, J. D. Creswell & R. M. Ryan, *Handbook of mindfulness: Theory, research, and practice.* New York, NY: Guilford Press.

6. **Dörnyei, Z. (2005).** *The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum.

7. **Dörnyei, Z. (2009).** The L2 motivational self-system. In Z. Dörnyei & E. Ushioda (Eds.), *Motivation, language identity and the L2 self* (pp. 9-42).

8. Bristol: Multilingual Matters.

9. **Dörnyei, Z. (2014).** Motivation in second language learning. In M. Celce-Murcia, D. M. Brinton & M. A. Snow (Eds.), *Teaching English as a second or foreign language* (4th ed., pp. 518-531). Boston, MA: National Geographic Learning/Cengage Learning.

10. **Dörnyei, Z., & Chan, L. (2013).** Motivation and vision: An analysis of future L2 self-images, sensory styles, and imagery capacity across two target languages. *Language Learning, 63*(3), 437-462.

11. **Dörnyei, Z., Henry, A., & Muir, C. (2016).** *Motivational currents in language learning: Frameworks for focused interventions*. New York: Routledge.

12. **Dörnyei. Z., & Ryan, S. (2015).** *The psychology of the language learner revisited*. New York: Routledge.

13. **Gardner, R. C. (1985).** *Social psychology and second language learning: The role of attitudes and motivation*. London: Edward Arnold. Dörnyei, Z. & Ushioda, E. (2011). *Teaching and Researching Motivation.* Harlow, England: Pearson Education Limited.

14. **Ersanli, C.Y. (2015).** The relationship between students' academic self-efficacy and language learning motivation: A study of 8th graders.

15. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, *199*, 472-478.

16. **Gamboa, L.F., Rodriguez Acosta, M., Garcia-Suaza, A. (2013)**. Differences in motivations and academic achievement. *Lecturas de Economia, 78*, 9-44.

17. **Genc, G., Kulusakli, E., Aydin, S. (2016).** Exploring EFL learners' perceived self-efficacy and beliefs on English language learning. *Australian Journal of Teacher Education, 41*, 53-68.

18. **Gardner, R.C. (2001)** Integrative motivation and second language acquisition. In Z. Dörnyei & R. Schmidt (Eds.) *Motivation and second language acquisition* (pp. 1-20). Honolulu, HI: University of Hawaii Press.

19. **Gardner, R.C. (2010).** *Motivation and second language acquisition: The socio-educational model*. Bern: Peter Lang Publishers.

20. **Gottfried, A. E. (1990).** Academic intrinsic motivation in young elementary school children. *Journal of Educational Psychology, 82*(3), 525- 538. Henning, M. A., & Shulruf, B. (2011). Academic achievement: Changes in motivational beliefs and self-regulated learning strategies over time. *Psychologia, 54*(3), 135-144.

21. **Kline, R. B. (2011).** *Principles and practice of structural equation modeling*

ТЕРГОВ ВА СУРИШТИРУВ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Солиев Элбек Рустамович
ИИВ Академияси Магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада хозирги кунда мамлакатамкизда тергов ишлари бўйича олиб борилётган ислоҳотлар ва фармонлар келтириб ўтилган. Қолаверса, тергов ва суриштирув фаолиятини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш бўйича фикр ва мулоҳазалар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: Жиноят, жиноят процессуал,тергов ҳаракатлари, жиноят ишлари, суриштирув.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиѐевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга навбатдаги Мурожаатномасида ислоҳотларга жиддий тўсқинлик қилаѐтган «яширин иқтисодиѐт»га барҳам берилмас экан, соғлом рақобат ҳам, қулай инвестиция муҳити ҳам шаклланмаслигини таъкидлаб ўтди. Дарҳақиқат, «яширин иқтисодиѐт»нинг мамлакат иқтисодиѐтининг нормал фаолият юритишига салбий таъсирини эътибордан четда қолдириб бўлмайди. Мамлакатда иқтисодиѐтида хуфѐна секторнинг мавжуд бўлиши ушбу муаммони ҳал этишга алоҳида ѐндашувни талаб этади.

Жиноят, жиноят процессуал, тезкор-қидирув фаолиятини тартибга солувчи қонун ҳужжатларига жиноий фаолиятдан олинган легаллаштиришга қарши курашиш борасидаги ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг вазифаларини киритиш мақсадга мувофиқ. 103 Амалдаги «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 4-моддасида тезкор-қидирув фаолиятининг асосий вазифалари сифатида қуйидагилар белгиланган: - инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари, юридик ва жисмоний шахсларнинг мол-мулки ҳимоя қилинишини, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш; - жиноятларнинг олдини олиш, уларни аниқлаш,

уларга барҳам бериш ва уларни фош этиш, шунингдек жиноятларни тайёрлаш ва содир этишга дахлдор шахсларни аниқлаш ҳамда топиш; - суриштирув, тергов органларидан ва суддан яшириниб юрган, жиноий жазодан бўйин товлаётган шахсларни, бедарак йўқолган шахслар ва қонунчиликда назарда тутилган ҳолларда бошқа шахсларни қидиришни амалга ошириш, шунингдек таниб олинмаган мурдаларнинг шахсини аниқлаш; - шахс, жамият ва давлат хавфсизлигига таҳдид солаётган шахслар, ҳодисалар, ҳаракатлар (ҳаракатсизлик) ҳақида ахборот тўплаш. Бундан ташқари, мазкур Қонуннинг 13-моддасида тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органларнинг мажбуриятлари сифатида ҳам жиноят содир этилиши натижасида олинган пул маблағлари, қимматбаҳо буюмлар ва бошқа мол-мулкни аниқлаш белгиланмаган. Ушбу нормада тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органлар томонидан жиноят содир этилиши натижасида олинган пул маблағлари, қимматбаҳо буюмлар ва бошқа мол-мулкни аниқлаш вазифасининг киритилмаганлиги, фаолият самарадорлигини таъминлашда салбий таъсир кўрсатмоқда. Шу муносабат билан «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 4-моддасига тезкор-қидирув фаолиятининг асосий вазифалари сифатида, 13-моддасига эса тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органларнинг мажбуриятлари сифатида жиноят содир этилиши натижасида олинган пул маблағлари, қимматбаҳо 104 буюмлар ва бошқа мол-мулкни аниқлаш тўғрисидаги нормани киритиш таклиф этилади.

Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 392 -моддасида терговга қадар текширувни амалга оширувчи орган бошлиғи ва унинг мансабдор шахси жиноятнинг олдини олиш ёки унинг содир этилишига йўл қўймаслик, далилларни тўплаш ва сақлаш, жиноят содир этишда гумон қилинганларни ушлаш ва яширинган гумон қилинувчиларни қидириб топиш ҳамда жиноят туфайли етказилган мулкий зарарнинг ўрни қопланишини таъминлаш учун зарур бўлган, кечиктириб бўлмайдиган барча ҳаракатларни амалга ошириши шартлиги белгиланган.

Жиноят процессини юритиш чоғида бугунги кунда ривожланиб бораётган рақамли технологиялар имкониятларини кенг жалб этиш, замон билан хамоҳанг тарзда, жиноят процессининг рақамли макондаги методикасининг шаклланиб боришига ҳамда фуқароларни ортиқча сарсон бўлишларининг олдини олишга эришилган бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // [Электрон манба]. URL: https://lex.uz/docs/111453.

2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси // [Электрон манба]. URL: https://lex.uz/docs/111460.

3. Ўзбекистон Республикасининг 14.05.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикасининг жиноят-процессуал кодексига жиноят процессида иштирок этувчи фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилишни кучайтиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” ЎРҚ-617-сон қонуни

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида 2021 йил 12 февралда Ички ишлар вазирлигида ўтказилган Ҳайъатининг кенгайтирилган йиғилиш баённомаси. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси-1994 йил 22 сентябр.

5. Levi, M. & Reuter, P., (2013), Assessments of anti-money laundering and combating the financing of terrorism. (Chicago: American Bar Foundation).

6. Лебедев И.А., Ефимов С.В. Финансовые расследования: российская практика и зарубежный опыт. // Аудиторские ведомости. 2018. №10

ТЕРГОВ ВА СУРИШТИРУВ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Солиев Элбек Рустамович

ИИВ Академияси Магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада хозирги кундаги юртимизда олиб борилаётган ислохотлар борасида фикр юритилган. Қолаверса, тергов ва суриштирув фаолиятини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш бўйича фикр ва мулоҳазалар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: суриштирув, жиноят, жиноят процессуал,тергов ҳаракатлари, жиноят ишлари.

Мамлакатимизда тергов фаолиятида «Инсон қадри учун» деган эзгу ғояни тўлиқ рўёбга чиқариш, жиноятларни ўз вақтида фош этишни ташкил этиш тергов органларининг фаолиятини қонун устуворлигини ва қилмиш учун жазо муқаррарлигини таъминлаш тамойили асосида такомиллаштиришнинг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади.

Шу муносабат билан соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар ва замон талабларига жавоб берадиган тергов соҳасидаги юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимининг самарадорлигини тубдан ошириш талаб этилмоқда.

Айниқса, маҳаллаларда жамоат тартибини сақлаш, фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш учун ташкил этилган қуйи бўғинини ривожлантириш ва мустаҳкамлаш бўйича салмоқли ишлар қилинди. Шу билан бирга, мамлакатимизда шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш, унинг шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилиш, суд-тергов соҳасига халқаро стандартлар ва илғор хорижий тажрибани жорий этишга мақсадида ички ишлар органларининг жиноятларни тергов қилиш фаолиятида ҳам қатор

ислоҳотлар ўтказилди. – Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги ПҚ2898-сон қарорига асосан Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Тергов департаментининг низоми тасдиқланди.

Ҳудудий ички ишлар органлари тергов бўлинмаларида Тергов бошқармалари бошлиқлари раҳбарлик қиладиган “Маслаҳат кенгашлари” фаолияти йўлга қўйилган. Мазкур кенгашларнинг ташкил этишдан мақсад ички ишлар органларининг терговга қадар текширув фаолиятини амалга оширишга ваколатли бўлган мансабдор шахслари, суриштирувчи ва терговчилари юритувидаги терговга қадар текширув материаллари ҳамда жиноят ишлари бўйича терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки тергов олиб бориш давомида юзага келган муаммоли ҳолатлар, қилмишни малакалашда мунозараларга сабаб бўладиган вазиятларнинг қонуний ечимларини аниқлаш, жиноятларни фош этиш йўлларини излаш, иш бўйича ўтказилиши лозим бўлган терговга, тезкор қидирув, суриштирув ва дастлабки тергов ҳаракатларини белгилаш бўйича кўрсатма ёки тавсиялар тайёрлашга кўмаклашади. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 91-моддаси 4-қисмига мувофиқ, 7 та тергов ҳаракатлари ва бошқа процессуал ҳаракатлар яъни ўта оғир жиноятлар бўйича Хусусан; – ҳодиса жойни кўздан кечириш; – тинтув; – кўрсатувларни ҳодиса содир бўлган жойда текшириш; – тергов эксперименти; – шахсни ушлаш; – ҳимоячидан воз кечиш; – шахсни ушлаш жараёнида ўтказиладиган шахсий тинтув ва олиб қўйиш процессуал ҳаракатлари видеоёзув орқали мажбурий қайд этиб келинмоқда. Киритилган мазкур ўзгартириш ва қўшимчаларга мувофиқ, келтириб ўтилган тергов ва процессуал ҳаракатлар тергов бўлинмалари томонидан видеотасвирларга олинган ҳолда ўтказилмоқда. Бу эса, улардан далил сифатида фойдаланиш имконини яратди (Ўзбекистон Республикасининг 14.05.2020 йилдаги ЎРҚ-617-сон қонуни). Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Тергов департаменти ҳамда ҳудудий тергов бўлинмаларининг тергов ва процессуал ҳаракатларни ўтказиш мўлжалланган хизмат хоналари видеокузатув ҳамда овоз ёзиш мосламалари билан жиҳозланди.

Хусусан, ички ишлар органлари тергов бўлинмалари томонидан тергов қилинаётган жиноят ишларининг салмоғини ташкил этмоқда. Бу эса ўз навбатида, мазкур турдаги жиноятларни тергов қилишда ўзига хос билим, малака талаб этади. Бундан ташқари, ҳозирда фирибгарлик ва йўл-транспорт ҳодисалари билан боғлиқ жиноятлар ҳам юқорилигича қолмоқда. Юқорида кўрсатилган жиноятларнинг чуқур таҳлилига асосланган ҳолда ички ишлар органлари тергов бўлинмаларининг ихтисослашув бўйича бўлинмалари қайтадан ташкил этилди. Виртуал макондаги фирибгарлик, психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласи билан боғлиқ жиноятлар, одам савдоси ва ўғирлик жиноятларини тергов қилишнинг замонавий методикаси ишлаб чиқилиб, амалиётга татбиқ этилди. “Volkswagen Tredline Maxi” автомобили базасида мобиль тергов лабораторияси яратилди. Мобиль тергов лабораториясини яратишдан кўзланган асосий мақсад ҳам жиноятларни фош этилишини янада юқори даражага олиб чиқишга ўз ҳиссасини қўшади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги “Ички ишлар органларининг жиноятларни тергов қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-2898-сонли қарори.

2. 2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 15.09.2017 йилдаги “Ички ишлар органларининг тергов бўлинмалари томонидан жиноятларни тергов қилиш ҳамда фош этиш самарадорлигини янада ошириш тўғрисида” 727-сон қарори

3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 2017 йил 6 сентябрдаги “Суриштирув институтини такомиллаштириш муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” ЎЗР-442-сонли.

4. Федотов Н.Н.: Форензика - компьютерная криминалистика. // М.: Юридический мир, 2007.

5. . Reuter, P., and E. M. Truman. 2004. Chasing Dirty Money: The Fight Against Money Laundering. Washington DC: Institute for International Economics.//https://www.piie.com/bookstore/chasing-dirty-money-fight-against-moneylaundering.

6. Лебедев И.А., Ефимов С.В. Финансовые расследования: российская практика и зарубежный опыт. // Аудиторские ведомости. 2018. №10

7. Ўзбекистон Республикасининг 14.05.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикасининг жиноят-процессуал кодексига жиноят процессида иштирок этувчи фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилишни кучайтиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” ЎРҚ-617-сон қонуни

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида 2021 йил 12 февралда Ички ишлар вазирлигида ўтказилган Ҳайъатининг кенгайтирилган йиғилиш баённомаси. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси-1994 йил 22 сентябр.

ҲОЗИРГИ ЗАМОНАВИЙ УЙ ЖОЙЛАРНИ ПОЛИСГИПС АСОСИДА ИССИҚ СОВУҚДАН ҲИМОЯЛАШ

Тилавов Элбек Нурмуҳаммад ўғли
Жиззах политехника институти ассистенти
Абдикомилова Моҳинур Жамолиддин қизи
Жиззах политехника институти талабаси
Райимқулова Сурайё Фарход қизи
Жиззах политехника институти талабаси
Райимқулов Елдор Холмат ўғли
Жиззах политехника институти талабаси
Саримсоқов Самандар Исломқул ўғли
Жиззах политехника институти талабаси

Аннотация Мақолада ҳозирги кунда кўплаб йиғилиб қоладиган маиший чиқинди сифатида қараладиган полистирол пўкакларидан фойдаланиб янги турдаги қурилиш махсулоти ҳисобланган полисгипс блокларни тайёрлаш технологияси баён этилган.

Калит сўзлар: қурилиш материали, технология, мустаҳкамлик, полистирол, полисгипс, блок.

Анъанавий қурилиш материалларини илмий асосланган тарзда сифатли ишлаб чиқариш, уларни яратиш технологияларини замон талабларига мослаш, арзон ва сифатли қурилиш махсулотлари ишлаб чиқариш, саноат ва маиший чиқиндилардан фойдаланиб янги ва пухта материаллар олиш, уларнинг тежамкор технологияларни яратиш, бинолар ва иншоотларни мукаммалаштириш ҳамда бу жараёнда қурилиш ашёлари ва махсулотларидан самарали фойдаланиш каби вазифалар ҳозирги куннинг муҳим масалаларидан биридир.


Таклиф қилинадиган қурилиш махсулоти ўзининг аввалги авлодларидан кўра 10 баравар кам вақт сарфлаб тайёрланадиган арзон полисгипс махсулотдир. Шунингдек полисгипснинг афзаллиги унинг иссиқ совуқни яхши сақлашидир.

Ўзбекистонда ишлаб чиқарилаётган гипс махсулоти ва газ чиқиндиси бўлган полистролдан мустаҳкамловчи минераллар аралашмасидан фойдаланиб полисгипс блокини ишлаб чиқариш ва ундан турар жой ва бошқа турдаги биноларининг ички ва ташқи ўз-ўзини кўтарувчи деворлар учун фойдаланиш мумкин.

Маьлумки ўз-ўзини кўтарувчи деворлар бинолар ва иншоотлар қурилишда юқоридан бериладиган юк ва юкламаларни қабул қилмайди ва асосий ҳолларда хоналарни бўлиш мақсадида қўлланилади.

Ҳозирда лойиҳаланиб қуриладиган аксари биноларнинг ички қисмини хоналарга ажратишда ғишт, гипс, гипскартон ва бошқа турдаги ички девор турларилардан кенг миқдорда фойдаланилмоқда. Бироқ бунга кўп вақт ва харажат талаб қилинмоқдаки юқоридаги муаммони ҳал этиш учун полисгипс блокларини тайёрлашни таклиф этилади

Республика корхоналаридан ва ахоли томонидан чиқинди сифатида ташлаб юборилаётган полистрол пўкакларидан ҳам қурилиш махсулотларини тайёрлашда кенг фойдаланиш мумкин.



Расм. Полисгипс блокининг умумий криниши ва ўлчамлари.

Полисгипс блокларини ишлаб чиқаришда бизга Республикамизда қурилиш учун яроқли бўлган гипстоши конлари мавжудлиги ва гипс ишлаб чиқариш

саноатининг анчагина оммалашгани асқотади, шу боис полисгипсни анчагина паст ва арзон нархларда ишлаб чиқариш мумкин.

Тажриба учун қурилиш гипси ва полистрол пўкак чиндиларидан блоклар тайёрланиб унинг мустаҳкамлигини ошириш мақсадида синтетик толадан фойдаланилди. Ўтказилган тажрибалар полисгипс блокининг мустаҳкамлигини оширишга олиб келди.

Полисгипс блокларини тайёрлашда сув, гипс, полистрол ва синтетик толаларни қоришма қоргичда бўтқа ҳосил бўлгунча аралаштирилди ва аралашма қотиш жараёнига ўтгунча жуфт қолипларга қуюлди, Қуйиш вақтида қолип ички қисмига ўралган қоғозлар ҳам катта аҳамият касб этди. Бу қоғозлар минерал елим билан бойитилиб 2-3 хил ранг берилди ва биноларнинг меъморий-бадиий ечимларини амалга ошириш учун қулай ечимларга эга бўлиш учун имконият яратилди.



Полисгипс блокларининг афзалликлари шундан иборатки, уни теришга деярли материал талаб қилинмайди. Аввалларибинони хоналарга ажратилаётганда аввал ғишт терилиб унга цемент-қумли қоришма ишлатилиб сувоқлаш ишлари, сўнг пардозлаш ишлари амалга оширилар эди, ёки гипсокартондан фойдаланиб унга гипсокартон, профил ёки рейка яъни тахта ва анчагина бурама мих ҳамда иссиқ ҳавони сақлаш учун минерал тола ишлатилар, натижада жуда кўп сармоя ва вақт талаб этилар эди.

Полисгипс блокларидан фойдаланиш доимий намлик таъсир этадиган жойларга тавсия этилмайди, ғиштнинг ички қисмига намлик таъсир этмаслигининг олдини олиш мақсадида ғиштнинг томонлари минерал елимлар билан бойитилган қоғозлар билан ўралган ҳолатда ишлаб чиқарилади.

Полисгипс блокларидан фойдаланилиб деворларни яратиш технологиясини амалга оширишда яьни полисгипс блокларни териш жараёнида ҳам қурилиш гипсидан фойдаланилади.

Таклиф қилинаётган девор блоки ва технологиянинг афзаллиги шундаки технологик жараёнларда ҳеч қандай бурамамих ёки тахта, сувоқлаш ва пардозлаш каби ишлар амалга оширилмайди.

Полисгипс блокларини териб бўлгач бирикиш чокларини тўрли сетка ёрдамида тўлдирилиб пардозлаш ишлари амалга оширилади.

Бинонинг асосий юк кўтарув қисми тугатилгандан кейинги хоналарга ажратилган полисгипс ғишти билан терилган бинонинг акционометрик кўриниши.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Tilavov E. N., Raxmonov R., Abduraxmonov I. M. ISSIQLIK XIMOYALOVCHI MATERIALLARNING QO ‘LLANILISHI VA ULARNING TAHLILI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 12.

2. Tilavov E. N. MAHALLIY XOM ASHYO KERAMOGRANITNING XOSSALARINI O'RGANISH //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – С. 200-203.

3. Tilavov E., Ibragimov S. TOM UCHUN RULONLI QOPLAMA MATERIALLAR XOSSALARINI O’RGANISH VA ULARDAN FOYDALANISH //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 121-128.

4. Nurmamatov N. R. et al. Bazalt tolasi asosida fibrabeton optimal tarkibini tanlash va fizik mexanik xossalarini taxlili //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 153-160.

УРФ-ОДАТ ВА АНЪАНАЛАР ОРҚАЛИ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ИНСОНПАРВАРЛИККА ТАРБИЯЛАШ

О.Т. Қайпенова

Ажиниёз номидаги НДПИ ўқитувчиси

Аннотация: Инсониятнинг тарихий ривожланиши давомида яшаган барча халқларнинг ўзига хос турмуш тарзи, урф-одат ва анъаналари билан бир-биридан фарқ қилиб турган. Йиғилган илмий тадқиқотлар шундан далолат беради, ер шарида турфа хил расм-русмлар, анъана ва урф-одатларга эга халқлар яшаш турмуш тарзига қарамай, уларнинг барчаси табиатнинг узвий қисми сифатида ривожланган ва хўжалик муносабатлари билан боғлиқ бўлган.

Аннотация: В ходе исторического развития человечества все жившие там народы отличались друг от друга своим бытом, обычаями и традициями. Сборники научных исследований показывают, что, несмотря на различный образ жизни народов, традиции и обычаи, все они развивались как неотъемлемая часть природы и были связаны экономическими отношениями.

Annotation: During the historical development of mankind, all the peoples who lived there differed from each other with their own way of life, customs and traditions. Collected scientific studies show that despite the way of life of peoples with different images, traditions and customs, they all developed as an integral part of nature and were connected with economic relations.

Таянч сўзлар: Урф-одат, инсонийлик, анъана, таълим ва тарбия, дўстлик.

Ключевые слова: Традиция, человечность, традиция, воспитание и воспитание, дружба.

Key words: Tradition, humanity, tradition, education and training, friendship.

Жамият ҳаётида ўсиб келаётган ёш авлод катта авлодларнинг ўрнини эгаллаб, қадимги аждодларнинг турмушига сингиб кетган урф-одат, анъаналарни ҳаракатга келтирувчи ўринбосарлари ҳисобланган.

Халқда ёшларга оид одоб-ахлоқ тарбиясида қўлланиладиган «анъана», «урф-одат» фаннинг асосий объекти сифатида кенг қўлланилган. Лекин, ҳанузгача этнография, маданиятшунослик, фольклоршунослик ва халқ турмуш тарзи билан тадқиқ қилувчи олимлар доирасида юқоридаги терминларнинг таърифи ҳамда фарқли хусусиятлари борасида назарий-методологик қарашлар тўлиқ ишлаб чиқилмаганлиги маълум. Шу боис халқ педагогикасида «анъана», «урф-одат» терминларининг синоним тарзида қўлланилиш ҳолатларини кўришимиз мумкин.

Тадқиқотчи олимлар томонидан бу терминларга қуйидагича таъриф берилган: «Анъана – узоқ замонлардан бери авлоддан-авлодга, отадан болаларга ўтиб, давом этиб келган урф-одат, ахлоқ меъёрлари, қарашлар йиғиндиси» дея таъриф этилади.

Этнограф тадқиқотчилар томонидан «анъана» - тарихий тараққиёт жараёнида табиий ва ижтимоий эҳтиёжлар асосида вужудга келадиган, аждодлардан мерос бўлиб ўтадиган, инсонларнинг маданий ҳаётига таъсир ўтказадиган маданий ҳодисадир. Анъана ўзига хос ижтимоий қоида сифатида кишилар онгига сингган ва қабул қилинган тартиб қоидалар ҳисобланади.

Этнограф тадқиқотчи олимлар «урф-одат» тушунчаси ҳақида кишиларнинг турмушига сингиб кетган, маълум муддат такрорланиб турувчи хатти-ҳаракат, кўпчилик томонидан қабул қилинган хулқ-атвор қоидалари кўникмаси тушунилади.

Халқ педагогикасининг асосий тарбия қуроллари сифатида халқ оғзаки ижоди, анъаналар, урф-одатлар, маросимлар, халқ ўйинларидан фойдаланилади. Халқ оғзаки ижодиёти маданияти энг қадимий соҳаларидан бўлиб, унинг илдизи қадимги тарихга бориб тақалган. Халқ педагогикасининг асосий бўғинларидаги халқ оғзаки ижоди, одоб-ахлоқ анъаналари ёшлар тарбиясининг энг зарур қуроли саналган. Халқ педагогикасида «Болабошидан» каби ғоя асосида ота ва она ўз фарзандини келгуси ҳаётда комил инсон бўлиши учун тарбия жараёнида эринмаган.

Урф-одатлар эса ҳар бир ҳалқнинг авлоддан-авлодга ўтиб келаётган удумлари саналади. Урф-одат бир вақтнинг ўзида бир шахс ёки кўпчилик томонидан бажарилиши мажбурий қоида ҳисобланган. Масалан: халқда кичикларнинг катта ёшлиларга салом бериши, озчилик кўпчиликка салом бериши, кекса қарияларнинг, қўни-қўшнилар ва беморларнинг ҳолидан хабар олиш, келиннинг қайни сингил, қайни ука ва опаларини ҳурмат этиши, исмларини ўзгартириб (табу) ишлатишини кўришимиз мумкин.

Академик Ж.Базарбаев «Ўзликти аңлаў – мәнаўият өзеги» китобида яхшилик сўзи инсонийлик сўзи билан бир эканлигини исботлаб, инсонийлик – кенг қиррали тушунча. У инсоннинг холис ҳаракатида кўринадиган меҳрибонлик, сахийлик, ғамхўрликда билинадиган одоб-ахлоқ кўламидаги чиройли ва мардлик ҳодиса эканлигини тушунтирган. Яхшиликнинг инсоний аҳамияти инсонга маънавий руҳ бағишлайди. Одамни қўлидан иш келадиган инсонга айлантиради. Уни бахт сари комилликка элтувчи йўл энг олий қадрият бўлиб ҳисобланади деган фикрлар келтирган.

Инсонийлик – ваъда, номус, уят, виждон эканлиги ҳақида тушунчалар берилган. Инсонийлик – бу ўқувчиларда хулқ-атворнинг ижтимоий меъёрида шакллантириш ва уларнинг ўзаро бир-бирига, оилага, инсонларга, Ватанга хизмат қилиш, шунингдек, жамиятга муносабатларини аниқлайдиган ва инсоннинг аниқ бир мақсад йўлига тарбиялашга хизмат қилади.

«Қорақалпоқ этнопедагогикаси» асарида: Халқ педагогикасида ўсиб келаётган ёшларни «нима учун», «нимани ўқитиш», «қандай ўқитиш» уларни «қандай умуминсонийлик қадриятларни, миллий фазилатларни тарбиялаш» ва «қандай тарбиялаш» каби саволларга теран ва мазмунли жавоб топилади, - дея жавоб беради. Демак, халқ педагогикаси бола тарбиясининг энг асосий қурол сифатида эътироф этилиб, бу тарбия жараёнида аҳамиятли услубий восита эканлиги тушунтирилган.

Ёшларнинг таълим тарбиясида дўстлик, инсонийлик руҳида тарбиялашда халқ педагогикасининг асосий бўғини ҳисобланган халқ оғзаки ижодининг аҳамияти катта. Ёшлар тарбиясида фольклор, халқ анъаналарининг аҳамияти,

ўқувчи ёшларда халқ педагогикасининг дидактик имкониятларини ўрганиш бўйича У.Алеуов, А.Бекимбетова, Р.Торежановалар илмий-тадқиқот ишларини олиб боришган.

Муштарак педагогик қарашларнинг таркиб топиши, бола тарбиясида ота-онанинг бурчи ва вазифаларининг халқ оғзаки ижодида акс этиши, халқ оғзаки ижодида болаларни дастлабки анъанавий одоб қоидаларига одатлантириш, инсоний фазилатларини шакллантириш, меҳнат ва меҳнат тарбияси, ўртоқлик ва дўстлик, ҳамкорликни тарбиялаш услуби ва воситасини тадқиқ этади.

Қорақалпоқ халқ оғзаки ижоди бўйича фольклоршунос олим Қ.Айимбетов тадқиқотларида ёшларнинг онгига, таълим-тарбиясига ўз таъсирини кўрсатадиган, халқининг ёшлар тарбияси учун зарур тарбиявий воситалари сифатида кўрсатилган.

Тадқиқотчи Т.Утебаев Халқ педагогикаси, анъанавий педагогик маданият бўлиб кенг мазмундаги тарбия тизими ҳисобланади. Бунда инсоннинг шакллантирувчи тарбиявий омиллар, тарбиявий усул ва воситалар, тарбия турлари намунавий ва хилма-хилликга эга. Халқ педагогикаси инсонни халқ фарзанди қилиб тарбиялашни мақсад қилади. Ёшларни халқ педагогикаси анъаналари асосида тарбиялаб, уларни ўз элини, халқини, ўзини англашни, ўзининг миллий хусусиятини тушуниб, камол топишига ёрдам бериши ҳақида таъкидлаган.

А.Бекимбетова халқ педагогикасининг ёшлар тарбияси масалалари ҳақида: халқ педагогикасининг ўзига хос жиҳати шундаки, у бошқа фан соҳаларига тегишли бўлган халқ тажрибаларидан ўзида восита сифатида фойдаланиш табиатига эга эканлигини исботлаган. Дарҳақиқат, халқда ёшларнинг тарбияси жараёнида ўз анъаналаридан фойдаланган ҳолда уларни келгуси ҳаётга тўғри йўл кўрсатишда услубий қўлланма бўлиб хизмат қилган.

Тадқиқотчи Р.Турежанова қорақалпоқ халқ педагогикасида ёшларга эстетик тарбия бериш анъаналарига, уларнинг эстетик маданияти, табиати ҳақида илмий ишлар олиб борган . Демак, биз ёшларга дўстлик, инсонийлик

(муҳаббат, ғамхўрлик, кечиримлилик, бирдамлик ва бошқа) руҳини шакллантиришда эстетик маданият, ақлий тарбия ҳам аҳамиятли саналади.

А.Тилегенов халқ педагогикаси умумхалқ ижодий маҳсулининг натижаси, педагогик маданиятнинг асосий ифодаси бўлиб, унинг илдизи қадимга бориб тақалиши, халқнинг орзу-истаклари, қарашлари, инсон оила, ёш авлод тарбияси ҳақидаги тасаввурларни акс эттириши ҳақида таъкидлаган. «Алпомиш» достонининг тарбиявий аҳамияти, ёшлар тарбиясидаги ўрни бўйича тадқиқот ишларидадостоннингёшлартаълим-тарбиясига, маънавиятигатаъсириниҳақидакўрсатиб, «инсонпарварлик, меҳр-оқибат, мурувват, иймон, эътиқод, ота-онагаҳурматваэҳтиром, маънавий-руҳийқадриятлар ҳамдаадолат, тинчликсеварлик, тенглик, дўстлик» кабиимкониятлариборэканлигиниисботлаган.

Урф-одат тушунчаси халқ ҳаётининг барча томонини – оддий кундалик удум, расм-русм, ирим-сирим, ўзаро муомала тарзи ҳамда барча маросимларни бутунича олади. Бу ҳақида олим П.Абдимуратов: урф-одат, ҳамма учун аҳамиятли ҳаёт анъанаси, шунинг учун, буни ҳамма тан олади ва ҳаётда қўлланишини, халқимизнинг кўп асрлардан буён турмушимиздаги барча урф-одатлар билан белгиланиб, ёшларни шу асосда тарбиялашини таъкидлаган.

О.Н.Ибодуллаева ўзининг илмий тадқиқот ишларида «Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда инсонпарварлик ғоясини шакллантиришнинг педагогик асослари» илмий ишида: Инсонпарварлик – инсонларнинг инсонларга нисбатан меҳр-оқибатлилиги, саховатлилиги, мурувватлилиги, бошига оғир кун тушганида ҳамдардлик эканлигини тадқиқ қилган.

Инсонпарварлик инсоннинг эзгу фикри, эзгу амали бирлигидир. Инсонпарварлик – она заминда яшаётган миллатидан, динидан, ижтимоий аҳволидан қатъий назар, барча инсонларга нисбатан ғамхўрликдир. Инсонпарварлик – ғарибпарварлик» эканлигини таъкидлаган.Ёш авлоднинг инсонпарварлик ҳисларини тарбиялашда У.Ражабов мактаб билан оиланинг мустаҳкам ҳамкорлиги алоҳида ўринни эгаллаши ҳақида фикр билдирган. Ҳар

қандай таълим-тарбияда энг асосий қурол бу оила ва ундан олган тарбияси катта аҳамиятга эга эканлигини исботлаган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алланиязов И.Б. Гуманистические идеи каракалпакского фольклора и литературы как основа нравственного воспитания старшеклассников: Автореф. дис. канд. пед. наук. –Ташкент: 1992. -17с
2. Базарбаев Ж. Өзликти аңлаў – мәнаўият өзеги. – Нөкис: Илим, 2016. – 160 б.
3. Г.Бекимбетова. қорақолпоқ халқ педагогикасида ёшларни дўстлик. Инсонийлик руҳида тарбиялаш анъаналари. Автореферат. 2022
4. Бекимбетова А.А. Қорақалпоқ халқ педагогикасида ёшларга ақлий тарбия бериш анъаналари. Пед. фан. номз… дис. автореф. – Тошкент: 2010. – 20 б.
5. Ибодуллаева О.Н. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда инсонпарварлик ғоясини шакллантиришнинг педагогик асослари. Пед. фан. номз… дис. автореф. – Тошкент: 2004. – 18 б.

TASVIRLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISH

Narzullayev Hasan Zayniddin o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Dasturiy injiniring” kafedrasi
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasvirlarda raqamli ishlov berishning bir nechta algoritmlari mavjud, bu esa tasvirning turlari va maqsadiga qarab o‘zgaradi. Ammo, oddiy algoritm bilan boshlangan holda, tasvirlarda raqamli ishlov berish bosqichlari haqida aytilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimining o‘rni sezilarli darajada oshishi asosida o‘quvchilarning yoshiga mos mutolaa kitoblarini tahlil qilib, ta’lim markazlarida va respublika miqyosida ta’lim jarayonida isloh qilinishi ta’lim sifatining oshishiga xizmat qilishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tasvirlarga raqamli ishlov berish, topshiriqlar, namunalar, amalda ishlash.

Tasvirlarda raqamli ishlov berishning bir nechta algoritmlari mavjud, bu esa tasvirning turlari va maqsadiga qarab o‘zgaradi. Ammo, oddiy algoritm bilan boshlangan holda, tasvirlarda raqamli ishlov berish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. Tasvirni yuklash va nimadan iboratligini aniqlash.
2. Tasvirni o‘qish uchun huquqni berish, bu esa fayl formatiga qarab o‘zgarishi mumkin.
3. Tasvirdagi ranglar bilan ishlash uchun pixellar orqali har bir nuqtani senzitivligi belgilangan tol niqob halachiga aylantirish.
4. Tasvirni boshqarish uchun kerakli funksiyalarni (masalan, qayta ishlov qilish, qirqish, tashqi qirqish kiritish) yuklash va amalga oshirish.
5. Tasvirdagi ob'ektlarni aniqlash va ular ustida turli amallar bajarish, masalan, tekstni aniqlash, suratlarni ajratib olish, guvohnomalar bilan ishlash, va hokazo.

Algoritm kerakli funksiyalarga qarab o‘zgaradi va tasvirlarni to‘lqinlik va darajada ishlov berish uchun tartiblangan. Kalit so‘zlar, plaginlar va yorqinlikni qayta ishlov qilish shu sohada muhimdir.

Xususiyatlar chiqarish: Xususiyatlarni ajratib olish -bu keyingi tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan tasvirdagi noyob xususiyatlarni aniqlash jarayoni. Ba'zi mashhur xususiyatlarni ajratib olish algoritmlari orasida Haar to‘lqinli o‘zgarishi, Mahalliy ikkilik naqshlar (LBP) va Scale-Invariant Feature Transform (SIFT) kiradi. Bular raqamli tasvirni qayta ishlashda qo‘llaniladigan turli xil algoritmlarning bir nechta misolidir. Muayyan ilova va tahlil qilinayotgan tasvir turiga qarab ishlatilish mumkin bo‘lgan yana ko‘plab algoritmlar mavjud. Albatta, bu yerda raqamli tasvirga ishlov berishda qo‘llaniladigan yana bir qancha algoritmlar:

1. Morfologik operatsiyalar: Morfologik operatsiyalar tasvirlardagi ob'ektlarning shakli va hajmini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Ba’zi mashhur morfologik operatorlar kengayish, eroziya, ochish va yopish kabilarni o‘z ichiga oladi.

2. Tasvirni tiklash: Tasvirni tiklash algoritmlari tasvirni buzilgan yoki shovqinli versiyasidan tiklashga qaratilgan. Ba'zi mashhur tasvirlarni tiklash algoritmlari orasida Wiener filtrlash, Non- oncal Means filtrlash va Total Variation tiklash kiradi.

3. Ob'ektni aniqlash: Ob'ektni aniqlash algoritmlari tasvirdagi qiziqish ob'ektlarini aniqlash va mahalliylashtirishga qaratilgan.Ba’zi mashhur ob’yektlarni aniqlash algoritmlari qatoriga Haar kaskadlari, Faster R-CNN, Faqat bir marta qaraysiz (YOLO) va Single Shot Detector (SSD) kiradi.

4. Tasvirni siqish: Tasvirni siqish algoritmlari tasvir sifatini saqlab qolgan holda tasvir hajmini kamaytirishga qaratilgan. Ba'zi mashhur tasvirlarni siqish algoritmlariga JPEG, JPEG 2000 va PNG kiradi.

Tasvir - bu insonning vizual tizimi tomonidan qayta ishlangan ikki o‘lchovli aloqa tasvirlarni tasvirlaydigan impulslar analogdir. Kompyuter ilovalari ularni qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun analogdan raqamliga aylantiradi. Raqamli tasvir 2D pikselli massivdir. Tasvirni siqish fotosuratlar va filmlar uchun zarur bo‘lgan xotira hajmini kamaytiradi, shuning uchun saqlash va uzatish samaradorligini oshiradi. Yo‘qotilgan yoki yo‘qotmasdan tasvirni siqish mumkin. Yo‘qotmasdan siqish

ma'lumotlarni asl nusxaning bir xil reproduktsiyasiga ochish uchun siqishni o‘z ichiga oladi Biroq, yo‘qotilgan siqish texnikasida, bir oz ko‘proq tarmoqli kengligi yoki saqlash joyini tejash uchun tasvirning ba'zi nozik tafsilotlarini qurbon qilish mumkin.Tasvir raqamli tizim tomonidan ifodalangan 2 o‘lchovli signaldir . Odatda kameradan olingan tasvir analog shaklda bo‘ladi. Biroq, qayta ishlash va siqish uchun tasvirlar raqamli shaklga aylantiriladi yani 2 lik sanoq tizmiga o‘giriladi. Raqamli tasvir asosan 2 o‘lchovli piksellar massividir. Asosan tasvirni siqish raqamli ma'lumotlarni siqishdan farq qiladi. Umumiy maqsadli ma'lumotlarni siqish algoritmi Tasvirni siqish uchun ishlatilishi mumkin, ammo natija optimaldan kamroq. Tasvirlarning har xil turlari masofadan zondlash, biotibbiyot va videoni qayta ishlash texnikalarida qo‘llaniladi, ular uzatish va saqlash uchun siqishni talab qiladi. Tasvirdan ortiqcha yoki ortiqcha bitlarni olib tashlash orqali siqilishga erishiladi. Rasimlarni siqish nima uchun zarur?

Siqilmagan tasvirlar operativ xotirada va saqlash vositalarida katta hajmdagi xotirani egallashi mumkin va ularni bir qurilmadan boshqasiga o‘tkazish uchun ko‘proq vaqt talab qilinishi mumkin. SHuning uchun bizga ushbu texnalogiya judaham as qotadi. Tasvirlarni siqish usullari. Yo‘qolgan va yo‘qotmasdan tasvirni siqish. Rasmni siqish yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin . Arxiv maqsadlarida va ko‘pincha tibbiy tasvirlar, texnik rasmlar, kliplar yoki komikslar uchun yo‘qotishsiz siqish afzalroqdir . Yo‘qotilgan siqish usullari, ayniqsa past bit tezligida foydalanilganda, siqish artefaktlarini kiritadi. Yo‘qotilgan usullar, ayniqsa, bit tezligini sezilarli darajada pasaytirish uchun aniqlikni kichik (ba'zan sezilmaydigan) yo‘qotish maqbul bo‘lgan ilovalardagi fotosuratlar kabi tabiiy tasvirlar uchun mos keladi. Arzimas farqlarni keltirib chiqaradigan yo‘qotilgan siqishni vizual ravishda yo‘qotishsiz deb atash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston ta’lim tizimining o‘rni sezilarli darajada oshishi asosida o‘quvchilarning yoshiga mos mutolaa kitoblarini tahlil qilib, ta’lim markazlarida va respublika miqyosida ta’lim jarayonida isloh qilinishi ta’lim sifatining oshishiga xizmat qilishi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik S.S.G’ulomov umumiy tahriri ostida. Darslik. T.: “Iqtisodiyot”, –2009.

2. Hoshimov O.O., Tulyaganov M.M. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. T.: “Yangi asr avlodi”, 2009. 102 b.*

3. Faronov V.V. Turbo Paskal 7.0. Nachalnыy kurs. Uchebnoye posobiye. M.: «Nollidj», 1999. – 580 s.

4. Urdushev X., Raximov A., Boychaqayev M, Qalandarov R. Microsoft Windows XP va Microsoft Office XP da ishlash. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand. SamQXI. 2007. 320 b.

ATOM BOMBASIDAN KUCHLIROQ HAVF YOKI JADIDLARIMIZ OGOHLANTIRGAN “MILLIY FOJIAMIZ”

O’rinov Umidjon

O’zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti ,,Xorijiy tillar va Gumanitar fanlar’’ fakultiteti Sirtqi bo’lim Tarix yo’nalishi 312-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon yoshlarining ongini zaharlashga urinayotgan zararli Ommaviy ahborot vositalari va Ijtimoiy tarmoqlarga qarshi kurashda Buyuk Marifatparvar Jadidlarimiz yozib qoldirgan yuksak madaniy-marifiy va tarbiyaviy ahamyatga ega bo’lgan adabiy merosidan foydalanish orqali yoshlar ongini o’stirish va mafkuraviy tahdidlardan ogohlantirish orqali Yuksak manavyatli kelajak avlodni tarbiyalash mumkunligi g’oyasi aks ettirilgan.

Kalit so’zlar: Mahmudxo’ja Behbudiy, Milliy fojiamiz , Birinchi sahna asari, Padarkush, Jaholat va Blimsizlik bombalari, Mega-Milliy fojiamiz, Yangi milliy va manaviy Laylatulqadrimiz.

Ma’rifatparvar jadid bobomiz Abdulla Avloniy aytganlaridek ,,Tarix! Millatlarning o’tmishini, kelajagini tarqqiyoti va tanazzulini o’rganadurg’on ilimdur’’

Bu so’zlardan ko’rinib turibdiki jamiyat taraqqiyotida kelajak avlodni marifatli va bilimdon qilib tarbiyalashda Tarix fanining o’rni naqadar yuksak va muhimligini tan olmasdan ilojimiz yo’q. Shunday ekan qani keling ko’p emas 150 yillik tariximizga nazar tashlasak O’rta Osyo xonlik va amirliklarini tanazzulga yuz tutishi, o’lkamizda yuz bergan ko’plab ,,Ozodlik va Hurlik’’ uchun kurashgan xalq qo’zg’olonlari, Podsho Rossiyasining O’rta O’syo davlatlarini mustamlakaga aylantirgani shunday og’ir va qaltis vaziyatda o’rtaga chiqqan xalqimizni ,,Marifat va ilm-u urfon nuri bilan sug’ormoqchi bo’lgan’’ fidoyi va vatanparvar Jadidlarimizning halqimizni marifatli qilish uchun qilgan harakatlari. Shu o’rinda XVII asirda nafaqat Xiva xonligi balki butun O’rta Osyo madanyati va tariuxnavisligi rivojiga yuksak hissasini qo’shgan marifatparvar Xiva xoni Abulg’oziy Bahodirxonning xizmatlari

beqiyosdir. Abulg’oziy Bahodirxon o’zining ,,Shajarayi Turk’’ asari ,, qisqa muqaddima va to’qqiz bobdan iborat bo’lib , Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlaridan Mo’g’ulxongacha kechgan hodisalar va shuningdek Shaybon avlodidan Xorazim mamlakatida podsholik qilganlar zikrini o’z ichiga oladi’’

Shu o’rinda Abulg’oziy Bahodirxon tomonidan aytilgan bir qimmatli fikirga aniqrog’i qadimiy turk maqoliga etiboringizni qaratmoqchiman ,,**O’qsuz o’z kindigini o’zi kesar’’** bu ibora bilan Abulg’oziy Bahodirxon o’sha davirda Tarixiy va adabiy merosga hurmat bilan qarab shaxsan o’zi bir davlat hukumdori bo’lsada tarixni yoritishga jiddiy etibor qaratib tariximizni yoritishni hech kimga ishonmay o’zi ,,Shajarayi Turk’’ va ,,Shajarayi Tarokima’’ asarlari orqali kelajak avlodlariga yuksak tarixiy va milliy qadiryatlarimizni yetkazmoqchi bo’lgani tahsinga sazovordir. Shunday ekan biz hozirgi zamon yoshlari shunday buyuk marifatparvar bobolarimizdan o’rnak olishimiz va ularga munosib avlod bo’lish uchun ularni asarlarini tengdoshlarimiz o’rtasida targ’ib qilishimiz kerak.

Tariximiz haqida qancha uzoq gapirsak ham kam lekin avvalo bir asosiy masalaga to’xtalishni ma’qul ko’rdim.

Oradan bir asr o’tsa hamki o’z dolizarbligini yo’qotmagan. Jadidlarimizning ,,Xalqni ma’rifatli va ilimli qilish,, g’oyasi hali hamon oldimizdagi asosiy vazifa bo’lib qolmoqda. Biz yigirma birinchi asrda yuksak axborot asrida yashamoqdamiz, yangi texnalogiyalar, ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Hozir biz uchun shunchalik ko’p yengillik va sharoitlar yaratilganki ortiqcha harakat qilishimiz shart ham emas lekin biz bu imkonyatlardan bilimimizni oshirish uchun ,,Milliyligimizni tiklash va Ma’naviyatli bo’lish uchun’’ foydalanyabmizmi?

Milliy fojiamiz!

Bir asrdan ortiqroq vaqt o’tgan bo’lsa ham o’z ahamyatini yo’qotmagan o’z yaratuvchisi tomonidan ,,**Milliy fojiamiz**’’ deb atalgan ,,Padarkush’’ asari va undagi voqialarni xozirgi zamon yoshlari uchun ham aynan tegishli desak adashmagan bo’lamiz.

Keling avvalo ,,Padarkush’’ asari haqida qisqacha malumot olsak. Bu asar 1911-yilda buyuk Marifatparvar jadid bobomiz Mahmudxo’ja Bexbudiy tomonidan yozilgan bo’lib ,,**Birinchi milliy sahna asarimiz**’’ hissoblanadi.

,,Padarkush’’ asarida ilimsizlik va johillik o’z boshiga yetgan ota va o’g’il taqdiri hikoya qilinadi. Bu asarda Boy ota o’g’lini o’qitish va ilim ma’rifatga chorlash o’rniga xohlagan ishini qilishiga va zararli odatlarga tobe bo’lishiga sharoit yaratib beradi. Bilimsizlik botqog’iga botgan ota atrofidagi ilimli insonlarning unga bergan pand-nasihatlariga quloq solmay o’g’liga ta’lim berishdan bosh tortadi. Natijada esa erkatoy va bezori bo’lib o’sgan o’g’il o’ziga o’xshagan ongi buzuq va betayinlar bilan do’stlashib kayfu-safo va ko’ngil hushlikka berilib ketadi. Kunlardan birida esa navbatdagi ko’ngilxushlik uchun pul kerak bo’lganda nodon O’g’il o’z uyiga sheriklari bilan o’g’irlikka tushadi va shu paytda to’satdan ularni to’xtatmoqchi bo’lgan o’z Otasini o’ldirib qo’yadi. Natijada yoshlikda berilmagan tog’ri talim tarbiya tufayli ,,Jaholat va nodonlik’’ jamyatni bir bo’lagi bolgan butun boshli oilani yakson qiladi. Bu sahna asari yuz yillar avval hali zamonaviy texnalogiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yaratilishidan oldin Marifatparvarlarimiz tomonidan ,,**Milliy Fojia**’’deb atalgan.

Qani endi o’zingiz bir o’ylab ko’ringchi ,,Nimaga?’’ hozirgi zamonda 100 yil avval ogohlantirilgan voqealar 100 karra o’z tastig’ini topmoqda **.** Nega? ,,Padarkushlar’’ ko’payib ketmoqda eng achinarlisi bu voqiealarni biz oddiy holdek qabul qilmoqdamiz hech hayron bo’lmaymiz, hammasiga o’tta loqayt qaraymiz. Aslida eng katta hozirgi zamon tili bilan aytganda ,,**Mega – Milliy fojiamiz**’’ shu emasmi.

Atom bombasidan kuchliroq xavf!

Bizni bir asr avval ogohlantirishgan edi. Qarang qanday ahvolga keldik yana yuz yildan keyin qanday holatga tushamiz? Kelajak avlodlarimiz kimlarni ulug’laydi? Kimlarni so’zlariga amal qilib, kimlarni ulug’lab kimlarga haykal qo’yadi? Afsuski kelajagimiz shunday so’roqlar ostida qolmoqda!

Men bir gapni ishonch bilan ayta olamanki bizni halqimizni, millatimizni yo’qilish uchun ustimizga ,,Atom bombasi’’ tashlashlari shart emas, sababini bilasizlarmi?

Sababi shundaki qiyoslab aytganda ,,Atom bombasi’’ sekin-astalik bilan bizning miyyamizga, ongimizga ,,Zararli axborot va behayo tasvirlar ’’ shaklida joylashtirilmoqda agarda bu ish to’la yakunlansa ,,Millionlab yoshlarimiz miyyasi va ongidagi **Jaholat va Bilimsizlik bombalari** portlab butun Millatimizni tag-tomiri bilan yer yuzidan supirib yuborishi mumkin’’ . Men bu gaplar bilan insonlarni qo’rqitmoqchi emasman shunchaki ogohlantiryabman holos. Huddiki Buyuk marifatparvar bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiy 1911-yilda o’zining qisqa lekin juda muhim, chuqur manoli ,,**Padarkush**’’ asari bilan ogohlantirganlaridek.

Ming afsuslar bo’lsinki millatimizning fidoiylari, jonkuyarlari Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho’lpon ,Akbar Islomov va boshqa ko’plab vatanparvarlarimiz qatag’onga uchrab bevaqt bu olamni tark etganlar eng achinarlisi ularning hattoki qabirlari ham saqlanib qolmagan.

1938-yil 28-mart kuni Sitalin, Molotov, Kaganovich, Voroshilovlar rahbarligida O’zbekistondagi siyosiy elitadan 165 kishini qatag’on qilish haqidagi ro’yhatga qo’l qo’yiladi va shu ro’yhat asosida 4-7 oktyabr kunlari qonli fojialar ro’y beradi.

1938-yil 4-oktyabr sanasida Millatimizning bir guruh ziyolilarini hozirgi Toshkent viloyati Yunisobot tumanidan o’tuvchi Bo’zsuv kanali atrofida johil Sovet hukumati buyrug’i bilan otib o’ldirilgan va o’sha joyning o’zida umumiy chuqurga ko’mib yuborilgan. Eng achinarli tarafi Jadidlarni qatil etish buyrug’i 5-oktyabirda chiqarilgan lekin bir kun oldin 4-oktyabirda otib tashlashgan bu esa xalqning qarshilik ko’rsatishini oldini olish maqsadida qilingan edi.

Mustaqillik yillarida Birinchi Pirizidentimiz Islom Abdug’anivich Karimov tomonidan jadid marifatparvarlarimizning pok hotiralari tiklanib 2000-yil 31-avgustda ,,Shaxidlar xotirasi yodgorlik majmuasi’’ hiyoboni va muzeyi ochiladi. Bu albatta marifatparvarlarimiz xotirasiga ko’rsatilgan yuksak hurmat belgisidir.

Lekin biz yoshlar buyuklarimiz hotirasiga munosib hurmat ko’rsata olyabmizmi degan savol tug’iladi?

Yosh tarixchi sifatida shu o’rinda o’z fikirimni bayon etmoqchiman;

,,Mening fikrimcha biz XXI asr yoshlari afsuski Jadidlarimizga munosib avlod bo’lolmayabmiz.

2023-yil avgust oylarida ilk bor Toshkentga aynan shu ,,Buyuk marifatparvar jadidlarimiz ruhlari mangu qo’nim topgan,, joyni ziyorat qilish uchun bordim. Tasavvurimda go’yoki tengdoshlarim va mendan katta-kichik insonlar qo’llarida kitob bilan shu hiyobonda buyuk ajdodlarimizni yod etib ularning asarlarini va xotiralarini o’qib ibrat olib bir-birlari bilan Jadidlarimiz hayotini muhokama qilib hulosa qilishar deb o’ylardim.

Go’yoki; Hamma joy sokin shoirlar she’r yozmoqda o’quvchilar esa muzeyni aylanmoqdalar, jadidlarimiz hayoti bilan tanishmoqdalar va ketar paytlarida ,,Bizning ongli inson, marifatli yetuk bir xalq bo’lishimizga xissa qo’shmoq uchun o’z jonlarini fido qilgan buyuk ajdodlarimizga tazim qilib ketishar’’ deb o’ylardim. Afsuski tasavvur va o’ylarim xato ekan, ko’pchilik yoshlarimiz buyuk Ma’rifatparvarlarimiz xotirasiga loqaydlik va hurmatsizlik bilan qarashmoqda.

Xulosa

Mana biz qayerga qarab ketmoqdamiz bizningcha ,,Chegaralarimiz havfsiz va axoli tinch bo’lsa bo’ldida lekin yoshlarimiz ongini va mafkurasini kimlar qo’riqlaydi. Hozir zamonaviy texnalogiyalar va ahborot asrida yashayabmiz ,, Bu zamonda Davlatlarni parchalab tashlash uchun chegarasini buzib kirish shart emas shunchaki; **,,Kelajak avlodlarni ongini zaharlasa bo’ldi davlat o’z-o’zidan johillik botqog’iga botadi.’’**

Biz yoshlarimizning ongini mafkurasini qo’riqlovchi himoyachilarimiz 1938-yil 4-oktyabir sanasida vafot etganlar bilan dafin etildi deb tushkunlikka tushmasligimiz kerak. Aksincha yangi jadidlarimiz ziyoli marifatparvarlarni o’z ichmizdan yaratishimiz kerak. Shundagina bizning qiyofamizda qaytadan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho’lpon, va Avloniylar qaytadan hayotga qaytadilar va biz shundagina yuksak ma’rifatli jamyatga aylanib buyuk marifatparvarimiz Abdurauf Fitrat ta’biri bilan aytganda ,,**Milliy Laylatulqadrimizga**’’ erishgan bo’lamiz.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Rustam Shamsiddinov, Shodi Karimov ,,Vatan Tarixi’’. 2-kitob. **„**SHARQ’’.Toshkent. 2010-yil (qayta nashr) 123-124 betlar.

2. Yo’ldoshev J., Xasanov S. ,,Jadid tarbiyashunosligi asoslari’’. Toshkent. 1994. 5-6 betlar.

3. www.ziyouz.com elektiron kutubxonasi.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA HUQUQIY QADRIYATLARNING QOZILAR FAOLIYATIDA AKS ETISHI

Karimov Qahramon Sodiqovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti, PhD
qahramonjob@876umail.uz

Annotatsiya: Maqolada huquqiy tarbiyalashda shaxsiy huquqiy tarbiya, huquq va davlat, adabiy tinchlik, inson huquqlari va demokratiyasi to‘g‘risida fikr-mulohazalar, insonlarda huquqiy ongni shakllannish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qozilar, huquqiy tarbiya, sud-huquq tizimi, shaxsiy huquq, fuqaro, huquq va davlat, adolatli sud hokimiyati.

Mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar silsilasida muhim yo‘nalish bo‘lmish fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasiga qaratilgan sud-huquq tizimini liberallashtirish alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda mustaqil, adolatli sud hokimiyatini qaror toptirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, u mamlalat rahbariyatining doimiy diqqat markazidagi masaladir.[14]

Huquqiy tarbiyalashda shaxsiy huquqiy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Huquqiy tarbiyaning mazkur shakli sezilarli darajada samaralidir. Shaxsiy huquqiy tarbiya fuqaroning huquqqa bo‘lgan hurmatini shakllantirish, o‘zini o‘zi o‘qitish orqali huquqiy qoidalarga qat’iy rioya qilish, huquqiy voqelikni hamda shaxsiy amaliyotni mustaqil tahlil etish orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy huquqiy tarbiya boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, birorta davlat organining, muayyan tashkilotning yoki xo‘jalik yurituvchi subektning yuridik xizmati tomonidan ma’lum bir huquqiy hujjat loyihasi ko‘rib chiqilib, unga tegishli takliflar bildirish, huquqiy xatolarini to‘g‘rilash maqsadida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoxud loyihaning amaldagi qonun hujjatlarga mos emasligini asoslantirgan

[14] X.T.Odilqoriyev. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. “O‘qituvchi”, 2012, T., 406-bet.

holda tegishli boshqarma (boiim, xizmat)ga qaytarish, u yerdagi mansabdor shaxsning hamda xodimlarning huquqiy ongini va madaniyatini oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Yuridik xizmat tomonidan huquqiy hujjat loyihasiga bildirilgan fikrlar va e’tirozlar tegishli rahbar, boshqarma (bo‘lim, xizmat) boshlig‘i yoki mutaxassis tomonidan qayta ko‘rib chiqilib, kamchiliklar bartaraf etiladi. Natijada kelgusida ular tomonidan bunday xatolarga yo‘l qo‘yilmaslik uchun zamin yaratiladi.[15]

Huquq va davlat, adabiy tinchlik, inson huquqlari va demokratiyasi to‘g‘risida fikr-mulohazalari insoniyat uchun bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan Immanuil Kantning “Iroda mayl, havasga qaramasdan mulohaza bilan faqat yaxsht narsani tanlay bilish qobiliyatidir”[16],-deganida, aynan qozilarlik fazilati bo‘lishi haqida aytilgan bo‘lsa neajab.

Dunyo tajribasi jumladan, Germaniya huquqiy tizimiga XIX asrdayoq asos solingan. Bu, avvalo, sud tizimi to‘g‘risidagi qonundir. Ushbu qonun sudlarni tashkil etish, ularning tuzilmasi, vakolati, fuqarolik protsessual va jinoyat protsessual kodekslari bilan tartibga solingan. 1900-yilda kuchga kirgan Germaniya fuqarolik nizomi, fuqarolik protsessual va jinoyat protsessual kodekslar liberal va demokratik kuchlar tomonidan XIX asrning so‘nggi yillarida imperiya hukumati davrida yaratilgan edi. Germaniyaning ushbu kodekslari keyinchalik ko‘plab xorijiy mamlakatlarning huquqiy tizimlari uchun ham namuna bo‘ldi.[17]

Jahon adabiy merosida insonlarda huquqiy ongni shakllannish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, pirovard natijada insoniyat tarixida buyuk huquqiy yangilanishlar tabiatiga qudratli ta’sir ko‘rsatgan ko‘pdan-ko‘p huquqiy manzaralar va timsollarni uchratish mumkin. “Huquqni anglab yetish kaliti”ni nafaqat huquqshunoslar, ilohiyotchilar, faylasuflar izlaganlar. Bu qidiruvni ko‘plar: o‘tmishning buyuk adiblari hamda xalq ostonlari, ertak va rivoyatlarning nomsiz mualliflari ham olib organlar. Ular qatorida ruhiyat daholari Alisher Navoiy va Aligyeri Dante, Erazm Rotterdam va Vilyam Shekspir, Umar Xayyom va Fridrix fon

[15] Foziljon Otaxonov. O‘zbekiston Respublikasi yuridik xizmat. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, T., 2007, 122-bet.
[16] A.X.Saidov. Huquq metafizikasi, davlat huquqi, huquq va adabiyot. “Niso Poligraf”, T., 2016, 12-bet
[17] A.X.Saidov. Huquq metafizikasi, davlat huquqi, huquq va adabiyot. “Niso Poligraf”, T., 2016, 174-bet

Shiller, Fyodor Dostoyevskiy va Lev Tolstoy, boshqa na ko‘plab buyuk mutafakkirlar nomlarini keltirish mumkin.[18]

“Nazariya-quruq og‘ochdir,

Ammo yashar hayot daraxti”.[19]

(*Erkin Vohidov tarjimasi*)

Islom diniy-huquq tizimi deb ta’riflanadigan “musulmon huquqi” VII—X asrlarda arab xalifaligida yuzaga kelgan. Ilk Islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur’oni karim asosida olib borilgan. Islom ilohiyotchilari bir necha asr mobaynida shariat qonunlarini ishlab chiqqanlar. Shariatga asos qilinib Qur’oni karim va Sunna, keyinchalik Ijmo’ va Qiyos olingan. Shariat diniy-huquqiy tizim sifatida XI—XII asrlarda tugal shakllangan. Tarixda, jumladan, Movarounnahr va Xuroson fiqh maktablari mashhur bo‘lgan. Ular fiqhda shariat manbalari — “usul ul-fiqh” deb e’tirof etilgan. Binobarin, fiqh arabcha “tushunish” ma’nosini anglatib, musulmon huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasidir. Fiqh diniy huquqshunoslik sifatida ikki sohada — shariat manba- larini ishlab chiqish (“usul ul-fiqh”) va shariatni muayyan bir sohalarga tatbiq qilish (“furu’ ul-fiqh”)dan iborat belgilangan.[20]

Musulmon huquqi Turkistonda hukmron huquq manbasi sifatida rus mustamlakasi davrida ham amal qilar edi

Musulmon huquqi — hozirgi zamondagi eng asosiy huquqiy tizimlardan biri bo‘lib, uning asosiy xususiyati islomning diniy qarashlari, ahloqiy va maishiy aqidalari bilan yaqindan bog‘liqlikdir. Musulmon huquqining amaliy faoliyati shaxsiy (shaxs maqomining ko‘pgina masalalari bo‘yicha) va hududiy qo‘llanish aqidalarining uyg‘unlashtirilishi bilan ajralib turadi.[21]

Musulmon huquqini, shuningdek, shariat deb ham ataladi. Biroq, bunday tushuncha batamom to‘g‘ri kelmaydi, chunki shariat botiniy ("amaliy") axloq-odob

[18] A.X.Saidov. Huquq metafizikasi, davlat huquqi, huquq va adabiyot. “Niso Poligraf”, T., 2016, 246-bet
[19] Gyote. Faust.-Toshkent, “G‘afur G‘ulom”, 1985, 60-bet.
[20]O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati. “Sharq”, T., 2003, 248-bet
[21] Jahon mamlakatlarining huquqiy tizimlari. Qomusiy lug‘at. “Inson huqulari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi”, T., 2006. 451-bet.

qoidalari bilan birga diniy aqidalar asoslarini hamda musulmonlar vijdoniga havola etilgan axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni o‘z ichiga oladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qonunlar borgan sayin ko‘proq asosiy huquqiy manba bo‘lib qoldiki, ular musulmon huquqiy aqidalarining o‘ziga xos majmui bo‘lib xizmat qiladi. Boshqa me’yoriy hujjatlar Qur’on va sunnaning aniq ta’riflangan ko‘rsatmalariga zid bo‘lmagandagina nazariy jihatdan qo‘llanilishi mumkin.[22]

Musulmon huquqining asosiy mazmunini islom talablaridan kelib chiqadigan, musulmonlarning o‘zaro muomala va axloq qoidalari hamda ularga amal qilinmaganligi uchun qo‘llanadigan (odatda diniy ruhdagi) jazolar tashkil etadi. Shariatda davlat (xalifalik) huquqi normalari, majburiyat, meros, jinoyat va jazo, oila-nikoh huquqlari, shuningdek, sud yuritish, vasiylik ko‘rsatmalari berilgan. Shariat xususiy mulkni xudo tomonidan belgilangan doimii va o‘zgarmas deb hisoblaydi. Qur’oni karim shariat huquqinin: bosh manbai sifatida, hadislar unga qo‘shimcha yoki to‘ldiruvch;- manba, dunyoviy huquq esa undan hosila bo‘lib, faqat unga zil kelmagan holdagina qo‘llanilgan. Qur’oni karimning deyarl: barcha suralari u yoki bu darajada huquqqa oid qoidalardir.

V.V. Bartold fikricha, Turkiston XIX asrda, o‘rta asrlardan farqli o‘laroq, musulmon dunyosi dunyosida yuqori o‘rin egallamagan bo‘lsa-da, Buxoro avvalgi diniy ta’lim markazi maqomi shon-shuhratini saqlab qoldi va nafaqat Turkiston viloyatlaridan, balki Volga mintaqasidan ham talabalarni o‘ziga jalb qildi.[23]

Turkisonda jumladan, Toshkent misolida shahar hukumati tarkibini aniqlash uchun hududiy emas, balki milliy prinsip asos bo‘ldi, garchi qoidalarning dastlabki rejasi (general-gubernator buyrug‘ida 1877-yil avgustda) mahalliy aholining huquqlarini himoya qilish ma’nosida birlashtirilgan bo‘lsa ham shahar kengashi a’zolarining soni, ularning uchdan bir qismi, albatta, rus tilini biladigan mahalliy

[22] Jahon mamlakatlarining huquqiy tizimlari. Qomusiy lug‘at. “Inson huqulari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi”, T., 2006. 452-bet

[23] V.V. Bartold. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad. Izdatelstvo akademii nauk SSSR, 1927. 124-str

aholiga saylanadi, ya’ni mahalliy aholi kengash a’zolarining kamida uchdan bir qismini tashkil qilishi kerakligi to‘g‘risida qaror qabul qilindi.[24]

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. V.Nalivkin. Kratkaya istoriya Kokandkago xanstva. Kazan Tipografiya Imperatorkago Universiteta, 1886.

2. A.F.Middendorf. Ocherki Ferganskoy dolinы. Sankpeterburg. Tipografiya Imperatorski akademi nauk, 1882.

3. V.V. Bartold. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad. Izdatelstvo akademii nauk SSSR, 1927.

4. A.X.Saidov. Huquq metafizikasi, davlat huquqi, huquq va adabiyot. “Niso Poligraf”, T., 2016.

5. Gyote. Faust.-Toshkent “G‘afur G‘ulom”, 1985.

6. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati. “Sharq”, T., 2003.

7. Nodirbek Abdulahatov, Tolibjon G‘oziyev. Burhoniddin Marg‘inoniy: Tarixiy haqiqat va asotirlar. “Yangi asr avlodi”, 2010.

8. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. “Ma’naviyat”, 2009.

9. X.T.Odilqoriyev. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. “O‘qituvchi”, T., 2012.

10. Foziljon Otaxonov. O‘zbekiston Respublikasi yuridik xizmat. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, T., 2007.

11. Jahon mamlakatlarining huquqiy tizimlari. Qomusiy lug‘at. “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi”, T., 2006.

12. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (Elektron resurs) (Kirish sanasi 02.12.2020-yil soat 13:37) https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O‘zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20M%20harfi.pdf

[24] V.V. Bartold. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad. Izdatelstvo akademii nauk SSSR, 1927. 164-str

INNOVATIVE METHODS IN TEACHING PHYSICS

Boboxo‘jayev Qudrat Umarovich
Doctor of Philosophy (PhD) in physical and mathematical sciences,
Vice-rector for Academic affairs of Alfraganus University
Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich
High-class physics teacher at “International House Tashkent” academic lyceum

Abstract. Teaching physics needs a unique new method. This article discusses the issues of teaching physics using innovative methods.

Keywords: Physics, innovation, method, teaching, technology.

INTRODUCTION

Innovative methods in teaching are new methods of communication with students, a position of business cooperation with them and introducing them to current problems.

Teaching physics in the classroom today cannot be presented only in the form of theoretical classes; it is necessary to maintain interest in physics and use a variety of ways and methods to stimulate learning activities.

RESULTS AND DISCUSSION

I consider the most popular innovative teaching methods in my classes today to be [1]:

1. Value orientation is a new understanding of science, according to which physics has universally significant value as the most important element of modern science.

During classes, students create booklets “Modern Physics”, which describe the achievements of modern physics that have practical applications in healthcare, space and industry, as well as brochures “History of Physics: Fun, but Smart”, which tell interesting facts from the life of scientists, interesting cases.

2. Case study.

The teacher leads the discussion of the problem presented in the case, and the cases themselves can be presented to students in a variety of forms: printed, video, audio, multimedia.

During the lesson, we analyze specific situations that we see literally every day around us, watch videos from youtube.com that demonstrate the inventions of “traditional craftsmen” and explain them using physical phenomena and definitions.

3. Games (business, role-playing, travel games, competition games).

Games help broaden one's horizons, develop cognitive activity, and form communication skills necessary in practical activities.

In training sessions, I most often use the game element. For example, an element of the business game “Meeting of a design bureau.” Each department has its own tasks: the archivist prepares historical information. An employee of the scientific and technical department gives information about the general principles of operation of the device, the inventive department characterizes the device, indicating its advantages and disadvantages. An ecologist raises the problem of environmental pollution.

4. Creative groups.

This method is most often used by me in lessons on learning new material, where children demonstrate and explain new educational material in an interesting form (sketch, wall-newspaper, booklets, experiments using scrap materials).

5. The pair work method, in which one student is paired with another, thereby guaranteeing the receipt of feedback and evaluation from the outside in the process of mastering a new activity.

Example, circuits of a heat engine are proposed, it is necessary to find the efficiency of the engine, compare and conclude which of the two heat engines has greater efficiency.

6. The “Flying” method is a method in which current issues regarding the topic or problem being studied are resolved through the exchange of information and opinions, as a result of which it becomes possible to improve students’ skills. The

advantage of this method is its connection to real situations in the learning process [3].

I use this method at the beginning of the lesson in order to interest and indicate the need to acquire new knowledge.

For example, the question “What will cool down faster under the same conditions: fatty soup or tea?”

7. Use of information and computer technologies. ICT tools can significantly expand the possibilities of presenting different types of information. With the right approach, the computer activates the attention of students, enhances their motivation, develops cognitive processes, thinking, attention, develops imagination and fantasy, and simulates complex physical objects.

The 21st century is called the century of “electronic society” and the century of information civilization. Global changes have occurred in our society. A new teacher has appeared with modern requirements for conducting classes, and with him a modern student, living in a world of high technology, owning many achievements of scientific and technological progress.

CONCLUSION

The main task of the student is to acquire the ability to think logically, build mathematical models, master experimental skills and knowledge in the general course of physics on the topic being studied, achieve awareness in decision-making when solving professionally oriented problems, which, in turn, leads to the formation of professional competencies.

In conclusion, we note that the content of individual parts of the case reflects the main physical laws within the framework of the section being studied, and at the same time brings us closer to solving the situational problem. The situational task itself, on the one hand, is a system-forming factor in the content of the case, and on the other, due to its professional orientation, it is a means of maintaining students’ interest in studying the section. Approbation of the developed model in the process of a pedagogical experiment proved the effectiveness of the methodology for teaching physics to students of a technical university based on complex case technology.

References:

1. Obraztsov, P.I. Technology of professionally oriented training in higher education: textbook. allowance / P.I. Obraztsov, ed. V.A. Slastenina. – Orel: OSU, 2018. – 163 p.

2. Polat, E.S. Modern pedagogical and information technologies in the education system / E.S. Polat, M.Yu. Bukharkin. – M., 2017. – 364 p.

3. Serikov, V.V. Personality-oriented education / V.V. Serikov // Pedagogy. – 2014. – No. 5. – P. 16–20.

4. Surmin, Yu.P. Situational analysis or anatomy of the case method: textbook. allowance / Yu.P. Surmin. – Kyiv: Center for Innovation and Development, 2012. – 286 p.

TIL-TARIXIY IJTIMOIY SIYOSIY JARAYON VOSITASI

Mirzaqulova Muqaddam To‘xtasinovna
Namangan viloyati Yangiqo’rg’on tumani 18-maktabning
ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy muloqot vositasi bo’lmish tilning o’ziga xos jihatlari haqidagi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: til, kommunikatsiya, nutq, verbal, noverbal muloqot.

Til - insoniy muloqotning asosiy vositasi. Til yordamida odamlar bir-biri bilan muloqot qilishadi, o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, istaklarini etkazishadi. “Til, – deb yozgan edi V.I.Lenin, – insonlar muloqotining eng muhim vositasidir...” Til muloqot vositasi sifatida jamiyat hayoti bilan, shu tilning ona tilida so‘zlashuvchi xalq bilan bog‘langan. Til jamiyatdan tashqarida bo‘lmaganidek, jamiyat ham tilsiz bo‘lolmaydi. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga til ham rivojlanadi, o‘zgaradi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tilda o‘z aksini topadi. Til qadimda odamlarning birgalikdagi mehnat faoliyati jarayonida vujudga kelgan. U odamlarga bir-birini tushunishga, birgalikda ishlashga, tajriba va bilimlarini almashishga yordam berdi. “Til, – deb yozgan edi K. Marks va F. Engels, – faqat ehtiyojdan, boshqa odamlar bilan muloqot qilishning shoshilinch ehtiyojidan kelib chiqadi” Til tafakkur, ong bilan chambarchas bog'liq. Odamlar mehnat jarayonida egallagan atrofdagi voqelik haqidagi bilimlar tilda - so'zlar, iboralar va jumlalarda mustahkamlanadi. Til yordamida odamlar o‘z bilim va tajribasini avloddan-avlodga o‘tkazadi. K.Marks va F.Engelslar “Til ong kabi qadimiydir; til amaliydir, boshqa odamlar uchun ham mavjud va shu bilangina o‘zim uchun, haqiqiy ong uchun ham mavjuddir...” (3-jild, 29-bet). Har bir til murakkab tizimdir. Bu tizimning elementlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va tilda tizimlarni tashkil etuvchi tovushlar, so'zlar, gaplar: fonetik, morfologik, leksik va sintaktik.

Til tarixan shakllangan mazmunli shakllar tizimi bo‘lib, uning yordamida kishilar o‘z fikrlarini o‘ziga xos jamoat mulkiga va hatto jamiyatning ma’naviy boyligiga aylantira oladi.

"Muloqot" tushunchasi ancha kengroq, chuqurroq bo'lishi mumkin. Bu o'tmishga nazar tashlaganda aniq bo'ladi. O'qimishli odamlar XVI asrdan boshlab shunday muloqot qildilar yuqori daraja, bugungi kunda u shunchaki muloqot qilish uchun berilmagan. Til muloqot vositasi bo'lib xizmat qildi, lekin nafaqat - bu bilim vositasi, haqiqiy san'at edi. Bugungi kunda muloqot tili ancha past, cheklangan darajada. Til kabi muloqot vositasi tarixan, insoniyat jamiyati va uning ehtiyojlari rivojlanishi bilan shakllangan. Tilning tabiati ramziy xususiyatga ega, ya'ni belgi bo'lgan har bir so'z tashqi dunyo narsa va hodisalari bilan aniq aloqaga ega. Har bir so'z uchun, belgi sifatida, tarixan, bir necha ming yillar davomida ma'lum bir ma'no berilgan, faqat ushbu tilni biladigan va ishlatadigan odamlar guruhiga tushunarli. Tilning tabiati o'zining ikki tomonlama funktsiyasi bilan ajralib turadi: u ham fikrlash vositasi, ham odamlar uchun muloqot usulidir. Til jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini ham saqlaydi, ijtimoiy, madaniy meros mexanizmi sifatida ishlaydi. Texnik va ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanishi bilan insoniyat o'z ehtiyojlari doirasini asta-sekin, lekin shubhasiz kengaytirdi, shuning uchun til ham takomillashdi va rivojlandi, uning so'z boyligi, uning grammatik mohiyati yanada mukammallashdi. Bularning barchasi bugungi kunda jamiyatga nafaqat mutlaqo har qanday ma'lumotni, balki axborot ob'ektining ko'plab tafsilotlarini, uning har qanday soyalarini uzatish imkonini beradi. Til muloqot va bilim vositasidir, lekin bu nafaqat. Shuningdek, u ijtimoiy tajribani to'plash va uzatish vositasidir. Til yordamida muloqot qilish tufayli bir kishining ongida voqelikning aks etishi boshqa odamlarning ongida bo'lgan narsalar bilan to'ldiriladi, bu jarayon tufayli ma'lumot almashish imkoniyatlari oshadi. So'zlar yordamida muloqotning asosiy, eng mukammal shakli og'zaki muloqot deb ataladi. Tilni bilish darajasi, nutq madaniyati va boyligi muloqot imkoniyatlarini, uning samaradorligini belgilaydi. Tildan tashqari, boshqa aloqa vositalari ham mavjud, ular: imo-ishoralar, mimikalar, pauzalar, intonatsiyalar, xulq-atvor va hatto odamning tashqi ko'rinishi. Muloqot, sub'ektlarning jonli muloqoti bo'lib, tabiiy

ravishda muloqot qiluvchilarning his-tuyg'ularini namoyon qiladi, shu bilan birga u axborot, ma'lumot almashishning og'zaki bo'lmagan tomonini yaratadi.

Tuyg'ularning maxsus tili, odamlar rivojlanishining mahsuli og'zaki bo'lmagan muloqot deb ataladi. Bu og'zaki muloqotning mazmunli ta'sirini sezilarli darajada oshirishga intiladi. Ba'zan, ma'lum sharoitlarda, og'zaki bo'lmagan muloqot og'zaki muloqotni almashtirishi mumkin. Misol uchun, sukunat ba'zan so'zlardan ko'ra ravshanroq bo'lishi mumkin va qarashlar jumlalardan ko'ra ko'proq his-tuyg'ularni etkazishi mumkin. Shuningdek, aloqa vositalari musiqiy tovushlar, harakatlar va harakatlar, tasvirlar, chizmalar, chizmalar, belgilar, belgilar va hatto matematik formulalar bo'lishi mumkin. Karlarning imo-ishora tili ham muloqot vositasidir. Muloqotning asosiy vositasi fikr ravshanligini saqlab qolishdir, keyin muloqot tili doimo aniq bo'ladi.

Til tashqi dunyoni o'rganish va o'zlashtirishning asosiy qurolidir. U odamlar o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi sifatida ham ishlaydi. Xuddi shunday, til boshqa madaniyatlar bilan tanishish imkonini beradi. Tillar milliy madaniyatlardan ajralmas bo'lib, ular bilan taqdirning bir xil to'qnashuvlaridan o'tadi. Shu sababli, Yangi asrdan boshlab, dunyo ta'sir doiralariga qayta taqsimlanganligi sababli, mustamlakachilik va boshqa qaramlikka tushib qolgan ko'plab etnik guruhlar va xalqlarning tillari tarixiy sahnadan tobora ko'proq siqib chiqa boshladi. Bugungi kunda bu holat yanada murakkablashdi. Agar ilgari omon qolish muammosi, asosan, ularning rivojlangan mamlakatlari va xalqlaridagi qaram va orqada qolgan tillarga taalluqli bo'lsa, hozir bu rivojlangan Yevropa davlatlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ensiklopediya”(Sobr soch. 2-nashr, 3-jild, 29-bet).

2. O’qituchi ilmiy jurnali 2022-son 7-nashr 18-sahifa

3. E.G’oziyev “Ijtimoiy psixologiya” Toshkent matbaa 2000-yil

PSIXOLOGIK TRENINGLAR VA ULARNI TASHKIL QILISH

Noila Niyazaliyeva Karimjonovna
Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani 55-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliyotchi psixologlarnfaoliyati davomida ko’p qo’llaynadigan treninglarni tashkil qilish qonun-qoidalari haqida fikrlar yoritilgan

Kalit so’zlar: trening, trener, ishtirokchilar.

Trening-bu o‘yinga oid sotsial insonni muloqotga o‘rgatish uchun bajariladigan o‘yin mashqlari va xatti-harakatlari tizimidir. Trening jarayoni - bu har bir o‘yin mashqida uning rahbari qanday yo‘nalish berishidan iboratdir. Treningning asosiy maqsadi-shaxsni psixologik ruxiy jixatdan ozod qilish, unda tabiiy erkinlikni xis etishni hamda o‘z guruxida va undan tashqarida o‘zaro munosabat va aloqa o‘rnata olishni shakllantirishdir.

Treningda uning rahbari trener yoki dirijyor sifatida ishtirok etadi. Trening maqsadini aniq va nihoyatda tushunarli darajada tushuntirish maqsadga muvofiq. Masalan, boshqa kishilarni yoki o‘zini o‘zi tushunishga o‘rgatish, o‘zgalarni va o‘zini o‘zi o‘rganish, o‘ziga-o‘zi baho berishni ta’minlash, boshqalar fikrini uqa olish va ularni idrok qila bilish kabi o‘quvlar. Muloqotda o‘zini o‘zi boshqarishga zikran e’tiborni to‘plashni amalga oshirish maqsadida tavsiya qilinayotgan sxemaga rolli o‘yin va munozaralar kiritish orqali trening vazifasini murakkablashtirish mumkin.

Trening 3 qismdan tashkil topgan bo‘lib, quyidagilardan iboratdir.

1. Psixofiziologik kontakt o‘rnatish.
2. Psixologik kontakt.
3. Psixodrama.

Treningning asosiy yo‘nalishi: rolli o‘yin shaklida rolli vaziyatni idrok etishni tashkil qilish mutlaqo zarur, chunki trening uning qatnashchilarida trenerning yordamida o‘yinda yaratilgan vaziyatlarga nisbatan individual munosabatini uyg‘otish zarur.

Treningni o‘tkazish davomida uni qatnashchilarining shaxsiy muloqot usullarini o‘zining boshqalarga nisbatan pozitsiyasini yaqqol anglashtiruvchi vaziyatni rag‘batlantirish joiz. Trening faoliyati 8-10 mashg‘ulotni o‘z ichiga qamrab oladi xolos. Treningning hamma mashg‘ulotlari uning ishtirokchilari bilan faqat do‘stona, samimiy his-tuyg‘ular asosida va ixtiyoriy tarzda o‘tkaziladi. Trening ishtirokchilarining soni 7-15 nafar bo‘lishi mumkin, lekin bundan ortmasligi lozim. Guruh bilan mashqlarni o‘tkazishdagi majburiy mashqlarni shartlar bo‘yicha qoidalarga rioya qilinmasa, u xolda o‘yinli trening ijobiy natija bermasligi to‘g‘risida oldindan kelishib olishish kerak. Jumladan,

1. Bir-biriga samimiylik, xayrixohlik:

2. Bir-biriga ishonish. | o‘zaro ishonch |:

3. mashqlarni bajarish davomida shaxsga baxo bermaslik, balki uning faoliyatiga va muloqat usullariga baxo berishlik:

4. Ishtirokchilar o‘yindan qay darajada qanoatlanganligi xaqidagi taassurotlarini shu zaxotiyoq trenerga ma’lum qilishlik:

5. Topshiriqlarni bajarish faqat ijobiy gepotezaga mo‘ljallanganlik:

6. Jismoniy nuqsonlarga nisbatan e’tiborni qaratmaslik:

7. Treningning borishi jarayonida xech kimga xech qanday maslaxat bermaslik:

8. “Bu yerda va xozir”-degan shartni bajarish ya’ni trening paytida ro‘y bergan hamma narsa tashqariga olib chiqilmaslikka va xozirgi muloqotda nimalarni xis etayotganligini ma’lum qilmaslik:

9. tomoshabinlar trenerning ruxsati bilan emas, balki guruxning barcha a’zolarining roziligiga binoan qatnashishlik kabilar:

Treningni muvaffaqiyatli o‘tkazishning va uning sermaxsulligi muvaffaqiyati ko‘p jixatdan trener bilan ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro bir-birini tushunish darajasiga bog‘liqdir.

O‘yin treningini uyushtirishda quyidagi eng qiyin xolatlarni inobatga olish va ularni izchil ravishda nazarda tutish maqsadga muvofiq:

1. O‘zining shaxsiy ichki siqiqligini yengish, barcha ishtirokchilarining ko‘zlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq chiroy bilan, dadil qaray olish:

2. O‘yin faoliyatining boshida yaratilgan vaziyat-eng omilkor va qulay bo‘lishi kerak:

3. Treningni muvaffaqiyatli o‘tkazish trenerdan katta ruhiy, intelektual tashkiliy jixatidan katta kuch sarflashni, bioquvvatni talab qiladi:

4. Trening o‘zaro ishtirokchilarni bir-biriga ishongan xolda o‘zaro samarali ta’sir etish muxitida o‘tkaziladi:

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan talabalarga rioya qilmasdan turib, aslo o‘ynovchi guruh hosil qilib bo‘lmaydi. Va bunga trening ijobiy ta’sir ko‘rsata olmaydi ham.

Mashg‘ulotni katta, keng yaxshi shamollatish imkoniyatiga ega bo‘lgan shinam xonada o‘tkazish lozim. Xonada ishtirokchilar soniga teng miqdorda stullar bo‘lishi kerak. Mashg‘ulotda qulay, rohat baxsh etadigan, ko‘ngil (dil) ochadigan osoyishta, sokin sharoit yaratilgani yaxshi |ayniqsa, dastlabki, mashg‘ulotlarni o‘tkazishda|, yarim qorong‘ulik, muloyim |yaxshisi lirik va minor ovozli| musiqa, derazalarga nozik, nafis darpardalar tutilgani ma’qul va hkazo.

Har bir ishtirokchi o‘zining o‘yinga va o‘yin yuzasidan improzatsiya qilishga |tayyorgarliksiz bajarishga| tayyorlashi ruhiy jihatdan tayyorlamog‘i darkor.

Trening bu- inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib «mashq qilmoq” degan ma’noni bildiradi. Trening guruxlardan muloqotning madaniy obro‘li bo‘lishni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan psixologik ishlarning faol usuli, ya’ni gurux-gurux bo‘lib munozara, baxs, rolli o‘yin va boshqa o‘yinlarni o‘tkazishga aytiladi.

Trening o‘tkazuvchi uchun shart bo‘lgan ishlar.

1. Muxokama tashkil qilish, ishchi guruxi uchun qoidalar ishlab chiqish va har bir mashg‘ulotda trener treningning maqsadi vazifasini batafsil tushuntirish.

2. Navbatdagi mashg‘ulot instruksiyasini berish.

3. Qatnashuvchilar savollariga javob berish va ular bajarayotgan ishni nazorat qilish.

4. Ssenariy mazmunini trening maqsadi asosida taxlil etish.

5. Trening haqida qatnashuvchilar bilan fikr almashish.

6. Qatnashuvchilar ematsional holatini nazorat qilish va ularga psixologogik yordam berish.

7. Har bir mashg‘ulotda yakun yasash va uyga vazifa berish.

8. Mashg‘ulot oxirida siz xaqingizda qatnashuvchilar o‘z fikrini bayon qilishlariga imkon berish.

Trening o‘tkazish davomida uning qatnashchilarini shaxsiy muloqot usullarini va o‘zining boshqalarga nisbatan pozitsiyasini yaqqol anglash protsessini rag‘batlantirish kerak.

Trening mashg‘ulotlari do‘stona, samimiy va ixtiyoriy tarzda o‘tkaziladi. Trening o‘tkazishdagi shartlar buyicha ma’lum qoidaga rioya qilinmasa, u ijobiy natija bermaydi.

Psixologik trening o‘tkazishning umumiy qoidalari.

1)Barcha qatnashchilar doira bo‘lib o‘tirishlari kerak:

2)Qatnashchilar soni 15 tadan ortmasligi shart.

3)Psixolog qatnashchilar bilan birga trening barcha topshiriklarini bajarishi shart.

4)Qatnashchilarning har biri hamma mashg‘ulotlarda qatnashishi lozim.

5)Treningni boshqaruvchi mashg‘ulotlarini maxorat bilan boshqarish kerak ya’ni kishining mijozning shaxsiyatiga tegadigan, uyaltiradigan vaziyatlardan kochish va har bir mijozning fikrini ma’qullash va uni rag‘batlantirib turishi kerak.

6)Boshqaruvchi qo‘yilgan muammolarini qatnashuvchilarning o‘zlari xal qilishlari uchun qulay sharoit yaratishi kerak.

7)Mashg‘ulot davomida qatnashchilarda o‘z taassurotlarini yozib borishi uchun kundalik tutishga ruxsat etiladi.

8)Har bir qatnashchi albatta har bir mashq davomida fikrlarini bildirishi lozim.

9)Hamda boshqalarni diqqat –e’tibor bilan tinglashi kerak.

10)Hamma vaqt qatnashchilar ro‘y-rost, samimiy va ichidagi gapni gapirishi shart.

Treningni muvaffiqiyatli o‘tkazish uchun va uning sermaxsulligi boshqaruvchi bilan qatnashchilar o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunish darajasida bog‘lik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dyui Dj. “Psixologiya i pedagogika mыshleniya”. M., Progress, 1998.

2. Karnegi D. “Kak zavoevat druzey i okazыvat na nix vliyanie”. M., Progress, 1990.

MAKTABDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING USLUBLARI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G’oyibnazarova Zohida Egamberdiyevna

Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani 49-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda ta’lim jarayonlarini boshqarish uslublari va uning axamiyati haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Maktab, uzluksiz ta’lim, ta’lim jarayoni, o’qituvchilar faoliyati, boshqaruv uslublari, liberal, demokratik, avtoritar, mas’uliyat.

Bugungi kunda ta'lim tizimida pedagogik jarayonlami tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vazifalami amalga oshirish, ya'ni ta'lim tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlash pedagogik jarayonlar ishtirokchilari hisoblangan ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va boshqa mutaxassis xodimlaming faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruriyatini belgilaydi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolami bartaraf etishning eng asosiy omillaridan bin bo'lgan pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashda mazkur jarayon ishtirokchilarining ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi jarayonlar hisoblangan ta'lim, mustaqil ta'lim, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda pedagog xodimlar tomonidan bajariladigan ishlaming mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra boshqaruvning rejalashtirish va tashkil etish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: - pedagogik jarayonlarni rejalashtirish; 19 - subyektlar (ta'lim oluvchilar) uchun zaruriy shartsharoitlami yaratish va ulaming

imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar taqsimlash; - subyektlar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag'batlantirish. Shuningdek, pedagog xodimlar tomonidan pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlami muvofiqlashtirish, ulaming manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash va ta'lim olishga qiziqishini shakllantirishda motivlashtiiish funksiyasi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda amalga oshiriladigan funksiyalami shartli ravishda professional va ijtimoiypsixologik funksiyalarga ajratish mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlami tashkil etish va boshqarish jarayonida subyektlarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki rag'batlantirish har bir ishtirokchi uchun talablar belgilash bilan birgalikda zamonaviy talablar darajasida ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda odatda, pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini takomillashtirish, innovatsion jarayonlami kuchaytirish, ya'ni subyektlarning innovatsion faoliyatlarini tashkil etish, pedagogik jarayon subyektlarining ijodiy faolliklarini rivojlantirishda rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Demak, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlami tashkil etish va boshqarishda pedagog xodimlar tomonidan ta'lim oluvchilarda ta'lim olishga qiziqishlar shakllantirish, berilgan topshiriqlami o'z vaqtida va samarali bajarishlariga undash, pedagogik jarayonlarda ulaming faolligini ta'minlash yo'nalishlarida rahbarlik uslublarining turli jihatlaridan foydalanishlarini kuzatish mumkin. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda pedagog xodimlar tomonidan qo'llaniladigan uslublarni quyidagi omillarga asosan aniqlash mumkin: - pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilaming mustaqil va erkin fikrlashi, o'z fikri, g'oya va tushunchalarini erkin ifodalashi hamda vaziyatlarga ko'ra ularning faol ishtirok etish darajasi; - ta'lim oluvchilaming ilmiy-metodik mahsulotlar, topshiriqlami bajarish yo'nalishidagi ko'rsatmalar hamda eng yangi, ilmiy asoslangan ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlanishi; - pedagogik jarayonlarda barcha uchun qulay ta'limiy muhitni shakllanishi, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarini vujudga kelishi; -

o'qituvchilar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llanilayotgan uslublar, ya'ni ta'lim oluvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarda ulaming o'ziga xos yondashuvi. Rahbarlik uslublarini tasniflashda aksariyat mutaxassislar mazkur jarayonning bosh mezoni va tashkiliy tamoyili sifatida yakkaboshchilik bilan kollegiallik nisbatining ustuvorligiga e'tibor berishadi. Shundan kelib chiqib, rahbarlik uslublarining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

1. Avtoritar uslubda o'qituvchilar o'z irodasini ta'lioluvchilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, jazolash va boshqa choratadbirlardan foydalanadi. Bu uslub bevosita buyruq va ko'rsatmalar berishga asoslanib/ ta'lim oluvchilami so'zsiz bo'ysunishini nazarda tutadi, ya'ni pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilar erkinligi cheklanadi hamda faqat o'qituvchilar uzluksiz pedagogik jarayonning yagona subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilaming bevosita va erkin muloqotda bo'lishi chegaralab qo'yiladi. Bunday vaziyatda ta'lim oluvchilaming pedagogik jarayonga munosabatlari, ulaming ehtiyojlari va manfaatlari e'tiborga olirimaydi. Bu "ajratib tashla va hukmronlik qil" tamoyiliga asoslangan shafqatsizlarcha uslubdir. Bunday uslub garchi bir-muncha samarali bo'Isa ham, aslida, pedagogik jarayonlarda muxoliflik, norozilik kayfiyatini shakllantiradi. Bunday uslub ta'sirida ta'lim oluvchilar o'z o'quv faoliyatidan qoniqmaydi, uning natijalariga qiziqmaydi va bular o'z navbatida pedagogik jarayonning samaradorligini pasayishiga sabab bo'ladi. Bunda mazkur uslubning turli xil shakli va usullari vujudga keladi:

2. Liberal (erkin ish yuritish) rahbarlik uslubo'qituvchilaming ta'lim oluvchilarga topshiriq va maslahatlami tavciyalar ko'rinishida berishi, ta'lim oluvchilaming ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchilar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ulaming harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi. O'z zimmasiga ma'suliyat olishni yoqtirmaydi, kelishuvchanlik asosida faoliyat ko'rsatadi, ya'ni ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlami buzmaslik uchun ulaming barcha talablarini bajaradi. Bu o'z o'mida pedagogik jarayonlarda tartibsizlik vujudga kelishiga, ta'lim oluvchilaming

xatti-harakati va o'quv faoliyati yo'nalishidagi nazoratning sustlashiga, ulaming muayyan fanga bo'lgan qiziqishlarining yo'qolishiga olib keladi, shuningdek boshqa pedagogik jarayonlarda ham ta'lim oluvchilar faolligining susayishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu boshqamv uslubining quyidagi usul va shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin: kommunikatsion raoyillik - bunda o'qituvchUar ta'lim oluvchilarga turli xil savollami berishi, o'z fikrlarini bildirishi uchun imkoniyatlar beradi, bu boshqaruvning maslahatli usuli bo'lib, ta'lim oluvchilar tomonidan berilgan takliflar, ulaming fLkrlari, ular tomonidan bajarilgan topshiriqlarning natijalari o'rganib chiqilishi sababli berilayotgan topshiriqlar ular tomonidan o'z vaqtida bajariladi; - hamkorlikda qabul qilingan qarorlar asosida boshqaruv - pedagogik jarayonlarda muammoli vaziyatlami vujudga keltirish usullaridan keng foydalaniladi hamda o'qituvchilar muammoning yechimini topish uchun barcha ta'lim oluvchilami jalb etadi va bunda muammoni yechish tartibini o'zi belgilaydi, shuningdek, o'zining barcha huquqlari va vakolatlarini saqlab qolgan holda ta'lim oluvchilar tomonidan muammoning yechimi bo'yicha qaror qabul qilinishiga ruxsat beradi.

3. Demokratik uslubda o'qituvchilar pedagogikjarayonning yagona subyekti sifatida faoliyat ko'rsatmaydi, ular o'z faohyatini ta'lim oluvchilarga tayangan holda va ulaming fikrini inobatga olish asosida, ya'ni pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilaming mustaqil va erkin fikrlashi, o'z qobiliyatlarini erkin namoyish etishlari, fikrlarini erkin bildirishlari uchun zamriy shart-sharoitlar yaratish orqali ulaming faolligini ta'minlashga yo'naltiradi. Pedagogik jarayonlarda subyekt-subyekt (o'qituvchi va ta'lim oluvchi) munosabatlari shakllantirish asosida barcha uchun qulay ta'limiy muhitni vujudga keltiriladi. Mazkur uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar ta'lim oluvchilaming o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda ulaming bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda vaziyatlarga ko'ra boshqaruv uslublaridan oqilona foydalanishda o'qituvchilar 30 bilan ta'lim oluvchilarda bir-biriga nisbatan ishonch, o'zaro tushunish, do'stona munosabat hamda barcha uchun

qulay ta'limiy muhit vujudga keladi. O'qituvchi o'zini pedagogik jarayonning bir ishtirokchisi sifatida tutadi, uning oldida har bir ta'lim oluvchi o'zini erkin his qiladi va mustaqil va erkin fikrlaydi hamda vujudga kelgan tashabbus, g'oya va fikrlarini bemalol ifodalaydi. Bunday uslubdan foydalanuvchi o'qituvchilar pedagogik jarayonlardagi tashabbuskorlikni rag'batlantiradi, barcha ta'lim oluvchilar bilan teng va samimiy munosabatda bo'ladi, o'z mavqei ustunligini bildirmaydi, hamkorlik uchun qulay vaziyatni yaratadi, ta'lim oluvchilarga erkin ishtirok etish imkonini beradi, ular tomonidan bildirilgan fikrlarga to'g'ri munosabatda bo'ladi hamda turli xil vaziyatlarni inobatga olgan holda unga mos yondashuvlami amalga oshiradi. Shuning uchun ham pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchilaming muhim ahamiyat kasb etuvchi sifatlaridan bin turli xil uslublardan foydalana olishi, ya'ni vujudga kelayotgan turli vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalana olish ko'nikmasining shakllanganligi hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar u yoki bu rahbarlik uslubini tanlashda quyidagi qator omillami hisobga olishi zarur: - vaziyat (stress, tinch aniqlanmagan). Masalan, vaqt zvaziyatlarda avtoritar uslub o'zini oqlaydi; topshiriq (murakkabligiga ko'ra). Murakkab topshiriqlami ta'lim oluvchilarga berishda ularning imkoniyatlari, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalarini inobatga olish, topshiriqlaming mazmun-mohiyati, ahamiyati va bajarilish yo'nalishiga ko'ra davra suhbatlari tashkil etish hamda topshiriqlami ta'lim oluvchilar tomonidan tanlab olinishiga imkoniyatlar yaratilishi kerak. Bunday 31 vaziyatlarda demokratik (kollegial) uslubdan foydalanish o'ziga xos ahamiyatga ega. - guruh (uning a'zolarining jinsi, yoshi, qobiliyati vimkoniyatlari). Topshiriqlaming bajarilishiga qiziquvchi, o'zaro inoq (topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashuvni tatbiq etish imkoniyatlariga ega, izlanuvchan) guruhlar uchun demokratik yoki liberal uslubni tanlash maqsadga muvofiq. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlami tashkil etish va boshqarishda rahbarlik uslublaridan foydalanish ko'p darajali asoslami qamrab oluvchi vaziyatlarga ko'ra o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bo'ladi. Mazkur xususiyatlar uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarda vujudga keluvchi tez o'zgamvchan vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublarini o'zgartirib borish, pedagogik

jarayon subyektlari faolligi, bilim, ko'nikma va malakalari darajasi hamda ehtiyojlarining rivojlanishi, shaxsiy manfaatlar bilan umumiy manfaatlaming uyg'unlashuvi va boshqa sabablar orqali ifodalanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlami ilmiy asoslarda samarali tashkil etish va boshqarish, belgilangan maqsadlarga erishish subyektlaming birgalikdagi samarali faoliyati, ya'ni hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishni hamda hamkorlikdagi faoliyatni ma'lum bir izchillikda muvofiqlashtirish asosida takomillashtirishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.T. Turg’unov. L.A. Maqsudova. Va boshqalar: “Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari” Toshkent-2014

2. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5 4. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. (2020).

3. Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India. 5

4. Maktab va hayot jurnali. 2-son 2009-yil.

QIZAMIQ KASALLIGI

O’taboyeva Zamira Rasuljonovna

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomli jamoat salomatligi texnikumi o’qituvchisi

Annotatsiya: Qizamiq —tana haroratining ko‘tarilishi, yuqori nafas yo‘llari, ko‘z shilliq pardasi, og‘iz bo‘shlig‘ining yallig‘lanishi va terida qizil, yirik dog‘li toshmalar toshishi orqali kechadigan kasallik.

Kalit so’z: Filatov-Koplikov dog'lari,tipik qizamiq,atipik qizamiq,kataral, intoksikatsiya, sklerodermiya, skleroz, rekonvalesensiya, gemorragik xarakterli toshmalar, ekzantema.

Qizamiq-bu o'tkir yuqumli virusli kasallik bo'lib, u tana haroratining ko'tarilishi, ko'p miqdorda toshma va shamollash alomatlari bilan namoyon bo'ladi.

Etiologiyasi va patogenezi. Qizamiq Morbillivirus turiga RNK-virusni keltirib chiqaradi. Tashqi muhitda u beqaror-to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ta'sirida, 50°C gacha qizdirilganda, quritilganda yo'q bo’ladi. Xona haroratida virus 1-2 kun davomida yashaydi.Qizamiq virusining manbai kasallangan odamdir. U inkubatsiya davrining 1-2 kunida (toshmalarning 4 kunigacha) atrofdagi odamlarga yuqtirishni boshlaydi. Ba'zi hollarda yuqumli kasallik ekzantema paydo bo'lgan paytdan boshlab 10 kunga cho’ziladi.

Yuqish yo’li: Qizamiq havo tomchilari orqali yuqadi (aerozol mexanizmi). Infektsiyalangan odam aksirish, yo'talish, suhbat paytida atrof-muhitga o'tkir infektsiyaning qo'zg'atuvchisini tarqatadi. Havo oqimi bilan xona bo'ylab nozik dispers suspenziya tarqaladi. Agar homilador ayol kasallikka chalingan bo'lsa, uni homilaga yuqtirishi mumkin (transplasentar yuqish yo'li). Hamma odamlar qizamiqqa moyil. Uni boshdan o’tkazgandan so'ng, umrbod immunitet rivojlanadi. Ko'pincha patologiya bolalikda paydo bo'ladi. Kattalar kamdan-kam hollarda qizamiq bilan og'riydilar va bolalarga qaraganda yengilroq o’tkazadilar.Kasallik qish va bahorda avj oladi. Avgust va sentyabr oylarida infektsiya juda kam uchraydi.

Simptomatikasi. Morbillivirus oilasining RNK-virusi tanaga kirib, yuqori nafas yo'llarining shilliq pardalarini chetlab o'tadi. U epiteliya hujayralarida ko'payadi va qon oqimi bilan tarqaladi. Qizamiq konyunktivaga, teri, og'iz va nafas yo'llarining shilliq pardalariga eng kuchli ta'sirni ko’rsatadi. Ba'zida u miyaga ta'sir qiladi, u holatda qizamiq ensefaliti rivojlanadi. Qizamiq virusidan ta'sirlangan shilliq nafas olish tizimining epiteliyasi nekrozga uchrashi mumkin. Natijada bakterial infeksiya qo'shilishi xavfi ortadi.Kasallikning qo'zg'atuvchisi inson tanasida juda uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin, bu jiddiy tizimli kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladi – qizil tizimli Lupus, sklerodermiya, skleroz rivojlanadi.

Qizamiqning inkubatsiya davri 1-2 haftagacha. Agar bemorga immunoglobulin yuborilgan bo'lsa, u 3-4 haftagacha cho'zilishi mumkin. Qizamiqning tipik shakli uchta ketma-ket bosqichni chetlab otadi:

1. Kataral. Bu tana haroratining keskin ko'tarilishi, aniq umumiy intoksikatsiya belgilari bilan boshlanadi. Bemor kuchli bosh og'rig'ini boshdan kechiradi, uyqusizlik va zaiflikdan aziyat chekadi. Intoksikatsiya alomatlariga quruq yo'tal qo'shiladi. Konyunktivit kuzatilishi mumkin (ko'z qovoqlari juda shishib ketadi). Auskultatsiya paytida (o'pkani tinglash) shifokor quruq xirillash va qattiq nafas olishni qayd etadi. Ba'zi hollarda tipik qizamiqning kataral davri qusish, ko'ngil aynish, kekirish, jig’ildon qaynashi, diareya bilan o’tadi. Isitmaning birinchi to'lqini 3-4 kundan oshmaydi. Keyin harorat normal qiymatlarga tushadi, ammo keyingi kun yana ko'tariladi. Intoksikatsiya belgilari keskin kuchayadi, kataral hodisalar yanada aniqroq bo'ladi. Agar qizamiqning fotosuratiga qarasangiz, bu giperemik shilliq qavat bilan o'ralgan kichik oq dog’lar ekanligi aniq bo'ladi. Terida toshma paydo bo'lganda dog'lar yo'qoladi. Ularga parallel ravishda, qoida

2. Toshmalar. Qizamiq toshmasi-yorqin qizil-jigarrang rangning dog'li-papulez ekzantemasi. Gemorragik xarakterga ega bo'lishi mumkin. U avval quloqlarning orqasida va boshida hosil bo'ladi, so'ngra bo'yin va yuzga o'tadi. Birinchi dog'lar paydo bo'lganidan bir kun o'tgach, u allaqachon butun tanani, elkalarni qamrab oladi. Keyin u oyoq-qo'llarga tarqaladi va shu bilan birga yuzida asta-sekin oqarib keta boshlaydi. Teri toshmalari davrida intoksikatsiya yana bir bor kuchayadi, harorat

ko'tariladi, kataral alomatlar yanada aniqroq bo'ladi. Kasallikning bu bosqichi taxminan 2-3 kun davom etadi.

3. Rekonvalesensiya (qizamiq paydo bo'lganidan 7-10 kun o'tgach boshlanadi). Kasallik belgilari yo'qoladi, harorat normallashadi, toshma oqarib ketadi. Toshmalardan so'ng, terida ochiq jigarrang joylar qoladi, ular 5-7 kun ichida so’rilib ketadi.

Profilaktikasi va davosi. Qizamiq bilan kasallangan bemorlar kasalxonaga yotqiziladi, ammo aksariyat hollarda ambulator sharoitida davolanish yetarli. Isitma davrida yotish qattiy buyuriladi. Umuman olganda, qizamiqni davolash asoratlarni rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik va simptomlarni engillashtirishga qaratilgan. Bugungi kunda samarali etiotropik terapiya mavjud emas.Tanadan toksinlarni olib tashlashni tezlashtirish uchun ko'p miqdorda suyuqlik ichish kerak. Shuningdek, bemorlarga yorqin nurdan saqlanish, ko'z va og'iz gigienasini diqqat bilan kuzatib borish tavsiya etiladi. Issiqni tushuruvchi vositalar va antigistaminlar, adaptogenlar, vitaminlar va interferon simptomatik va patogenetik davolash usullari sifatida ishlatilishi mumkin.

Qizamiq uchun parhez

Shifokorlar qizamiq uchun taqiqlangan mahsulotlar:barcha yog'li va achchiq ovqatlar,qattiq go'sht,ziravorlar (xantal, murch va qizil qalampir).

Profilaktikasi: Aholining ko'p qismini qizamiq virusini yuqtirishdan saqlaydigan o'ziga xos profilaktika muntazam emlashdan iborat. Qizamiqqa qarshi birinchi emlash bolaning 12-15 oyligida amalga oshiriladi. Kuchaytiruvchi emlash 6 yoshda amalga oshiriladi.

QQP vaktsinasi (qizamiq, qizilcha, parotit) shifokorlar tomonidan 50 yildan ortiq vaqtdan beri qo'llanilib kelinmoqda. Bugungi kunda uning xavfsizligi va samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Bolaga preparatni yuborish natijasida asoratlarni rivojlanish xavfi nolga yaqin. Ommaviy emlash tufayli shifokorlar qizamiqni xavfli patologiyadan oddiy infektsiyaga aylantirishga muvaffaq bo'lishd

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.I.Musaboev, A.Q.Bayjanov “Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va parazitologiya”. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil

2. M.D. Axmedova “Yuqumli kasalliklar” Toshkent-2012.

РЕБЕНОК — ДОШКОЛЬНИК КАК ОБЪЕКТ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ И СУБЪЕКТ ВОСПИТАНИЯ

Мамаджанова Хушруй Шавкатовна
преподаватель Коканского государственного педагогического института
Комилова Ферузахон, Мадалиева Динорахон
студенты Коканского государственного педагогического института

Аннотация: В статье представлены вопросы воспитания и образования детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: инновационные технологии, развитие общения, межличностные отношения,адаптация.

A CHILD IS A PRESCHOOLER AS AN OBJECT OF SCIENTIFIC RESEARCH AND A SUBJECT OF EDUCATION

Mamadjanova Xushruy Shavkatovna
teacher of the Kokan State Pedagogical Institute
Komilova Feruzaxon, Madaliyeva Dinoraxon
is a student at the Kokan State Pedagogical Institute

Abstract: The article presents issues of upbringing and education of preschool children.

Key words: Education, development of communication, interpersonal relationships, pedagogy, psychology, child’s body.

Период детства, согласно возрастной периодизации Д.Б.Эльконина, характеризуется сменой ведущих типов деятельности. Для младенческого возраста (первый год жизни) ведущей деятельностью является непосредственно эмоциональное или ситуативно-личностное общение, внутри которого

формируются предметные действия ребенка.В раннем возрасте (от 1 года до 3 лет) на первое место выходит предметно — манипулятивная деятельность, в которой происходит активное овладение предметными и орудийными действиями в сотрудничестве со взрослыми.Таким образом, развитие ребенка (до 18 лет) нужно рассматривать как процесс стадиальный, состоящий из качественно своеобразных этапов или периодов.Возраст (или период) Д.Б.Эльконин определял как относительно замкнутый период, значение которого определяется прежде всего местом на общей линии детского развития. В связи с этим, дошкольный период необходимо рассматривать по следующим главным показателям:

• Определение социальной ситуации развития

• Ведущим типом деятельности

• Основными психическими новообразованиями, приобретенными на данном этапе развития.

Переходы между периодами называются кризисами возрастного развития. На период дошкольного детства влияют кризисы 3-х и 7 лет, которые характеризуются яркими и быстрыми изменениями в поведении и психике ребенка.

Каждый период разделим, в свою очередь еще на несколько этапов. В образовательных программах нового поколения дается различная этапность. Задачей педагога является учет возрастных закономерностей и особенностей дошкольника при организации жизнедеятельности детей в условиях ДОУ.Психолого-педагогический портрет дошкольника представлен в работах Л.С.Выготского, А.Н.Леонтьева, С.Л.Рубинштейна, Д.Б.Эльконина, А.В.Запорожца. Л.А.Венгера, В.С.Мухиной, М.И.Лисиной, Л.А.Парамоновой, О Т.А.Куликовой, С.А.Куловой, Р.С.Буре, Т.А.Репиной и др.

Общая характеристика возрастных особенностей заключается в следующем:

-Ребенок — дошкольник, как личность, находится в стадии становления, складывания, созревания и развития. Ни одна сторона психики не носит завершенного характера;

-Самоценность периода определяется наличием субкультуры детства, ролевой игры как ведущей деятельности ребенка;

-Это период начальной специализации ребенка, приобщения его к миру культуры, общечеловеческих ценностей, норм и правил, определяющих установление начальных отношений с ведущими сферами познания — миром людей, миром предметов, миром природы и собственным внутренним миром;

Ребенок в этот период может учиться по определенной программе, т.е. обладает обучаемостью, но лишь в той мере, в какой она является его «собственной программой» (Л.С.Выготский), т.е. отвечать его интересам и потребностям;

- Неповторимые особенности физического, социального, психического развития проявляется в своеобразии способов форм познания и деятельности дошкольника;

- Высшая эмоциональная насыщенность всех сфер жизнедеятельности ребенка, его непосредственности, оптимизм создает условия для эмоционально — практического познания мира и самого себя;

- Зависимость от взрослого, потребности в общении с ним, сопричастность к миру взрослых;

- Важнейшими психическими новообразованиями дошкольника является произвольность поведения и деятельности, способность к самоконтролю, логическому мышлению, складывание личного самосознания ребенка, формируется готовность к систематическому обучению в школе.

Список использованной литературы:

1. Взаимодействие искусств в педагогическом процессе/ Под ред.В.С.Клюева, Н.А. Яковлева.- М., 1989.

2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте.- М., 19914.

3. кизи Арипова, Дилнозахон Вахобжон. "Трактовка естествознания в древних рукописях: зачатки естествознания в «авесте»: трактовка естествознания в древних рукописях: зачатки естествознания в «авесте»." Ilm fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo'llanilishi 3.6 (2023): 93-96.

4. Муртозакулова, Ойнигор, and Дилнозахон Арипова. "Основные понятия лингвокультурологии как теоретическая основа исследования." Международная конференция академических наук. Vol. 2. No. 12. 2023.

5. кизи Арипова, Дилнозахон Вахобжон, Мубина Зафарова, and Шахло Абдусалимова. "Роль языка в обществе. Русский язык в современном мире." zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o ‘rni 2.6 (2023): 14-17.

6. кизи Арипова, Дилнозахон Вахобжон, Муштарийбону Тошматова, and Райхона Мамажонова. "ВЗАИМОСВЯЗЬ ТЕОРИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ПОЛЯ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ." ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O ‘RNI 2.6 (2023): 10-13.

7.кизи Арипова, Дилнозахон Вахобжон, and Дилсуз Бахромова. "Лексико-семантическое поле «семья» в русской языковой картине мира." zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o ‘rni 2.6 (2023): 5-9.

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING DASTLABKI BOSQICHLARI

Iloviddinov Ilyosbek Rasuljon o’g’li

Mudofaa vazirligi 33171harbiy qism harbiy xizmatchisi harbiy psixolog

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik- psixologik usul va vositalari keltirilgan.

Kalit so’zlar: vatanparvarlik, vatanni sevish, ardoqlash, tarbiya, tarixni anglash, faxr, iftixor, tarix, qadryatlar.

Yangi O’zbekistonda eng avvalo oila tarbiyasida hamda maktabgacha va maktab ta’lim muassasalarida bolalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari keng ko’lamda tashkil qilish yo’lga qo’yilmoqda. Yosh avlodda vatanni sevish uni ardoqlash kabi tuyg’ularni shakllantirishda uning psixikasiga ta’sir etish muhim hisoblanadi. Hozirgi zamon yoshlarida vatanparvarlik hissi kamayib ketmoqda. Bu juda achinarli holatdir. Chunki har qanday davlatga jismonan sog‘lom, baquvvat, mard, intizomli, tashabbuskor fuqarolar kerak. Yoshlarni tarbiyalashning eng muhim elementi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'lishi kerak, chunki busiz shaxsning barkamol va har tomonlama rivojlanishi mumkin emas. Shu bois farzandlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish zarur. Yosh avlodda tuyg‘ularni shakllantirishga bag‘ishlangan tadbirlarda bolalar insonparvarlik, odob-axloq, o‘z-o‘zini hurmat qilish kabi tushunchalar bilan tanishadi. Bundan tashqari, bolalar o'z vatanining siyosiy tizimini, davlat institutlarining tuzilishini va shunga o'xshash tushunchalarni eng avvalo oilada kichik maktab yoshidan MTT larda va maktablarda o'rgananib asl mazmun mohiyatini anglab yetmog’i lozim.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish quyidagi tadbirlarda natijasi seziladi: turli muzey va ekskursiyalarni sayohat qilish, faxriylar bilan uchrashish, shuningdek, G‘alaba kunini nishonlash bilan bog‘liq turli tadbirlar,

masalan, harbiy-vatanparvarlik qo‘shiqlari tinglash. Harbiy-sport jamoaviy o'yinlarini o’ynatish. Maktab yoshidagi farzandlarimizni chaqiruvdan oldingi tayyorgarlik asoslari, qurolli kuchlarning turli bo'linmalari, ularning har birida xizmat qilish xususiyatlari va boshqalar bilan tanishtirish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadi. albatta, vatanparvarlik tuyg‘ularini, Vatanga sadoqatni shakllantirishda yotadi. Shu bilan birga, ushbu tadbirlarning o'g'il bolalarni armiyadagi bo'lajak xizmatga tayyorlash, shuningdek, qizlar va o'g'il bolalarning chidamliligi va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish kabi vazifalarni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bolalarda o‘z yurti, vatandoshi bilan faxrlanish, o‘z davlati tarixiga hurmat hissini uyg‘otadi. Nihoyat, bunday tadbirlar jamiyatning yosh a’zolarida faol fuqarolik pozitsiyasi va o‘z so‘ziga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish, qilmishiga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jamiyat hayoti bugungi kunda yangi avlodni tarbiyalash sohasida eng jiddiy vazifalarni qo‘ymoqda. Davlatga sog‘lom, mard, tashabbuskor, intizomli, savodli, o‘qishga, uning manfaati uchun mehnat qilishga, kerak bo‘lsa, uni himoya qilishga tayyor bo‘ladigan odamlar kerak. Maktabning asosiy vazifalaridan biri kelajak avlod tarbiyasi. Tarbiya jarayonining eng muhim tarkibiy qismi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishdir. Ushbu komponent mavjud bo'lmasa, chinakam barkamol shaxsni tarbiyalash haqida gapirish mumkin emas. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki aynan shu narsa mamlakatimizning mahoratli va kuchli himoyachilarni tayyorlashga salmoqli, ayrim hollarda esa hal qiluvchi hissa qo‘shishi kerak. Vatan yosh avlod bilan ishlashning konsepsiyasi va shakli sifatida har birimiz o‘z ildizimizni, Vatanimiz taqdirini bilishimiz, zamondoshlarimiz ajdodlari buyuk ishlari bilan faxrlanishimiz, sodir bo‘layotgan voqealar uchun tarixiy mas’uliyatni anglashimiz kerak. Jamiyat va davlat, an’analar bo‘yicha tarbiya vatanparvarlik tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq va uzviy bog‘liqdir. Yosh yigitning ajralmas fazilatlarini tashkil etuvchi mardlik, harbiy burchga sadoqat, chidamlilik, o‘zaro

yordam, mehnatsevarlik, fidoyilikka shaylik kabi an’analar avloddan-avlodga o‘tib, mustahkamlanib, ko‘payib bordi. Yoshlarni qahramonlik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga tayyorlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Ta'lim insonning eng muhim ehtiyojlaridan birini qondiradi va kelajakda moddiy ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladigan ijtimoiy sarmoyadir. Bu kelajak avlodlar mas’uliyatini oshirish bilan birga, bugungi avlodimizning turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifasi ayniqsa dolzarbdir. Ularning nasl-nasabini, ona yurti, yurti tarixini o‘rganish, nafaqat o‘z Vatanini sevadigan, balki siyosiy madaniyatli, tanqidiy fikrlaydigan fuqaroni tarbiyalash bilan ham o‘qituvchilar bo‘lmasa, kim bilan shug‘ullanishi kerak. uning bolalari. Vatanga buyuk ajdodlarimiz xotirasiga munosib hissa qo‘shishga qodir insonlar kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Ochilova “Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorislik” Toshkent:. Istiqbol 2009
2. Mahkamov U.I. “Oquvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muommolari” Toshkent:. Fan-1995
3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so’z, 2010. - 97 b

O’QUVCHILAR INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING SHAKLLANISHIDA OILANING ROLI

Ermatova Munojat

Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani 18-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarning xarakterini shakllantirishda oila, maktabgacha ta‘lim muasassalari, kasb-hunar maktablarining roli va ahamiyati haqida. Temperament turlari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.

Kalit so’zlar: temperament, xarakter, oila, shaxsiy fazilatlar, tarbiya.

Xarakterning o’sishida tarbiya va o’z-o’zini tarbiyalash asosiy rol o’ynaydi. O’sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta mas’uliyatli vazifa ota-onalar, o’qituvchilar, maktabgacha ta‘lim muasassalar tarbiyachilari, kasb-xunar maktablari xodimlari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalash shundan iboratki, tarbiyachi maktab o’quvchisiga namuna bo’lishi mumkin bo’lgan kishilarni bolaga, o’quvchiga ataylab ibrat qilib ko’rsatadi; shu kishining qilayotgan ishlari, xatti-harakatlariga tarbiyalanuvchi e’tiborini jalb etadi va bu ish xatti-harakatlarning qaysi biri yaxshi, ijobiy, qaysi biri salbiy, yomon ekanligini aytadi. Pedagog bolalarda xarakterni tarbiyalayotganida ularda tarbiyalanadigan temperamentni bilishi, har bir temperamentning ijobiy va salbiy tomonlarini bilishi zarur. Agar temperament va uning tug’ma hususiyatlari o’z xolicha qolaversa, odamda yomon xarakter xislatlari tarkib topishi mumkin. Masalan, xolerik temperament odamni cho’rtkesar, qo’pol, o’zini tuta olmaydigan qilishi mumkin. Sangvinik temperament sabotsizlikka, diqqatni bir joyga qo’ya bilmaslikka sababchi bo’lmog’i mumkin bo’lganidek, flegmatik temperament sustkashlikka, loqaydlikka olib borishi mumkin.

Melanxolik temperamentli kishida o’z kechinmalariga ortiqcha berilishlik, pismiqlik paydo bilishi mumkin. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o’stirishdan, uning salbiy tomonlarini va bu salbiy tomonlarni

xarakterning ijobiy xislatlari bilan «almashtirishdan» iboratdir. Masalan, xolerik temperamentli bolalarni tarbiyalashda ularni o’ylab ish qilish, o’zini tuta bilish, atrofdagi odamlar bilan yaxshi muomalada bo’lishga odatlantirish va ularda shu sifatlarni o’stirishga alohida e’tibor berish lozim. Sangvinik temperamentli bolalarni sabotli bo’lishga, diqqatini bir joyga qo’ya bilishga, ishga qunt qo’ya olishga, boshlagan ishni oxiriga yetkazishga odatlantirmoq kerak. Melanxolik temperamentli bolalarni odamga ko’proq aralashishga, jamoachilikka, ildam harakat qilishga odatlantirmoq, ularda shu sifatlarni tarbiyalamoq kerak. Flegmatik temperamentli bolalarni tashabbuskorlikka, faollikka, kishilarga el bo’lishga, quvnoqlikka odatlantirmoq lozim.

Xarakterning salbiy tomonlarini yo’qotmoq uchun, ijobiy tomonlarini tarbiyalab yetkazmoq uchun tarbiyalanuvchini o’z temperamentini o’zi idora qila bilishga o’rgatish lozim, uni shunday tarbiyalash kerakki, u temperamentini o’zi idora qilish zaruriyatini o’zi anglasin va haqiqatan uni idora qila olsin, temperamentiga bo’ysunmaydigan bo’lsin. Xarakter tarbiyasini faqat temperamentning salbiy tomonlarini ayrim ijobiy sifatlari bilan almashtirishdan iborat deb tushunish yaramaydi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog, avvalo muayyan idealni yoki davrimizning olijanob kishilari obrazini asos qilib olmog’i lozim.

Bu ma’naviy boylikni, ahloqiy soflikni va jismoniy kamolotni o’zida garmonik holda mujassamlashtirgan yangi odamlardir. Bunday yangi odam xarakterining xislati ijtimoiy va shaxsiy hayotda halollik va rostgo’ylik, ahloqiy poklik, oddiylik va kamtarlikdir. Bizga yuksak ma’naviy fazilatiga ega bo’lgan, halol vijdonli kishilar, tetik va xushchaqchaq kishilar, qiyinchiliklardan qo’rqmaydigan, mustaqil jamiyat qurish yo’lida har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan, ularni bartaraf qilishga tayyor turgan kishilar kerak. Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyaviy roli nihoyat kattadir. Inson yakka, bir-biridan ajralgan tanho hayot kechirmaydi, muayyan bir jamoada, chunonchi, muayyan oilada, maktabda, sexda, kolxozda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o’rtasidagi bog’lovchi zvenodir. Odamning faoliyati o’yin, o’qish va mehnati xuddi mana shu jamoada voqye bo’ladi. Jamoa shaxsning eng yaqin konkret muhiti bo’libgina qolmay, balki shaxsni

tarbiyalaydi ham. Bolada maktabgacha tarbiya yoshida tarkib topa boshlagan xislatlar maktab jamoasida o’sadi va yanada yaxshiroq mustahkamlanadi. To’g’ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o’quvchilarda uyushqoqlik, intizom, saranjom-sarishtalik, o’z-o’zini tuta bilish, o’zini idora qilish, o’ziga nisbatan talabchan bo’lish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib yetishadi. Xarakter maktab ta’lim-tarbiyaviy ishlari va o’qituvchining har tomonlama ta’sirida, o’qituvchi boshchilik qilgan o’quvchilar jamoasi, kamolot yoshlar tashkilotlari ta’sirida, ijtimoiy foydali mehnatda tarkib topadi. Ota-onalar, o’qituvchi va tarbiyachilar boshqa tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda bolalarga o’z kamchiliklarini bilib olish va bu kamchiliklarni yo’qotish uchun harakat qilish hamda o’zlarida ijobiy iroda va ahloqiy sifatlarni paydo qilish ustida mashq qilish zarurligini o’qtirishlari lozim. Kishi shaxsiga xos bo’lgan yaxshi fazilatlarni o’zida paydo qilishga intilish yuqori sinf bolalarida yana ham kuchliroq bo’ladi. Bunday intilish o’z-o’zini anglashning yana ham o’sib borishi, ulardagi dunyoqarashning tarkib topishi va bu yoshdagi bola shaxsida g’oyaviy yo’nalishning shakllanishi munosabati bilan ayniqsa yaqqol ko’rinadi. Yuksak irodaviy va ahloqiy sifatlari bilan hammaga manzur bo’lgan kishilar namunasi o’z-o’zida xarakter tarbiyalashning (umuman o’z-o’zini tarbiyalashning) juda muhim vositasidir. Odamlar o’z intilishlari va hatti-harakatlarida o’sha hammaga manzur bo’lgan kishilarga taqlid qilishlari kerak.

“Zoya Kosmodemyanskaya obrazi, - deb yozadi bir o’quvchi qiz, - hamma vaqt menga to’g’ri yo’l ko’rsatib turadi. Men hamma vaqt o’z hatti-harakatlarim yoki o’rtoqlarimning hattiharakatlariga baho berayotganimda, zoya bizning o’rnimizda bo’lganida nima qilgan bo’lar edi, deb o’ylayman. Agar u bizning yo’limizni tutsa, demak, biz yaxshi qilganmiz, bordi-yu boshqacha yo’l tutsa, binobarin, biz xato qilgan bo’lamiz. Shu tamoyilga amal qilib ish tutish o’z xarakterimni tarbiyalashga yoram bermokda». Otaonalar, o’qituvchilar, tarbiyachilar, bolalarga taqlid uchun misol bo’la oladilar, albatta. Shuning uchun ota-onalar ham, o’qituvchilar ham, tarbiyachilar ham o’z hattiharakatlarida o’zbek kishisining ijobiy sifatlarini namoyish qilishlari lozim. Bunday sifatlarni namoyish qilish uchun esa kishining o’zi ularni egallagan bo’lishi kerak. So’zlar vositasida har bir narsa o’rgatilsa, namuna

yordamida taqlidchanlikka qiziqish uyg’otiladi, deydilar. Xarakterni tarbiyalash va o’z-o’zini tarbiyalashda faqat qanday xislatlarni o’stirish kerakligini anglab yetishning o’zigagina kifoya qilmaydi, ijobiy xarakter namunalarini bilishning o’zigina kifoya qilmaydi, ayrim xarakter hislarining qimmatli ekanligini tushunishgina ham kifoya qilmaydi, balki yana shu xislatlarga muvofiq ish qilish, bu xislatlarga ega bo’lish uchun ko’p mashq qilish ham kerak bo’ladi. Kishi xarakteri kishining faoliyatlarida, uning boshqalar bilan qiladigan munosabatlarida namoyon bo’ladi va ayni shu faoliyat va munosabatlarda tarkib topadi. Insonning yaxshi xarakter fazilatlari.

Vatanimiz gullab-yashnashida faol ishtirok etish jarayonida tarkib topadi. Hozirgi kunda laganbardorlik, hushomadgo’ylik, takobburlik, egaizm, tamoyilsizlik kabi salbiy illatlar o’rnini o’zaro muruvvat, hamkorlik, kishilarning hurmat qilish, ularga qo’llaridan kelguncha yordamlashish, mehr-sahovat, adolat, savobli ishlar qilish, xalol va haromni, vijdonni his qilish yaxshilik kabi ijobiy sifatlar shakllanib bormokda. Bizda yangicha xarakter xislatlari tarkib topmoqda. Bu kishilarning mehnatiga yangicha munosabat, jamiyat manfaatlariga sodiqlik, mehr-muruvvatli bo’lish, yordamga muhtoj kishilarga iltifotli bo’lish kabi yuksak fazilatlar shakllanmoqda. Kishilarimizning xarakter xislatlari ularni dunyoqarashi va e’tiqodlari bilan belgilanadi va ularning qiziqish, qobiliyatlari bilan mahkam bog’langandir. Dunyoqarash va e’tiqodlar

Vatanimizga fidokorona muhabbat, jasorat, mehnatsevarlik, mardlik, sabot va rostgo’ylik singari xarakter xislatlarini shakllantiradi va nohakliklarga nisbatan sezgirlik singari xarakter xislatlarining vujudga kelishi, ko’proq kishining hissiyotlarida zohir bo’ladi. Kishi xarakterida markaziy o’rinni ishg’ol etadigan sifatlar mazkur odamning iroda sifatlari va ma’naviy qiyofasida ifodalanadigan sifatlardir. Kishining xarakteri uning o’ziga xos xislatlarining majmuidir. Ana shu xislatlar orasida shu kishini jamiyat a’zosi sifatida xarakterlab beruvchi xususiyatlar eng muhim ahamiyatga egadir. Shunday odamlar ham bo’ladiki, ularning hatti-harakatida hissiyot ko’proq o’rin oladi; bunday odamlar o’z hatti-xarakatlarida ko’pincha tasodifan tug’iladigan his-tuyg’ulari ta’siri ostida ish ko’radilar. Bunday

odamlarning hissiyoti kuchli bo’lib, tasodifiy kayfiyat va tuyg’u-hissiyotga tez beriluvchan bo’ladilar, shu sababli ularning xarakteri hissiy xarakter deb ta’riflanadi. Ba’zi odamlarda esa irodaviy faollik undagi tuyg’u-hissiyotlar bilan birlikda «monand ravishda» namoyon bo’ladi, Masalan, mehnatsevarlik mana shunday xarakter xislatiga ega bo’lishdir. Mehnat faoliyati kishidan chidam va irodaviy zo’r berishni talab qiladi, buni esa unda mehnatga bo’lgan muhabbat hissi yengillashtiradi, mehnatni serunum qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kishi xarakterining muhim ijobiy xislati maqsadga intilishdir, kishida muayyan hohish tariqasidagi batamom anglab olingan intilishning ustun turishidir. Bunday kishilar istaklari nima ekanligini, maqsadlari nimadaligini va unga erishish uchun nimalar qilmoqligi va qanday qilmoq lozimligini hamisha biladilar. Bunday kishilar aniq maqsadga ega bo’lib, shu maqsadga muvofiq harakat qiladilar. Iroda bilan bog’liq bo’lgan xarakter xislati ayni vaqtda aql-farosat bilan bog’liq iroda xislati hamdir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Nishanova Z.T. Psixoiogik maslahat: o'q u v qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010 y. – N 4 toplam

2 To’rt temperament :sanguine, flegmatik, xolerik va melanxolik shaxs turlari. 2017. N 1 toplam. 231b.

3. Абрамова, Г.С. Практическая психология: учебное пособие / - Москва: Прометей, 2018. - 538 с.

4. S.K.Mangal: “General Psychology” 2013y. 19b.

KASB TANLASHDA QOBILIYATNING O’RNI VA KASB-HUNARGA YO’NALTIRISH ISHLARI

Oybek Xursandov To’ychi o’g’li
Surxondaryo viloyati Uzun tumani 7-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs rivojlanishi, kasb tanlashi va jamiyatda o’z o’rnini topishida uning qobiliyatlarining ahamiyati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Qobiliyat, idrok, shaxsiy sifalar, kasb tanlash, iqtidor.

Qobiliyatlar qiziqish va mayllar bilan mahkam bog‘liq bo‘ladi hamda odamning kasbga layoqatini ko‘rsatuvchi belgilarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xo‘sh, qobiliyatning o‘zi nima? Odamning biror faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan har qanday individual psixologik xususiyatni qobiliyat deb hisoblash mumkin. Qobiliyatni faqat bilim va malakalardan iborat deb hisoblab bo‘lmaydi. Masalan, agar odam hidlarning bir-biridan farkini yaxshi bilsa va ularni esda saqlab qola olsa, u holda bunday fazilat ximik uchun, degustator uchun, oshpaz va boshqa shunga o‘xshash kasbdagi kishilar uchun juda zarur bo‘lgan qobiliyat hisoblanadi. Basharti, kishining xotirasida juda ko‘p raqamlar, harflar, so‘zlar yoki tashqi alomatlar yaxshi (mustahkam) saqlanib qoladigan bo‘lsa, u kishi mana shu o‘z xotirasidagi ma’lumotlarni kerak paytda ishlata olsa, u holda bu ham juda zarur fazilat, matematikka, dasturchiga, konstruktorga va boshqa shunga o‘xshash kasbdagi kishilar uchun zarur bo‘lgan qobiliyat hisoblanadi.

Har qanday faoliyat muayyan qobiliyatlar jamini ishlatishni taqozo etadi. Masalan, veterinariya feldsheri yoki shifokor kuzatuvchan yoki tashabbuskor kishi bo‘lishi, chuqur aql idrokka ega bo’lgan chaqqon-epchil odam bo’lmog‘i, o‘z ishiga g‘oyat halol munosabatda bo‘lishi kerak.

O’quvchilarning kasbga qiziqish va qobiliyatlarini o‘rganishga oid hujjatlar

O’quvchilarning kasbga qiziqish va qobiliyatlarini o‘rgshanishga oid maxsus xujjatlarni ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish ishi maktablarda keng yo‘lga

qo‘yilgan. Quyida chiqqan “Kasbiy maslahat varaqasi” va “Kasb tanlash varaqasi” ni namuna tariqasida keltiramiz va shular asosida har bir maktab o‘z xujjatlarini ishlab chiqishi mumkin.

Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko’ra shaxs qobiliyatlari yo’nalishini ochib berishdir. SHuning uchun ham hozirda ko’plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo’llanmoqda. Qobiliyatlarni o’lchash muammosi X1X asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o’rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o’rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo’ladi. Masalan, Ayzenkning mashxur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo’lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o’lchaydi. Bu erda vaqt mezoni muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlash - qobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharok usullarni o’ylab topganlar. Ko’pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o’lchashning ishonchli mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o’zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Rus olimi E.A. Klimov yoshlar iqtidorining yo’nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb - xunar sohalarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so’rovnoma» deb atadi. SHunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo’naltirilgan sohasiga ko’ra 5 toifaga bo’ldi:

P(T) - tabiat (usimlik, hayvonlar, mikroogranizmlar);

T - texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari);

CH(O)- odam (odamlar guruhi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli ma‘lumotlar, belgili simvollar);

X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san‘at, musiqa).

Barkamol shaxsni tarbiyalash jamiyatning ezgu maqsadi hisoblanib, u ma‘naviyatning uzviy bir qismi va taraqqiyotni ta‘minlovchi muhim omildir. Buning uzluksiz ta‘lim tizimi jarayonida amalga oshirilishiga shubha yo’q. CHunki, uzluksiz ta‘lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Kasb-hunar kollejlari uzluksiz ta‘limning muhim bo’g’inidir. Qishloq xo’jalik kasb-hunar kollejlari boshqa sohalar uchun kichik mutaxassislar tayyorlaydigan kollejlardan o’ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Bu eng avvalo, qishloq xo’jaligining mavsumiyligiga bog’liq bo’lib, qishloq xo’jalik kollejlarida tashkil etiladigan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarda ularni hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Biz hozirgacha kasb tanlashga yo’llash ishlarini umumiy tarzda ko’rib chiqdik. Lekin shuni ta‘kidlash kerakki, o’quvchilarni qishloq xo’jalik kasblariga yo’naltirish o’ziga xos xususiyatlariga ega. Biz shu bo’limda qishloq xo’jalik ishlab chiqarishining sanoatga nisbatan ajralib turuvchi xususiyatlari haqida ma‘lumot berishga harakat qilamiz. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Mashina texnikasi jonli tabiat bilan bevosita aloqada ishtirok etadi.

2. Texnika muammolari, biologiya muammolari jonli tabiat haqidagi fan bilan qo’shilib ketadi.

3. Rang-barang tuproq iqlim omillariga agrotexnikadan foydalanishga differensial yondashishni talab etadi.

4. Agregatlashgan mashinalar (qurollar) kompleksining o’zgarib turishi, ishlarning mavsumiyligi mehnatni ustalik bilan tashkil etishni talab qiladi. Qishloq maktablarining asosiy vazifalaridan biri o’quvchilarni qishloq xo’jalik kasblariga qiziqtirish va yo’naltirishdan iboratdir. YAshash sharoiti va zamonaviy texnikalardan foydalangan holda qishloq maktablarining imkoniyatlari juda kattadir. Qishloq maktabi o’quvchilarda qishloq xo’jalik mehnatiga – paxtakor, g’allakor va hokazo kasblarga qiziqish o’yg’otishga da‘vat etilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida zikr etilganlar kasbiy tayyorgarlik tizimi hayotiyligini ta‘minlaydi, ya‘ni ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, psixologik-pedagogik qonunlarni hisobga olgan holda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O ‘zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o ‘rni va ularnig turli jihatdan tasniflanishi.

2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.

3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).

4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o´ zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).

5. Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. Academic research in educational sciences, (3).

6. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 2)

OYDINNISO LIRIKASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Polvonnazarova Mashhura

UrDU magistratura bo‘limi 221-adabiyotshunoslik guruhi talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada modern o‘zbek she’riyati vakili Oydinniso she’riyatining mavzu ko‘lami va unda ishй-muhabbat hamda tabiat mavzularining o‘rni xususida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Annotation: In this article, opinions are expressed about the themes of poetry of Uzbek modern poetress Oydinniso ,firstly, themes of love and nature are expressed.

Аннотация: В данной статье высказываются мнения о масштабах поэзии Фариды Афроз, представительницы современной узбекской поэзии, и месте в ней любви и природа.

Kalit so‘zlar: Oydin Niso, muhabbat, tabiat.

Key words: Oydin Niso, love, nature .

Ключевые слова: Ойдин Нисо, любовь,природа.

O‘zbek adabiyotining kenja vakillaridan biri Oydinnisodir. Hali juda ham yosh bo‘lsa-da, o‘zining teran va falsafiylikka yo‘g‘rilgan she’rlari ko‘plab muxlislarini topgan. “Oydinniso ijodini kuzatarkansiz, uning insoniy, ba’zan maishiy bo’lgan kechinmalardan badiiy hodisa yaratishiga guvoh bo‘lasiz. Shoira ijodi juda kutilmagan, kezi kelganda, hatto o‘ziga ham xos bo‘lmay qoladigan individual she’riyatdir. Bu badiiy zavqi bir-birinikidan keskin farq etadigan kitobxonlarni boshqalar didiga moslashish majburiyatidan qutqaradi. U estetik plyuralizm tomon yo‘l boshlaydi, individual she’riyat bo‘lgani uchun individual yondashuvni taqozo etadi[25]”,- deydi adabiyotshunos Muhayyo Yo‘ldosheva o‘z maqolasida. Darhaqiqat, shunday, shoira ijodini tushunish uchun, avvalo, kitobxon o‘z ruhiyatini tadqiq qilmog‘i lozim.

[25] Muhayyo Yo’ldosheva.”Yasha meni,olam..”www.kh.davron.uz.18.06.2012.

Oydinniso (Yo’ldosheva) 1980 yili Samarqand viloyatida tug’ilgan. O’zbekiston Milliy universitetini tamomlagan. She’riy va nasriy asarlari mamlakat nashrlarida muntazam bosilib kelmoqda. Tarjimon sifatida dunyo adabiyotining ko‘plab nodir namunalarini, jumladan Akutagava Ryunoske bir necha hikoyalarini va «Suvosti mamlakatida» qissasini o‘zbek tiliga o‘girgan.

Shoirlarda boshqalarga o‘xshamas qalb bo‘ladi va shu sababdan ham ular o‘zlarini ijod maydoniga uradilar. Ularning qalbidagi tug‘yon his-tuyg‘ularni qog‘ozga tushirishga chorlaydi. Oydinniso ham ana shunday shoiralarimizdandir va quyidagi misrlarga nazar solsak:

Shunday yashasangki, shunday yasholsang,
Armonsiz o‘lolsang istalgan lahza.
Yana shunday yashar edim, deyolsang,
Mabodo yuz bora tug‘ilsang qayta.

Ilk satrlarning o‘zi kitobxonga o‘zgacha bir kayfiyat beradi, yashashga, umrni mazmunli o‘tkazishga qandaydir motivatsiya beradi. Shuningdek, umr daftarini go‘zal xotiralar bilan to‘ldirishga chorlaydi va yuz bora tug‘ilganda ham shunday yashar edim, deb ayta oladigan bo‘lish kerakligini uqtiradi.

Shamollar ortingdan ergashib yursa,
Bilmasang qo‘rquv ne, nimadir hadik.
Qudrating, charxlangan hislaring ila
Har lahza o‘limga boraversang tik.

Shunday yashsangki, shundayin dildan,
Istalgan lahzada baxtli o‘lolsang.
Loaqal qalbingda shu orzu bilan
To‘xtab, yashamayin turolsang.

Oydinniso bu she’rida o‘lim haqida ham eslatib o‘tadi, sababi shuki, o‘lim-haq va inson har doim bu dunyo o‘tkinchi ekanligini eslab turishi va “Istalgan lahzada baxtli o‘lish”ning o‘zi bir baxt ekanini ta’kidlaydi.

Tuyg‘ular chuqur bo‘lsagina, chinakam asar yuzaga kelishi badiiy adabiyotning oltin qoidasidir. Oydinniso ijodida tuyg‘ular juda mo‘l va chuqur va ko‘p hollarda ular uyg‘onishiga kundalik hodisalar sabab bo‘lgan. Ko‘ngli ingichka, ruhi jilvakor, hassos shoira tuyg‘ularning asl mohiyati bilan tanishishga intiladi.

Necha oylar o‘tdi, fasllar o‘tdi,
Ehtimol, ming-minglab asrlar o‘tdi.
Bilmam sog‘inmadim yoki sog‘indim,
Sevgilim, og‘rindim, tinmay og‘rindim.

Sevgilim, og‘rindim, bir rohat tuydim,
Senli g‘amlarimni quvonib suydim.
Hamon eskirmagan, yosh va bokira —
Hamon juda go‘zal senli xotiram.

Shoirlar, menimcha, muhabbat tomonidan tanlab olingan ijodkorlardir. Ularga ishq ilohiy tarzda berilgan ne’matdir. Qay bir shoir ijodini kuzatmang, unda muhabbatga takror va takror duch kelaveramiz. “Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et”, deya bejiz aytilmagan. Sababi shuki, muhabbat insonni go‘zal qiladi, umriga mazmun baxsh etadi, hattoki uning g‘amlari ham shirin. “Senli g‘amlarimni quvonib suydim”, deya Oydinniso bekorga aytmagan. Ishq ana Sunday totli ne’mat! Yuqoridagi misralarni mutolaa qilish orqali bunga yana bir karra guvoh bo‘ldik.

“Muhabbatsiz odam ko‘ngli ochidan o‘layotgan sho‘rlik odamdir. Oydinniso shular bilan kifoyalanmay, hayratga solishda davom etadi: “Bizniki bo‘lardi bir yurak sevgi”. Dunyoda yurakdan kengroq va yurakdan torroq makon yo‘q. G‘amning tomchisi ham sig‘maydi, baxtning ummoni ham to‘ldira olmaydi. Shu paytgacha muhabbatning o‘lchovi bo‘lmaydi, degan qanoat hukm surardi. Oydinniso buning yanglish ekanini, aynan muhabbatning o‘lchovi bo‘lishi shartligini isbotladi.”[26]

Oydinniso ijodida tabiat tasviriga ham alohida urg‘u berilgan bo‘lib, tabiat hodisalari orqali o‘zgalarda takrorlanmas badiiy tasvirlar ila go‘zal ijod namunalari yaratgan:

[26] Muhayyo Yo’ldosheva.”Yasha meni,olam..”www.kh.davron.uz.18.06.2012.

Yuragimni yulqib olib,
O‘yna, shamol,
o‘yna, shamol!
Chertib ko‘rgin,
otib ko‘rgin,
Uyg‘ot! Uyg‘otib yubor!

Ko‘ksim uzra pufla, shamol.
Pufla,
yonsin uchquni.
Tortqilagin,
yulqilagin,
Tarqab ketsin tuguni.

Ketma, shamol,
jonim shamol.
Tutib bergin bugunni.
Bas qilayin axir endi
o‘ttiz yillik tushimni.

Qarang-a, shamol obrazi orqali qanday ta’sirli misralar yaratilgan. Ijodkorning mahorat darajasini belgilovchi bosh omil — xayolot kuchi, tasavvur boyligi hisoblanadi. Yuqoridagi she’rda ham Oydinniso o‘z xayolot olamida shamolni tiriltiradi, undan yonib yotgan yuragini sovitishini o‘tinadi.

Ushbu maqolamizda keltirilgan she’rlar, badiiy tasvir vositalardan anglashimiz mumkinki, Oydinniso kelajagi bor ijodkor, hali uning ijodini butun dunyo tan oladi!

ZEBO MIRZO IJODIDA VATAN MAVZUSINING AKS ETTIRILISHI

Matchanova Mastura
Urganch davlat universiteti Magistratura bo‘limi
221-adabiyotshunoslik guruhi talabasi

Har qanday shoir yoki ijodkorning kamolotga erishuvi avvalo uning milliy g‘oya va qadriyatlarga qanchalik sadoqat va ularni o‘z ijodida qo‘llay olishidadir. O‘zbek shoirlarining o‘zbek klassik sher’iyati va xalq og‘zaki ijodiga xos an’analarni davom ettirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy ma’no tashuvchi hamda vatanparvarlik tuyg‘usini o‘ziga xos tarzda tarannum etuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida ko‘rinadi.

She’riyatdagi Vatan haqidagi badiiy so‘z shoir tabiatiga, ruhiyatiga, dunyoni anglashi va anglatishiga daxldor so‘zdir. Ko‘pincha, shoirning o‘zligi, ichki “men”i bilan tashqi ijtimoiy muhit bitta lirik qahramonda jamlanadi. Vatan o‘sha obrazda namoyon bo‘ladi va aksincha shoirning o‘z dunyosi yoki yaratgan qahramoni Vatan timsoliga aylanadi...To‘g‘risi, har qanday adabiy hodisalar, she’riy asarlar o‘z-o‘zidan go‘zallik kashf etmaydi. She’riyatning ta’sir quvvati uchun shoirlarning iste’dod darajasi va shu iste’dodni namoyon etish uchun sog‘lom adabiy muhit muhim sanaladi. Jumladan, Zebo Mirzo ham Vatanga bo‘lgan muhabbatini o‘zining tengsiz satrlarida ifodalab bergan:

Ehtimol, o‘ldirur bir kuni ko‘rlar,
Tomiringda olov qoning bo‘laman.
Jonbaxsh quchog‘ingga jimgina singgan
Bir halol qurboning bo‘laman.

Zebo Mirzoning ushbu satrlari uning “Nur kukunlari” nomli she’riy to‘plamidan “Vatan”nomli she’ridan olingan.Bu satrlar orqali Vatani uchun har nega tayyor bo‘lgan shoiraning so‘zlari berilgan:

Otamday rozi bo‘l,
Onamday sevgin,

Men ham senikiman, o‘ksik qizingman.

Bag‘ringda ming yillik toshlar to‘sig‘in

Yorib chiqayotgan bir ildizingman!

Zebo Mirzo o‘zining Vataniga shunchalik mehr qo‘yganki,o‘zini Vatanning qizi deya nomlab,Vatanini esa ota va onaga qiyoslayapti.Shoira o‘z Vatanini har nimadan ustun ko‘radi va Vatani bilan qalban juda yaqin:

Men kimman?

Gamingga g‘amdosh bo‘lmasam,

Og‘ rimasam yorug‘ qiynoqlaringdan?

Boshiga osmonni ko‘targan tog‘dek

O‘sib chiqolmasam tuproqlaringdan?

Ushbu satrlari orqali shoiraning sodda, tanti va beg‘ubor xarakteri she’r orqali sizib chiqqan.Vatanining g‘amiga hamroh bo‘la olmasa, uning chekkan zahmat va qiynoqlaridan joni og‘rimagan, har qanday holda Vatani uchun shay bo‘la olmagan inson bu dunyoda hech kim emasligini ta’kidlagan.

Hukm et, shahiding bo‘lmog‘im uchun

Jannat bog‘larini tashlab kelurman.

Chorlasang, ortimdan butun bir xalqni

Hisor tog‘laridek boshlab kelurman.

Shoira Vataniga bo‘lgan cheksiz mehr va muhabbat tuyg‘ularini davom ettirib, agarda shunday bir imkon bo‘lsa va Jannat eshiklari ochilsa Vatani uchun Jannat ostonalarini-da tashlab kelishga roziligini satrlarida bayon etgan. Bizning o‘ylashimizcha, Vatanga bo‘lgan muhabbat shoiraning ushbu satrlari orqali eng yuqori nuqtaga ko‘tarilgan va muhabbatlarning yig‘indisi shu satrlarda ifodalangan. Negaki, Jannatga kirishdek baxtni Vatanining bir hukmi uchun rad qilish fikrni har kim ham ayta olmaydi.Shoira esa bu satrlari orqali Vatanini qay chog‘lik muhabbat bilan yaxshi ko‘rishini biz kitobxonlar tasavvurida jonlantirib bera olgan.

Sevmasang ham qattiq sevaveraman,

Chidayman xorlaring ta’na toshiga.

Shunchaki o‘lmayman,

Shuncha ishq bilan

Ko‘tarib o‘lurman seni boshimga!

Har qanday holatda ham, har qanday vaqtda ham Vatanni sevish tuyg‘usi shoira ko‘nglidagi Vatanga bo‘lgan muhabbatining she’rdagi aksi, suratidir. Shoira muhabbatini ne chog‘lik buyukligini ta’kidlab, “Shunchaki o‘lmayman, shuncha ishq bilan”deya baralla aytdi va Vatan muhabbatini oxirgi damgacha, so‘nggi daqiqalargacha ko‘ksida saqlab qolishini va shu ishq ila dunyodan ketishi fikrini ta’kidlagan.

Bir oz ko‘nglimniki bo‘ldim - o‘ksigan,

Rabbimniki edim, shubhasiz, biroq

Borim-yo‘g‘im bilan seniki edim,

Seniki bo‘lurman, ey Ona tuproq

Ushbu satrlar istiqlol davri she’riyatida go‘zal, benazir va betakror badiiyat namunallarini yaratayotgan hassos shoiramizning “Ona tuproq” nomli she’ridan olingan. Ko‘ngil, tuproq obrazlariga yuklatilgan badiiy fikr Vatan tushunchasini butunlay yangicha talqin etishga olib kelgan. Asarning nechog‘lik asl she’rligini badiiy-estetik salohiyatini poetik obrazlar zimmasidagi ohorli mazmun belgilashga yana bir karra ishonch hosil qilasiz. Demak, ona vatanini sevish, undagi bor narsalarni ardoqlash va sog‘inib yashashlik insoniyat fitratida mavjud bo‘lgan nozik his-tuyg‘udir. Qayerga bormasin kishi o‘z vatanini baribir qo‘msayveradi. Chunki, inson dunyo yuzini ko‘rgach birinchi bo‘lib vatanidagi havodan nafas ola boshlaydi, vatanidagi tuproqda ilk qadamlarini qo‘yib yurishni o‘rganadi, dunyoni tanishni shu vatanni anglashdan boshlaydi. Ilk kindik qoni to‘kilgan, dastlabki qadamlarini qo‘ygan tuproqni himoya qilishlik barchamizning Vatan oldidagi insoniylik burchimiz hamdir.

SHOYIM BO‘TAYEVNING “HAYKAL” HIKOYASI IJTIMOIY TALQINI

Yokubova Barno

UrDU 2-bosqich magistranti

Shoyim Bo‘tayev 1959-yil 20-iyunda Tojikistonning O‘ratepa tumanidagi Maydoncha qishlog‘ida tug‘ilgan. 1982-yilda Xo‘jand Davlat pedagogika institutining gazetalarda muxbirlikdan boshlagan. Ilk hikoyasi o‘quvchilik yillari “Gulxan” jurnalida, ilk qissasi talabalik chog‘ida “Sharq yulduzi” jurnalida bosilgan. 1984-yilda “Dunyoning sarhisobi bor”, undan so‘ng “Endi bari boshqacha” hikoyalar to‘plami chop etildi. “Kunbotardagi bog‘i” qissasi asosida “Bog‘” deb nomlangan yetti qismli videofilm yaratilgan. Yozuvchining “Shox” romani kitobxonlar e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Shoyim Bo‘tayev samarali ijodi va mehnati uchun “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.[1]

Shoyim Bo‘tayev nasrini kuzatar ekanmiz unda ijtimoiy-maishiy hayot chizgilarining falsafiy tasvirlarini, falsafaning o‘zini esa psixologik ifodasini topamiz. Shundan kelib chiqqan holda u asarlarida hayotiy dardni birinchi planga qo‘yadi. Jumladan, Umid Ali bilan kechgan suhbatda ham bu haqda quyidagilarni aytib o‘tgandi: “Bilmadim. Dardni ifodalayman deb, o‘ldim-kuydim soxta dardlarning atay o‘ylab topilishi odamning jig‘iga tegadi. Menimcha, ijodkor xalq xayotini yaxshi bilishi kerak. Jillaqursa, yon qo‘shnisining qanday yashayotganini his eta olsa ham, shuning o‘zi katta gap. Xayolan bir narsalarni o‘ylab topishga urinib ovora bo‘lishning keragi yo‘q. Ijodkor uchun material uning yonginasida: mahallasida, qo‘ni-qo‘shnilarida, tanigan insonlarida, bilgan narsalarida. Masalan, nosfurushni olaylik. Shu ham obraz. Buni bilib, his etib ifodalasa, qiziqarli narsa chiqadi. Nosfurush noskashga yetaklaydi. Hozir noskashlar ko‘p. Qishloqlarda devor tagida o‘tirvolib, nosvoyni otib o‘tirishadi. Bular kim? Nega shunday? Ijodkor o‘ylashi kerak, o‘rganishi kerak”.[2]

Shoyim Bo‘tayev o‘zi ta’kidlaganidek, asarlariga qahramonni yon-atrofidan, hayotdan oladi. Shu jumladan, ijodkorning “Haykal” hikoyasini tahlilga tortadigan

bo‘lsak, yuqoridagi fikrlar o‘z isbotini topganini ko‘ramiz. Shu kunga qadar ijodkorlar “haykal” detaliga ko‘p bora murojaat qilgan. Jumladan, Shukur Xolmirzayevning ham shu nomli hikoyasi bor. Sh.Xolmirzayev asarida ochiqdan-ochiq haykal detali kimga qaratilganligini yozib o‘tgan. Chunki uning hikoyasida bevosita haykal o‘z egasining, ya’ni Stalinning shaxsiyatini ochib berishga qaratilgan. Ammo Shoyim Bo‘tayevning “Haykal”[3] hikoyasida esa bu haykal mavhumligicha qoladi. Chuni asarda haykal shaxs sifatini emas jamiyatni, undagi odamlarning ahmoqona dunyosini ochib berishga vosita bo‘lib xizmat qilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak asarda haykal ham, shaharning nomi ham aytilmaydi. Asarda mavhumlik kuchli, ramziylik bor. Asar “Hech kimning yetti uxlab tushiga kirmagan, aslida, ko‘zni sal kattaroq ochib qarasa, har qanday odam ko‘ra oladigan oddiy, ayni paytda g‘aroyib voqea sodir bo‘lgan shahar… shaharning bodu havosi, mevachevasi va boshqa mayda-chuydasi haqida mehmon irimiga bo‘lsada bir og‘iz so‘z aytmagan... U faqat shahar o‘rtasidan o‘tadigan, bir vaqtlar suvi zilolday bo‘lgan daryoning endilikda chiqindilarga to‘lib-toshib, bo‘tanaga aylanib, tuproq qal’adagi devday to‘lg‘anib oqib yotishini o‘z hikoyasiga qistirib o‘tgandi” tasviri bilan boshlanadi. Bu bilan muallif nima demoqchi? Shuncha “yetti uxlab tushga kirmaydigan” voqealarni xalq nega ko‘rmaydi. Bozorchi sayyoh shuncha go‘zal tabiatga ega shaharni nega faqat “chiqindilarga to‘lib-toshib, bo‘tanaga aylanib” yotgan daryosi haqida gapiradi?

Yana quyidagi jumlaga e’tibor qaratish kerak: “Shaharda aholi g‘ij-bijmish. Ba’zilar, ularning juda-juda inoq yashashlarini aytisharmish; ba’zilar esa aksincha gap tarqatisharkanki, osmondan tushib, yerdan chiqqandek ko‘payishib ketgan odamlarning bir-birlarini ko‘rishga ko‘zlari, otishga o‘qlari yo‘q, deyisharkan”. Nega “ba’zilarning gapiga ko‘ra” butun shahar aholisi bir-biri bilan it-mushuk bo‘lishi kerak? Shu o‘rinda shaharda yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan aholi bir anjumanda uyushqoqlik biln qatnashgani aytiladi. Keyin esa uyushqoqlik so‘zi savol ohangida qo‘shtirnoq ichida beriladi. Yetmaganiga kinoya usulida bir kallalik odamning gapi bilan o‘sha daryo bo‘yiga haykal qurilayotgani aytadi. Bu bilan muallif nima demoqchi?

Yuqoridagi parchalarni tahlilga tortadigan bo‘lsak quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin bo‘ladi. Aslida shahar aholisi shu darajada g‘aflat uyqusida yotibdiki, o‘z vatanida bo‘layotgan g‘ayrioddiy voqealarni loqaydlarcha tomoshabini bo‘lib o‘tiradi. Shahar juda yaxshi tabiatga, yer usti boyliklariga ega, lekin bu shahar boshqalar naznida faqat “chiqindiga to‘lgan” daryo, xolos. Shahar aholisi esa “ba’zilar” tomonidan sepilgan konflikt qurbonlariga aylangan. O‘sha ba’zilar ularni har otgan qadamini hisobini yuritadi. Anjuman voqeasida ham uyushqoqlik bilan qatnashdi deb ta’kidlab qo‘yishadi. Hikoyada esa buning tedkarisiga ishora qilgan holda “uyushqoqlik bilan” jumlasi taajjub ostida qo‘shtirnoq bilan beriladi.

Asar davomida haykalning qurilishi bilan bog‘liq jarayonlar yumor tarzida beriladi. Bu tasvirlarni o‘qir ekansiz, bevosita Jonatan Svift tomonidan satirik-fantastik janrida yozilgan “Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga avvalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari”[4] romani ko‘z oldingiz keladi. Ayniqsa, asardagi Lilliputiya va Blefusku davlatlari o‘rtasida jangga sabab bo‘lgan omil, pishgan tuxumni qaysi tarafidan (uchli tarafidanmi yoki tekis tarafidan) sindirgan ma’qulroqligi haqida bahs hikoyadagi voqeani esga solib yuboradi. Jumladan, 2-3 yil ichida qurib bitkazilgan haykal ustida borgan bahslarga e’tibor qarataylik. “Haykalning chap qo‘li ko‘ksiga qovushtirilgan, u o‘ng qo‘lini cho‘zib kunbotar tarafga ishora qilib turardi. — Haykal o‘ng qo‘li bilan ishora qilib turgan tarafda o‘ttiz yildan buyon ayollar qamoqxonasi bor ekan. Bu qamoqxonani ilgari hech kim bilmaskan, haykal bahonasida kattayu kichikka ayon bo‘lib qoldi. Bitta-yarimtasi, bay-bay, bu mahobatli, zo‘r haykal ekan-da, xo‘sh, qayoqqa ishora qilyapti, deb so‘ragudek bo‘lsa, boshqasi, ayollar qamoqxonasiga-da, deya kesatardi”. Keyin esa haykalni boshqa tarafga o‘zgartirishadi. “…oradan ancha vaqt o‘tgach, haykalning o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qovushtirishib, chap qo‘lini kunchiqar tarafga uzatib qo‘yishdi”. Afsuski, keyin o‘ylab qarasala bu ham to‘g‘ri qaror bo‘lmagani ma’lum bo‘ladi. Chunki, “Hayqalning chap qo‘li ishora qilib turgan joyda o‘ttiz yildan buyon erkaklar kamoqxonasi bor ekan. Bu qamoqxonadan ham shahar ahli bexabar ekan, eshitib, barchaning taniga titroq kirdi. Emishki, bu yerda ashaddiy kallakesarlar yotisharmish,

bitta-yarimtasi qochib chiqqudek bo‘lsa, hammaning sho‘riga sho‘rva to‘kilarmish; emishki, ular o‘sha yerdan turib ham hukumatga so‘zini o‘tkaza olisharmish, kattalarning sir-asrorlarini bilisharmish... Vahima!” So‘ng haykalni yana boshqa tarafga aylantirib qo‘yishadi. Ammo bu ham tog‘ri ish bo‘lmay chiqadi. Endi uning o‘ng qo‘li to‘g‘riga, baayni oydin yo‘llarni ko‘rsatayotgandek uzatib qo‘yilgan, chap qo‘li esa ko‘ksiga qovushtirilgandi. Ammo roppa-rosa bir haftadan so‘ng haykalning ustiga yana mato tashlab yopib qo‘yishdi. Chunki “Daryoning chap sohilida o‘n qavatli mehmonxona bor edi. O‘sha mehmonxonada o‘sha kunlari fohishabozlik, o‘g‘rilik avjiga chiqib, kimlar bedavo dardlarga yo‘liqqan, kimlar shir yalang‘och qolgan, hammayoqni shov-shuv, mish-mish tutgandi. Mehmonxona xodimlarining ko‘pchiligini haykal chap va o‘ng qo‘llari bilan ko‘rsatgan joylarga jo‘natishgandi. Mahobatli, zo‘r, o‘ziyam sof tunj haykalning oldinga cho‘zilgan tunj ko‘li o‘sha mehmonxonani ko‘rsatib turardi!..”

Yuqoridagi haykal ustida bo‘lgan bahslarga etibor qaratadigan bo‘lsak, bu voqea asosida muallif boshqa bir narsani aytmoqchi bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Xuddi, “Guliverning sayohatlaridagi” “tuxum” misolida Angliyani o‘sha davrdagi qiyofasi ochib berilgandek, hikoyada ham “haykal” vositasida ma’lum bir ijtimoiy muammolar ko‘tarilgan. Ya’ni asar avvalidagi haykal nimaga kerakligi uchun berigan javoblardan ommani ma’rifatdan uzoqligini, haykalni esa chapga, o‘ngga, to‘g‘riga aylantirishlaridan esa davlatning taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan islohotlar qolib, arzimagan ishlarga bosh qotirishlar, mablag‘ sarflashlari ayovsiz tanqid qilingan. Bu kabi asarlar orqali o‘z davrining muammolari ko‘tarilib chiqiladi. Xalqning, jamiyatning oldiga ko‘zgu qo‘ygandek bo‘ladi. Bu kabi asarlar qatoriga o‘zbek adiblaridan Said Ahmadning “Sobiq” hikoyasini ham qo‘shish mumkin. Chunki uchala asarda ham jamiyatdagi dolzarb, o‘z yechimini kutib turgan muammolar turganda, odamarning arzimas ishlarga bosh urib qo‘yichlari satirik va sof yumor tarzida qattiq tanqid qilingan.

Shoyim Bo‘tayevning o‘zi ta’kidlaganidek, insonning qalbida koinot qadar olam bor. Bu olam santimetrma-santimetr zabt etiladi. Bu olamni har birimiz qo‘riqligicha

qoldirmasligimiz kerak deb o‘ylayman. Adabiyot esa ayana shu inson qalbidagi koinotni asrab avaylaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umid Ali bilan suhbat. «Bekajon», 2007 yil, 57-son

2. Jonatan Svift. “Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga avvalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari” romani. “Sharq” nashriyoti, Toshkent-2009

3. Xurshid Davron kutubxonasi.

4. Nabijon Boqiy. Sara hikoyalar javoni – I jild. ziyouz.com kutubxonasi.

ILM-FAN RIVOJIDA ZAMONAVIY METODLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Yuldashev Zafarbek

Urganch davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi ta’lim sitemasining asosiy talablaridan biri hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars mashg‘ulotlarida qo‘llash va zamonaviy interfaol metodlarning metodologik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so‘z. Yangi interfaol metodlar, “Klaster” metodi, didaktik tarbiya va o‘yin.

Yurtimizda ta’lim tizimida kechayotgan islohotlar o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra turli ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettirgan. Bunda yoshlarimizning har tomonlama rivoji asosiy maqsad qilib olingan. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: “Hayotimizga katta kuch bo‘lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi” deganlari bejiz emas.[27]

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o‘ta qat’iy hamda murakkab talablar qo‘yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to‘laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro‘y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj ta’lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.[28]

Yoshlar uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayoniga to‘la tortilishida, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar orasida katta bo‘lishida, har bir masalaga chuqur yondashishga erishishida, muhitga tez moslasha bilishida, mustaqil, oqilona, to‘g‘ri yo‘l tanlashida,

[27] Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.– T.:“O‘zbekiston”, 2017. 25.

[28] O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari."Fan” nashriyoti-2006.

erkin fikrlash, bayon etish qobiliyat va ko‘nikmalarini shakllanishida pedagogik mahorat birlamchi manbadir. Pedagogik mahorat asoslariga quyidagilar kiradi: pedagogik madaniyat; kasbiy kompetentlik; pedagogik ko‘nikma va qobiliyat; nutq madaniyati va pedagogikning o‘zaro ta’siri; o‘zini boshqara olish malakasi; psixologik-pedagogik bilimlar; o‘zini-o‘zi tahlil qilish; ijodiy izlanish. [29] Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma’lum bir pedagogik tizim mavjud bo‘ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o‘z ta’sirini o‘tkazadi va ta’lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsadi esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini, o‘z navbatida, yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizual, audio vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.[30]

Zamonaviy va sifatli dars tashkillashtirishda samarali metodlardan birining, jumladan, klaster metodining metodologik asoslariga to‘xtalib o‘tamiz.

“Klaster” metodi.[31] Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod

[29] .Gaynazarova. Tarbiyachilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish yo‘llari.–T:“Xalq ta’limi” jurnali, 5-son. 92.
[30] H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. “Iqtisod-moliya”- 2009.
[31] S.Pirnafasova veb sahifasi. Interfaol metodlar.

muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Stil g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosidan tashkil etiladigan mashg‘ulot jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar va o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ulguncha davom ettiring.

3. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.

4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni, bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.[32]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[32] S.Pirnafasova. Interfaol metodlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.–T.:“O‘zbekiston”, 2017. 25.

2. O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. “Fan” nashriyoti-2006.

3. Gaynazarova. Tarbiyachilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish yo‘llari.–T: “Xalq ta’limi” jurnali, 5-son. 92.

4. H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. “Iqtisod-moliya”- 2009.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	SAYYID SHARIF JURJONIY QALAMIGA MANSUB “TA’RIFOT” ASARINING ZAMONAVIY NASHRLARI Abdullayev Davronbek Dilmurod o’g’li	4
2.	ҚОРАКЎЛЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИНФРАТУЗИЛМА СУБЪЕКТЛАРИНИ МУВОФИҚЛАШТИРИШ Иномов Жафарбек Ғуломжон ўғли	9
3.	“BOLALIK” SO‘ZI QATNASHGAN VA BOLALAR MAVZUSIGA OID MAQOLLAR BADIIY SAN’ATLAR Akbarova Gulasalxon	13
4.	METHODS TO INCREASE THE VOCABULARY OF 7TH GRADE STUDENTS USING SHORT STORIES Turg’unboyeva Gulshanoy Ravshanbek qizi Baxtiyorjon Siddikov Saidkulovich	16
5.	ISSIQLIK IZOLYATSIYA G’OVAK BETONLAR Eshqulov Nuriddin O’ktam o‘g‘li Ne’matov Jaxongir Shuhrat o‘g‘li Norqulov Muhammad o‘g‘li Qobilov Jahongir Jamshid o‘g‘li	19
6.	TILSHUNOSLIKDA LUG`AT TURLARI VA TERMINOSFERA Kurbanova Go’zal Abduraximovna	23
7.	NODAVLAT TA’LIM MUASSALARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING ILMIY AZARIY ASOSLARI Xakimova Gulchehra Sayrixonovna	27
8.	A CROSS-SECTIONAL STUDY IN THE ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM Amir Abushaev	31
9.	ТЕРГОВ ВА СУРИШТИРУВ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Солиев Элбек Рустамович	40
10.	ТЕРГОВ ВА СУРИШТИРУВ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Солиев Элбек Рустамович	43
11.	ҲОЗИРГИ ЗАМОНАВИЙ УЙ ЖОЙЛАРНИ ПОЛИСГИПС АСОСИДА ИССИҚ СОВУҚДАН ҲИМОЯЛАШ Тилавов Элбек Нурмуҳаммад ўғли, Абдикомилова Моҳинур Жамолиддин қизи Райимқулова Сурайё Фарход қизи, Райимқулов Елдор Холмат ўғли Саримсоқов Самандар Исломқул ўғли	47
12.	УРФ-ОДАТ ВА АНЪАНАЛАР ОРҚАЛИ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ИНСОНПАРВАРЛИККА ТАРБИЯЛАШ О.Т. Қайпенова	51
13.	TASVIRLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISH Narzullayev Hasan Zayniddin o‘g‘li	57
14.	ATOM BOMBASIDAN KUCHLIROQ HAVF YOKI JADIDLARIMIZ OGOHLANTIRGAN “MILLIY FOJIAMIZ” O’rinov Umidjon	61
15.	XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA HUQUQIY QADRIYATLARNING QOZILAR FAOLIYATIDA AKS ETISHI Karimov Qahramon Sodiqovich	67
16.	INNOVATIVE METHODS IN TEACHING PHYSICS Boboxo‘jayev Qudrat Umarovich	72

	Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich	
17.	TIL-TARIXIY IJTIMOIY SIYOSIY JARAYON VOSITASI Mirzaqulova Muqaddam To‘xtasinovna	76
18.	PSIXOLOGIK TRENINGLAR VA ULARNI TASHKIL QILISH Noila Niyazaliyeva Karimjonovna	79
19.	MAKTABDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING USLUBLARI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI G’oyibnazarova Zohida Egamberdiyevna	83
20.	QIZAMIQ KASALLIGI O’taboyeva Zamira Rasuljonovna	89
21.	РЕБЕНОК — ДОШКОЛЬНИК КАК ОБЪЕКТ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ И СУБЪЕКТ ВОСПИТАНИЯ Мамаджанова Хушруй Шавкатовна Комилова Ферузахон, Мадалиева Динорахон	93
22.	YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING DASTLABKI BOSQICHLARI Iloviddinov Ilyosbek Rasuljon o’g’li	97
23.	O’QUVCHILAR INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING SHAKLLANISHIDA OILANING ROLI Ermatova Munojat	100
24.	KASB TANLASHDA QOBILIYATNING O’RNI VA KASB-HUNARGA YO’NALTIRISH ISHLARI Oybek Xursandov To’ychi o’g’li	105
25.	OYDINNISO LIRIKASINING O‘ZIGA XOSLIGI Polvonnazarova Mashhura	109
26.	ZEBO MIRZO IJODIDA VATAN MAVZUSINING AKS ETTIRILISHI Matchanova Mastura	113
27.	SHOYIM BO‘TAYEVNING “HAYKAL” HIKOYASI IJTIMOIY TALQINI Yokubova Barno	116
28.	ILM-FAN RIVOJIDA ZAMONAVIY METODLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI Yuldashev Zafarbek	121

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Mas’ul muharrir

I.I.Abdumannonov

Nashrga tayyorlovchi

R.I.Abdullayev

“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 25-sonli respublika ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami, 30-dekabr, 2023-yil. – Farg‘ona viloyati: talqinvatadqiqotla.uz – 127 bet.